


Mirach Chag'ri Oqtaah

SEN O'N YETTI YOSHIMSAN



Mirach Chag'ri Oqto'sh

SEN O'N YETTI YOSHIMSAN



Toshkent
«Yoshlar matbuoti»

UO'K 821.512.161-3

KBK 84(5Turk)-44

0 - 98

Mirach Chag'ri Oqtosh

Sen o'n yetti yoshimsan/Mirach Chag'ri Oqtosh. – Toshkent
Yoshlar matbuoti, 2023. – 176 b.

ISBN 978-9943-8757-3-9

Yosh turk yozuvchilaridan biri Mirach Chag'ri Oqtosh o'zining «Sen o'n yetti yoshimsan» nomli kitobi orqali o'quvchilarini javobsiz va alamli ishq hikoyasi bilan tanishtiradi. Mazkur asar sevgi, ishonch, mehr-oqibat, sadoqat, rashk va oila haqida qisqacha kechinmalardan iborat. Mirach Zumra bilan futbol o'yini chog'ida uchrashib, uni bir ko'rishdayoq sevib qoladi. O'shanda Zumra endigina 17 yoshda edi. Oilaviy hayotidan chuqur psixologik jarohatlar olgan Zumra Mirachning qalbida chuqur va unutilmas iz qoldiradi. Ikkalasi ham bolaligida otalari tomonidan tashlab ketilgani yoshlarning o'zaro munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Qo'lingizdagi asarda yozuvchining samimiy muhabbati va ko'ngil qo'yan qizi bilan yo'llari tutashmagani sabablari, tafsilotlari ta'sirchan tarzda hikoya qilingan.

UO'K 821.512.161-3

KBK 84(5Turk)-44

Tarjimonlar:

Kamolaxon **SATVOLDIYeva**

Elvira **ANKALIYEVA**

Barcha huquqlar himoyalangan. Mualliflik huquqi egasining yozma ruxsatisiz kitobning ma'lum qismini yoki to'lig'icha turli shakl va ko'rinishda chop etish, matn, audio, videoyozuv holatida internet orqali tarqatish man etiladi.

ISBN 978-9943-8757-3-9

© Indigo Kitap Yay, 2021

© Mirach Chag'ri Oqtosh, «Sen o'n yetti yoshimsan». «Yoshlar matbuoti»
2023-yil.

Bora olgan joyiga qadar emas,
kuchi yetgani qadar
sevmuq kerak...



Men dardlarimni anglata olmay qiynalgan
kechalarda siz yonimda emasdingiz...

O'ZDEMİR ASAF

«Gul shoxida,
ayol esa sevganining
yonida go‘zaldir»



Eng chiroyli minnatdorlik

*B*u asarda men sanab o'tmaydigan ism qolmaydi, chunki bunisi oddiy va sodda minnatdorlik bo'lib qolishini xohlamayman. Unga rahmat, bunga tashakkur shakli ham ma'qul emas. Zotan, yozgan kitoblarimda menga siz o'quvchilarimdan boshqa hech kimning yordami tegmagan.

Bu yo'lda yonimda faqat siz bo'ldingiz. Chunki biz bir xil tuyg'ularni boshdan kechirgandik.

Men eng chiroyli va eng katta tashakkurimni bu kitobni o'qiyotgan, kirlangan qancha tuyg'ular va zanglagan qancha qalblarning ichida sof qolishni uddalagan, eng pok va eng toza tuyg'ularga ega bo'lgan senga atayman.

O'zingdek samimiy qalb egalariga duch kelishingni ti-layman. Yaxshiyam, borsiz. Men bu kitobda to'xtovsiz olgan zarbalarimga va orqamdan urilgan pichoqlarga qaramay yashashda qanday davom etolganim haqida aytib bermoqchiman. Balki sen his qilgan og'riqlar meniki bilan aynidir...

Bu kitob hech qachon ketmaydigandek umid berib, ketganlarga, chorasiz holatda sevishning nima ekanligi-ni bilganlarga eng yaxshi «dori...»

«Sevgi egali bo'lishni
istaydi,
qarovsiz qoldirilishni
emas...»



Ayollarni tushunadigan erkak

Qarshingizga tez-tez ayollarni tushunadigan erkak sifatida chiqayotganimni bilaman. Insonlar, ayniqsa, oldindan xulosa qilishda birinchilikni hech kimga berishni xohlamaydigan ayollar «Erkaklar ayollarni tushuna olarmidi?» kabi savollarni berishga usta bo'lishadi. Aslida esa hech biri tushuna olish ehtimolini o'ylab ham ko'rmagan bo'ladi. Bir ayolni eng yaxshi tushunadigan erkak u bilan bir xil iztiroblarni va tajribalarni totib ko'rgan inson bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan paytimda, borishni juda ham xohlaganim maktab sayriga onam yetarlicha imkoniyati bo'lmagani uchun yubora olmagan kunida ayollarni angladim.

Nota ma'lumoti

*H*ar bir ayol, sevgan odamining u uchun nimalardan voz kecha olishini va hech narsaga qaramay unga g'amxo'rlik qilayotganini ko'rishni orzu qiladi. Biroq ular uchun yanayam muhimroq nuqta «ishonch» tushunchasidir. Agar erkak bir ayolga bori bilan qo'shib, ishonchini berolsa, so'zlarining ustidan chiqsa va u ayol bularning barchasini ko'rolsa, o'sha odamga oshiq bo'ladi. Aslida, bir ayolning ko'nglini olish qiyin emas, unday deb o'ylamang, biz ularga qanday yoqishni bilmaymiz, xolos. «Ayollar musiqiy asboblardan kabidir, hamma erkaklar ham notalarni bilavermaydi», deb bekorga aytishmagan. Notalarni bilish kerak, janoblardan, bilish kerak.

Notalarni o'rganmasdan turib, o'zini oshiq hisoblaydiganlar bor. Lekin natijasi esa hammamizga ma'lum. Shu bois diqqatli bo'ling. Katta umidlar, xayollar bilan sevgiga qadam tashlagan ayollar yiqilganlaridan so'ng o'zlariga kelishi siz o'ylaganchalik oson bo'lmaydi.

Unutmang...

**Va men eng ko'p senning skripkang bo'lishni,
dil izhori qilayotganimda, bo'yningdagi iforing butun
tanamga singishni xohlardim.**

Sukut nuqta degani

Odam aslan xom go'shtdan iborat bir parcha bo'ladi, tashvishlar esa uni pishitib sayqallaydi. Bu o'xshatishni, albatta, to'g'ridan-to'g'ri «xom sut emgan banda» jumlasini bilan bog'lay olamiz. Odamni odam qilgan ham uning his qilolgan tuyg'ulari va iztiroblaridir. Ular sevolganidagina haqiqiy insonga aylanadi. Baxt va sevgi bir xil qiymatda bo'lmasa ham, odatda, baxtli onlarimizning juda qisqa ekanligiga o'zimizni ishonmaganmiz. Nima ham qilolardik, uzoq davom etadigan baxt ham qisqa vaqt ichida havoga singib ketolarkan. So'ngra bir qarasangiz, og'riqlar eshikni taqillatayotgan bo'ladi. Nachora, eshikni ochib, ularni mehmon qilishdan boshqa choramiz ham yo'q.

Har kimning ichida eng yaqin insoni bilan ham o'rtoqlashmagan bir siri bo'ladi. Xuddi o'z «men»ida saqlayotgan bir yashirin tomoni bo'lgani kabi.

«Hech kim» der ekanmiz, eng yaqinim deganingizdan ortiqclarini ham o'z ichiga olishini unutmaylik.

Har qanday odam kimnidir o'ziga sirdosh tutib, o'ta shaxsiy muammolarini bo'lishadi, lekin shunday onlar bo'ladiki, umuman boshqa joyda, boshqa odam bilan butkul farqli bo'lgan tomonlari borligiga guvoh bo'ladi. Va aynan o'sha lahzada hayotning har oni kutilmagan sovg'alar va yangiliklarga to'la ekanligini tushunib yetadi...

Bu gaplarni o'qigandan so'ng, balki eng yaqin insonlarinigizning yonida o'zingizning sirli tomonlaringizni axtarishga tushib ketarsiz, ovora bo'lmang. Balki tasodifan qarshilashish yanayam maroqliroq bo'lar?!

Jim qolgan odam taslim bo'lgan yoki tamoman holdan toyganidan darakdir. Sizni qiynayotgan narsa eng katta og'rig'ingiz bo'lsa ham bo'lishing. Sevgi ulashilganda qanchalik go'zal bo'lsa, dard seni tushungan odam bilan bo'lishgan oningda osonroqdek tuyuladi. O'tib ketadi deya olmayman, lekin biroz yengillashtiradi. Yo'qdan ko'ra yaxshi. Yiqilganning ahvolini yiqilib ko'rgan tushunadi. «Seni yaxshi tushunyapman deganlar bo'ladi, lekin kun kelganda «tepki»lar sohibi ham ular bo'ladi. Aslida, bu dunyoda biriga yaqinim deya olish uchun boshqasidan zarba yeyish shart emas. Achinarli holat, lekin hozir insonlar bu zarbalardan himoyalanihga ham ulgura olmay qolishyapti. Har narsaning badali borligini esa bu holat ortig'i bilan isbotlaydi. Xavotirga tushmang, hammamiz to'lashimiz kerak bo'lgan badallarni to'laganmiz. Yana bo'lsa, yana to'laymiz. Chunki biz xudbin emasmiz. Nima bo'lsa bo'lsin, hatto loyiq bo'lmagan har qanday qiyinchiliklarimizga ham ko'ksimizni keramiz. Ular buni bilganlari uchun ham ko'rsatmagan azoblari qolmadi.

**Bizning aybimiz ishonganimiz edi.
Yana shu holat bo'lsa, yana ishonamiz.**

«Ko'zim qiymaydi», deganlar eng go'zal tuyg'ularimizni qiyma kabi parchaladilar

Mayli, tuyg'ularingdan istaganingcha qoch. Xohlaganing qadar «Seni xafa qilishni istamayman», deb ayt. Istaganingcha senga aytgan har gapimga befarq bo'l. Bilasanmi, ko'zlaringga termilganimda, yillar bo'yi jumbog'ini topolmagan tugunlarim beixtiyor yechildi. Men senga doston yozsam ham anglay olmas ekansan. Va yana kelib shunchaki «Seni xafa qilishni xohlamayman», deyishda davom etaversan. Qarshingda tik turishimga qaramasdan, meni bag'ringa bosmagan har oning ming bo'lakka bo'linganimni-da, his qilolmaysan. Va eng yomoni menga shunchalar go'zal boqib, so'ngra o'zingni hech qaramaganday tutganingni, kamiga bu yoqimsiz haqiqatni qabul qilishim kerakligini kutgan oning qanchalik ado bo'lganimni, hatto sezmagansan.

Qayta-qayta xafa qilishni istamaganingni aytib, meni yer bilan bir qilganingni ko'rmayapsan. Buni yana qancha davom ettirasan, bilmadim. Yagona bilgan narsam: Men seni javobsiz va chorasiz holda sevaman.

Hamma sevgi hikoyalari ham ikki tomonlama bo'lganida, yozuvchilar ishqni kitoblar orqali yetkaza olmagan, Sezen Aksu qo'shiq yarata olmagan bo'lardi. Yildiz Tilbe chorasiz

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

holda «Sen ham sev, ammo sevilma» kabi yonib aytilgan qo'shiqlari bo'lmasdi. Qara, men ham senga bo'lgan tuyg'ularimning ta'rifini shu kitobga to'kib soldim. Aslida, seni sevishimning biror ta'rifi yo'q. Sen tabiiy ravishda, beixtiyor sevilasan. Hech qanday rejalarsiz, o'ylanmasdan. Shunday, chiroyli tarzda. Yana chorasizlarcha...

**Ortiq «Seni xafa qilishni istamayman», deyishingga
hojat yo'q, meni haddan ziyod xafa qilib bo'lding.
Seni sevardim, ammo senga ehtiyojim yo'q.
Chunki sen endi ham ko'zimdan, ham qalbimdan
yiroqlashding.**

Ehtiyot bo'l

Qalbidagi barcha yara izlari senga oid. Har birining alohida xotirasi va og'riqlari bor. Sen uchun ostida qolmagan halokat, ichida men qatnashmagan urush, to'kkulik ko'z yosh, qilib ko'rmagan urinishim qolmadi. Hammasi sendan ham oldin ishongan shirin tabassuming uchun edi. Bir tomonim cho'l bo'laturib, boshqa tomonim moychechaklar to'labog' bo'ldim sen uchun. Ammo bari befoydaligining guvohi bo'ldim, sendan kechishimga o'zing majbur qilding. Sen bog'imning moychechaklarini birma-bir uzib olarkansan, men ularni his qildirgan azoblaringdan oqqan ko'z yoshlarim bilan sug'orardim. Hatto ularga achinishni bilmading-a? Meni uzluksiz oxirgi qatorlarga qo'yganingda, sen men uchun hammadan afzali eding. Men seni boshpanam deb bildim, har qanday ozoringga qaramasdan qayta va qayta senga yukinishni xohlading.

Eng yomoni nima edi, bilasanmi? Sen bularni hech birini ko'ra olmading.

Men nimani tushunib yetdim, bilasizmi? Qo'lingizdan kelgunicha harakat qiling, lekin qarshingizdagi inson eng kichik harakatingizga ham arzimasa, qo'yib yuboring. Mayli, ketsin, sizdan yaxshirog'ini topolsa, o'sha bilan birga bo'lsin. Biz esa azoblar bilan qolaveramiz va uni biz kabi go'zal sevoladigan insonni uchrata olmasligi taskinimiz bo'lsin. Sevadigan in-

son demayapman, go'zal sevadigan inson. Bu ikkisining o'rtasida farq bor. Bir xil ovqatni har xil oshpaz pishira oladi. Lekin oralaridan faqat bittasigina eng mazalisini tayyorlay oladi. Oshiqlar ichida o'sha eng go'zal sevolgan qalb bizniki edi. Shuni ham unutmashimiz kerakki, endi hech bir soniya ularga biz bilan kechirganlarichalik shirin lahzalarni tortiq qilolmaydi. Umrimizning totli bo'lishi esa go'zal seva olish kabi tuyg'ularimizga bog'liq. Afsuski, ular bu haqiqatni bilishmaydi.

Ya'ni tushunishing kerak bo'lgan narsa, balki oshiqlarning ko'pdir, lekin ularning hech biri sening siymoyingni menchalik ming xil ma'noga uyg'unlashtirib go'zal sevolmaydi.

**Samimiy sevganni ko'rish uchun
go'zal nigoh ila qarashni bilish kerak.
Biroq meni sevishingni kutish,
ko'r odamning ko'zi ochilishini istashdek edi.**

Qachondir hammasi yaxshi bo'ladi

*H*aqiqatan, yoqimli bir yupanch, shunday emasmi? Lekin ishontira oladigan darajada emas. Ishonch juda muhim masala. Bu so'zga duch kelishimiz mumkin bo'lgan turli xil ko'chalar mavjud. Har biri o'zgacha ma'no aks etadi va inson o'z xohishiga ko'ra birdan xotirjam yurishda davom etadi. Albatta, ishonchning asosida «Alloh» turadi, qolgani ham zotan, Allohning amri.

Masalan, inson zotida sevgiga, baxtli bo'lishga yoki notanish insonga nisbatan mavhum ishonch bo'lishi mumkin. Ba'zi insonlar ko'zga yaqin-u, lekin qalbgga yaqinlik borasida omadlari chopmagan bo'ladi. Ularni biz tuyg'ular borasida nuqsonlilar deb ataymiz. Men esa har doim shunday insonlarga ro'baro' bo'ldim. Ko'zlarim emas, qalbim to'yishi muhimligini his qilardim. Chunki husnni emas, ko'proq tuyg'ularni qadrlash to'g'ri qaror edi men uchun. Baxtga qarshi kimsa buni ko'rmadi. Ya'ni uddalay olmadi.

Ko'zingizni ko'r qilganlarni emas, qalbingizdagi eng kichik yarani bo'lsa ham tuzatishga harakat qiladigan insonlarni seving. Shundagina ishonchingizni poymol qilishmaydi. Shundagina zarradek kutishlaringiz ortidan ham kichik baxtlar gul ochadi.

Ba'zi jumlar quloqqa yoqimli eshitiladi, lekin ishon-tira olmaydi. Shunchaki, eshitish bilan kifoyalanasiz.

Bizni ham ishonchimizga, ham sevgimizga, ham tuy-g'ularimizga ega bo'loladigan insonlar bilan uchrashtir, Allohim. Balki shundagina hammasi yaxshi bo'lar.



1 – bo'lim

*H*ayotning menga tinimsiz ro'baro' qilayotgan, yengishim qiyin bo'layotgan zarbalari bilan kurashar ekanman uni sevish yelkamdagi yukni ozgina bo'lsa ham yengillash-tirardi. Bu bilan u meni qarzdor qilib qo'ygandi. Qarzimni chorasizlarcha sevgim bilan to'layotgan edim. Bu shunchaki tasalli emas, achchiq haqiqat. Men haqiqatdan yiroq narsalar bilan o'zimni ovutadiganlardan emasman, unday bo'lmayman ham. Birini qattiq sevarkan, uni boshqasiga oid ekanligini bilgan holda qayergacha borolardi inson? Tashlagan har qadami uni jarlikka yanada yaqinlashtirmaydimi? Yoki bilganlarini ichiga yutib tobora o'zini jarlikka mahkum qilib erishiladimi ishqqa? Bular muhokama qilinadigan mavzu bo'lsa-da, men jarlikni ko'ra turib, u tomonga qadam tashlashda davom etganman..

**Lekin yakuni-chi?
Yakuni nochorlik. Yakuni holdan toymoqlik.
Yakuni nima bilasizmi?
Yakuni tamoman bitmoq.**

Unutdim deyilgan har soniyada yana-da ko'proq sevilgan, ajralish soniyalari yaqinlasharkan yana-da mustahkamroq bog'langan, bog'lanayotib tugunga aylangan bir hikoya edi bizniki...

*U*ni ilk bor ko'rganimda bu qadar telbalarcha sevolishim xayolimning bir burchagiga ham kelmagandi. Zotan, ishq deya nomlangan illat hayotimizga kirib kelarkan, qay birimizga xabar bergan ediki? Uning kelishi, hayotimni to'z-g'itdi. Sal avval xabar bersa edi, hech bo'lmaganda o'zimni ruhan tayyorlab turgan bo'lardim. Lekin har birimiz sevgiga hozirliksiz tutilganimizni va mutlaqo hayotimizda ichkari olishga majbur bo'lgan chaqirilmagan mehmonimiz borligini tan olishimiz kerak. Aynan u ham kutilmagan mehmonim edi. Qalb eshigimdan kiritdim, barini izdan chiqardi va ketdi. Ketmaydi deya adashgandim. Yiqilsam ham u uchun arziydi deb o'yladim, xato qildim.

Sevgisiga ishondim, yaralandim. Insonni ham shu uch narsa yaralar ekan: xayol qilganidek deb o'ylashi, adashishi va jaroht olishi...

Biroz kech tushunib yetdim...

*H*ayotimda ko'p marotaba noloyiq insonlarga ishon- ganman. Kimni boshqacha deb o'ylagan bo'lsam, unisi ham boshqalardek oddiy ekanini ko'rgach, ikki hissa pushaymon bo'ldim. Lekin buni hech kimga sezdim. Bir burchakka chekindim, beparvo bo'ldim. Insonda sodir bo'ladigan eng dahshatli nuqtalardan biri hissizlashmoqdir. Qattiq se- vishimga haq berganimga yarasha, hissizlanishimga ham izn berdim. Bu men kabi o'ta ta'sirchan odamda ora-sira yuz be- radigan jarayon bo'lsa, boshqalarda eng tepa nuqtasigacha sodir bo'lsa kerak.

Hatto mendek ta'sirchan, qadamini tuyg'ulariga ko'ra bo- sadiganlarni ham beparvoga aylantira olganlarga nima de- sam ham kam. Masalan, men mantiqsiz insonman demayman, lekin tuyg'ularim bilan qadam tashlayman. «Mantiq afzalmi, tuyg'ularmi?» deya so'raydigan bo'lsangiz, yutqazishimni bilgan holda «tuyg'ular», deb aytaman. Deyarli qarshimdan chiqqan har bir odam «Mirach, sen juda kalta fikrlayapsan. Bu seni juda charchatadi. Kichik narsalarga ko'p ham e'tibor qaratma» kabi tanbehlar berishgan. Men o'zligimdan va tuy- g'ularimdan aslo voz kecholmadim. Qanchalik qiyin bo'lishi- dan qat'i nazar ularni tark etolmadim.

Yutqazsam ham tuyg'ularimning orqasida turib yutqaz- dim. Pushaymon ham emasman. Nohaqliklar tufayli hisla- rimni xorlagan bo'lishim mumkin, lekin, baribir kechmadim. Shunday voz kecha olmaydigan yomon odatim bor. Ya'ni tu-

shunganingizdek, yutqazsam ham tuyg'ularim ila yutqazaman. Hech bo'lmaganda, «Sof sevgim sabab yo'qotdim», deb aytolaman.

Uni sevish uchun yetarlicha sabablarim bo'lgandi. Bilasizmi, yuragim u sabab tezroq urishni boshlagan. Bu esa menga kichik, ammo samimiy hayajon baxsh etardi. Meni tushunish uchun qilgan harakatlari, butunlay uddalay olmasa ham meni sevish uchun qo'lidan kelganicha qilgan urinishlari uni shunchaki, sevib qolishim uchun yetarli edi. Lekin oshiqlik uchun yana-da jiddiyroq haqiqatlar kerak, shunday emasmi? Ba'zan ehtiyojning bo'lganiga emas, qo'lingda mavjud bo'lganiga qoniqishni o'rganganingda ko'nikasan ichingdagi chorasizlikka. Men uni sevish orqali ulg'aydim va sevganim sari kichrayib borardim, garchi bu alohida masala. O'z-o'zimga «Mirach, voz kech. Bu qiz senga yor bo'lmaydi. Bo'lgan taqdirda ham azob bo'ladi, jarohat bo'ladi, dedim. Tug'ma, o'ta erka tabiati seni charchatadi dedim. Ikki qadam tashlashga ham majoling qolmagan, toliqding yetar dedim. Oxirgi marta ishonganingda qanchalik hafsalang pir bo'lganini esla, yo'lingga qara», deya ming martalab uqtirdim. Deyishga dedim-u, qalbinga eshit-tira olmadim.

Men qalbinga sevma deya olmadim. Yuqorida aytganimdek, esimni taniymanki, voz kecha olmaslik tabiatimda bor. Katta yo'qotishlarimning ortidagi achchiq haqiqat ham osonlikcha tark etolmasligim edi. Bu safar ham ketmadim, ketolmadim.

Ketsam ham undan emas, unga ketdim.

**Sevilmasligimni bilaturib, u tomon bordim.
Tashlagan har qadamimda tugab bordim.**

*D*o'stlarimiz bilan tashkil qilgan musobaqada qoshimdan olgan zarbam sababli qonga belanib, yerda yotgan holimda boshlandi hikoyamiz. Uni tanigan chog'im o'n yetti yoshda edi. Hikoyamizda imkonsizliklar yo'q edi. Bo'rttirish emas, hatto bu hayotda muhim edik biz.

Uning ulg'ayishga ehtiyoji bo'lsa, men u bilan to'la his qilolmagan bolaligimga qaytish uchun fursatim bo'lgandi. Ikkinimizning ham to'ldirilishi kerak bo'lgan, yetishmayotgan parchalarimiz bir-birimizda mavjud edi. Uning yonida ekanligimni his qilsa, hech kimda ko'rmagan sadoqatini menda topadi, deb o'yladim.

Futbolda to'pga boshim bilan zarba berayotganimda chap qoshimga raqib o'yinchining tirsagi urildi. Men og'riqdan ovozim boricha baqirib, yerga yiqildim. Ko'zimni ochganimda yuzim qonga belangan edi. Raqib jamoaning qiz bola do'stlari ham o'yinni tomosha qilishga kelishgandi. Men og'riqdan yerda uzalib yotarkanman, to'siq ortidagi hamma maydon ichiga yugurdi. Tomoshabin qizlar atrofimni o'rab olishgan, lekin bittasi menga alohida e'tibor ko'rsatayotgandi. Yoki aynan o'sha damda yordamga ehtiyojim bo'lgani uchunmi, menga shunday tuyuldi. Bo'yniga o'rab olgan sharfini qon to'xtashi uchun yara ustiga bosdi. Ko'rinishi va o'zini tutishlaridan mehribon insonligi bilinib turardi. Boshqacha go'zal edi. Egnimda Beshiktosh formasi va qonga belangandim. U ham aslida, hamshira ekan. O'zimga kelgach, u malaka oshirayotgan shifoxonaga bordik. Tez yordam bo'limida ishlagani

uchun kasalxonadagi ko'pchilikni tanirdi. Menga yanayam yaxshiroq mehr ko'rsatishni boshlagandi. Sharfni shifoxonaga yetguncha olib tashlamadim. Yo'l-yo'lakay mashinada tanishib ham oldik. Ismi Zumra edi. Negaligini bilmayman-u, lekin bu qiz menda boshqacha hayajon uyg'otdi.

Shoshilinch tarzda qoshimni tikishdi va o'sha oqshom yonimda uning do'stlari ham bor edi.. Lekin bir muddatdan so'ng qizning kasalxonada yo'qligini payqadim. Do'stlaridan so'raganimda, uyga qaytishga majbur bo'lganini aytishdi. Unga tuzukroq tashakkur ham bildira olmaganim uchun afsusda edim. So'ng qolganlar ham sekin-sekin menga shifo tilab tarqalishdi, o'zimiznikilardan ikki-uch kishi qolganida Zumrani surishtira boshladim, baxtga qarshi uni hech biri tanimasdi. Ammo tabiiy hol do'stlarim, hatto raqib jamoadagi yigitlarni ham tanimaydi-ku. Men ham kasalxonada ko'p qolmadim. Zumraning sharfi ham menda qoldi. Keyin meni uyga olib borishdi. Jarohatga suv tekkizmagan holda dush qabul qildim. Boshimni yostiqqa qo'yishim bilan voqealarni birma-bir qayta xotirlashni boshladim. Hammasi o'z yo'lida ketayotgan bir pallada, uni uchratishim menda ta'riflab bo'lmaydigan hayajon uyg'otgandi. Bu hayajon qoshimni ham achishtirayotgandi, ammo qandaydir yoqimli og'riq edi, go'yo. Sharfning hamma joyi qonga belandi, lekin uni kir yuvish mashinasiga solmadim, ya'ni o'sha kecha yuvishni xohlamadim. Undan tarqalayotgan iforni bir martagina his qilganingizda edi, sababini ham tushungan bo'lardingiz.

Keyin esa hali nimadirlar xayol qilish uchun ancha erta ekanini hisobga olgan holda uyquga ketdim.

Onam qoshim tikilganidan xabar topar-topmas meni ter-gashga tushdi, oxiri jim bo'ldi. Xafa ekanligini ovoz ohangidan tushundim. Zotan, onalarni bilasiz, ulardagi yurak og'irligini o'zlaridan boshqa hech kim ko'tara olmaydi.

**Alloh bu yukni ko'tara olish qudratini faqat
onalarga bergan.**

Qoshimdagi choklarni oldirish payti kelgandi. Garchi uyimdan ancha uzoqda bo'lsa-da, aynan Zumra ishlaydigan kasalxonaga bordim. Bu uni bir bora bo'lsa ham ko'rishim uchun arzirdi har holda. Sharfni ham yuvgandim. Albatta, o'sha ahvolda berolmasdim. Kasalxonaga yetgach, balki unga duch kelib qolarman degan umidda tez yordam bo'limidan kirdim, afsuski, rejam ish bermadi. U aynan o'sha kuni kasalxonaga kelmagan ekan. Choklarini oldirish uchun borgan odam, to'liq maqsadimga yetolmagach, uyga sekin qaytaverdim. Chunki bu choklarga uning qo'li ham tekkandi, ko'rmasam bo'lmasdi. Sharf ham oldingi iforini yo'qotgandi, shunday bo'lsa-da, bugun ham u bilan uxladim. Qo'limdagi yagona imkon shu edi. Ertasi kuni yana kasalxonaga bordim.

Yana yo'q... Choklarni majburan o'sha kecha navbatchi bo'lgan hamshiraga oldirdim. Uni tanimasdim, lekin o'sha kuni u ham Zumraning oldida edi va qizini tanishini bilardim.

Undan qizni so'raganimda oilaviy muammolari tufayli bir necha kundan beri ishga kelmayotganini aytdi. Unga rahmat aytib chiqib ketdim. Bir muddat sharf menda qoldi. Zumra masalasida qanchalik sabrsiz bo'lsam ham uni topa olmadim. Taqdirga tan berishga qaror qildim. Bir kuni, albatta, uchra-shishimiz umidi bilan bu mavzudan bir muddatga uzoqlashdim. Bir necha kun o'tgach, notanish raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi, Zumra edi. Raqamimni o'sha oqshom o'yin tomosha qilishga kelgan do'stlari orqali bizning yigitlardan so'ragan ekan. Ular ham Zumrani necha kundan beri qidirayotganimga guvoh bo'lishgani uchun mendan so'rab o'tirmasdan berishibdi. Men o'sha lahzada bir inson boshqa insonni, hatto ovozi orqali ham bag'riga bosolishi mumkinligini his qildim. Buni o'ziga aytganimda yengilgina kulib qo'ydi. «Menimcha sharfim senda qolgandi, Mirach...endi qaytib olsam ham bo'lar», dedi. Men ham uni bir necha kundan beri izlayotganimni, kasalxonaga borganimni aytdim. Nihoyat, ikkimiz ham bo'sh vaqt topganimizda Galata qal'asining yonidagi «Choy

Bog'ida uchrashishga qaror qildik. Ishonavering, uchrashuv kuni uydan chiqishdan oldin qancha kiyim almashtirganim faqat Alloh va o'zimga ayon. Qiziq, qanday kiyinsam unga yoqarkin kabi hayajonlar menda yaqqol sezilib turardi. U choy bog'chasiga mendan sal oldin yetib kelgan edi. Uzoqdan ko'rganim zahotiyiq o'z-o'zimga «Buncha go'zal bo'lmasa», deb yuboribman. Ajabo, sevgan insoniga qaraganida bu qarashlar qanchalik bo'larkan... Asta-sekin yaqinlashdim. Salomlashdik. Diqqatimni tortgan birinchi narsa uning ifori bo'ldi. Dunyoning hech bir burchagida o'xshashi bo'lmagan, bu kungacha his qilinmagan ifor... Havo biroz bulutli edi. Istanbulni ozmi-ko'pmi bilasiz, deyarli har kuni shu ahvol. Mayli, hechqisi yo'q, o'sha on osmonimning moviy rangi, aslida, Zumra bo'lgandi. Ozroq suhbat qurdik. Bir payt butun diqqatini qoshimga qaratib «Izi qolibdi», dedi. Men ham yengil tabassum qilib, «Faqat yara izi qolgan bo'lsa, mayli edi», deya javob qaytardim.

«Nega, yana nimaning izi qolgan?» deya so'roqqa tuta boshladi.

«Har insonning hayotida umr bo'yi bitmaydigan izlari bo'ladi Zumra, jumladan, senda ham, ayni damda qarshi stolda o'tirganlarda ham», deya javob berdim. Tasdiqladi. So'ngra Qiz qal'asiga oshiq Galatani ko'rmaganga olib, «Nega aynan Galataning qarshisidagi choy bog'chasi», deb so'radi. Uni qo'lidan tutib, Galataga olib chiqish darajasida javob berolmadim-u: «Ma'lum bir sababi yo'q, shunchaki, bu yerda choyni yaxshi tayyorlashadi», deb qo'ya qoldim. Kuldi. Uning o'sha lahzadagi tabassumiga sababchi inson bo'la olganimdan o'zimni yana-da baxtiyor his qilgandim.

Sharf va kuyinchaklik uchun alohida-alohida minnatdorigimni bildirdim. O'sha kuni ko'p gaplasha olmadik, lekin mahallasigacha kuzatib qo'yishga muvaffaq bo'ldim. Kim bilandir uzoq suhbatlashishni xohlaganingda barcha so'zlaring tomog'ingga tiqiladi-yu, ikki og'iz ham gap topolmay qola-

san-ku, xuddi shunday bo'ldi... Odatda, gapdon yigit bo'lsam ham uning qarshisida og'ziga talqon solgan odamdek bo'lib qoldim. Bu holatimni ta'riflab berishning o'zi ham qiyin masala.

Uyga yetib kelganimda buvasi meni mahallada ko'rib qolganini aytdi. Tabiiyki, qizdan xavotir oldim.

«Xavotir olma, buvam juda yaxshi inson. Bunday narsalarga g'azablanmaydi, lekin uni ogohlantirib ketmaganim uchun ozgina jahli chiqibdi», dedi. «Men buvang bilan tanishib olaman, keyingi safar xavotirga o'rin qolmaydi», deb fursatni boy bermaslikka jazm etdim.

Buvasining ismi Hashmet ekan. Hashmet amaki haqiqatan, juda yaxshi inson edi. Qanday qilib, bir inson bu qadar samimiy va kamtar bo'lishi mumkin? Hatto o'z buvam bilan bunchalik yaqin emasdik. Biz juda tez chiqishib ketdik, u ham meni yoqtirib qolgandi. Zumraning onasi otasi bilan ajrashganidan so'ng boshqa bir odamga turmushga chiqqan ekan. Zumra buvasining qo'lida ulg'ayibdi. Ularning uyi onasining uyiga juda yaqin bo'lgani uchun Zumra ba'zida o'zlarinikida, ba'zida onasinikida qolardi. O'gay otasini yoqtirmasdi. Menimcha, bu tabiiy hol, qaysi farzand o'z otasining o'rniga kelgan begonaga samimiyat bilan mehr qo'yadi, axir? Yaxshi ko'rsa ham bundaylar mingtadan bitta bo'lsa kerak. Shaxsan men yoqtirolmasdim. Muammo shundaki men, hatto o'z otamni ham juda yaxshi ko'radigan darajada tanimasdim. Ya'ni bu holatga shunchalik begona odam bo'lganman.

«Umrim bo‘yi o‘rnini hech narsa bilan
to‘ldirib bo‘lmaydigan bo‘shliqlarim bor.

Ana o‘sha bo‘shliq sizensiz, ota.

O‘rni hech qachon to‘lmaydigan va
aslo to‘ldirishni istamaydigan
bo‘shlig‘imsiz...»



Yangi oilasi sabab, onasi qiziga juda e'tiborsiz bo'lib qolgandi. Zumrani eng ko'p qiynaydigan narsa ham shu edi, aslida. Qanday qilib, ona o'z farzandini bir begona erkakni deb e'tibordan chetda qoldiroladi? Buni men ham tushuna olmayman, lekin Zumra o'zining yoshiga nisbatan yetukligi bilan meni hayratlantirgandi. Ya'ni bu qiz hanuz yo'lning boshidayoq har qanday azobni totib ko'rgan, yetuk va har qadamini ongli ravishda bosoladigan qiz edi. Meni eng ko'p ta'sirlantirgan tarafi ham shu bo'lsa kerak.

Oramizga sababsiz sovuqchiliklar tushardi. Menga o'rganishi, yonimda o'zini xotirjam va ishonchli his etishi uchun qo'limdan kelganini, hatto ortig'ini qilar edim. Lekin qilganlarimdan naf chiqmadi. Haqli bo'lsam ham nohaqlik tamg'asini qayta va qayta yuzimga bosishni eplay olayotgandi. Tabiatan nohaqlikka toqati yo'q inson bo'lganim uchun bu narsa oramizni ochiq-oydin uzoqlashtirayotganini his qilardim. Notinchlikni va janjallarni yoqtirmayman, lekin nima qilishimdan qat'i nazar uning o'ylanmasdan shoshilinch qarorlar chiqarishini va g'azabini so'ndirolmadim. Buguni ertasiga to'g'ri kelmasdi. Ezilgan doim men bo'ldim. Lekin taslim bo'lmadim, voz kechmadim. Har kuni yana ezilishga tayyor holda bora-verdim.

Otasidan davomli nafaqa olardi. Hatto moddiy jamg'armasi haqida ham aytib bergandi. Pulga muhtoj bo'lmasa-da, kosmetika do'konida amaliyotdan keyin sotuvchi bo'lib ishlay

boshladi. Yig'ilgan jamg'armasi borligiga qaramay, tejamkorligi, sabrliligi va qat'iyatliliigi ham meni o'ziga bog'lab qo'ygan iplardan biri edi. Ya'ni biz bir-birimizga juda o'xshash edik. O'xshashga o'xshardik-ku, lekin nega u oramizda bo'lmagan masofani qo'yishga harakat qildi? Buning sababi nima edi? Buni tushuna olmasdim. Seshanba kuni unga ishidan dam olishga ruxsat berishardi. Men esa har seshanbani intizorlik bilan kutardim. Chunki bir-birimizga vaqt ajratish kunimizni aynan shu paytga belgilagandik. Sevgi bo'sh vaqtни to'ldirish emas, balki, aksincha, u uchun vaqt ajratib fidokorlik qilish ekanini hech kim bilmasdi. Zumra bilan seshanba kuni uchrashishimiz kerak edi, shunga kelishilgandi. Dushanba kuni kechasi menga qo'ng'iroq qilib, «Esingdami, ishxonamizdagi men juda yaxshi ko'radigan Nagehan opa bor edi-ku, ertaga uyiga qarindoshlari kelayotgan ekan. O'zining chorshanba kunidagi dam olish kunini meniki bilan almashtirishni iltimos qildi, men ham sendan so'ray deb qo'ng'iroq qildim», dedi. Men muammo emasligini va chorshanba kuni uchrasha olishimiz mumkinligini aytib go'shakni qo'ydim. Seshanba ham bir amallab o'tganidan so'ng chorshanba keldi. Men yana qanday kiyinsam yaxshiroq degan xayol bilan kiyim almashtiraverib soat ham o'n bir bo'lganini sezmay qolgandim. Aynan o'sha onda Zumra qo'ng'iroq qilib:

«Yonimga Seda kelayotgan ekan», dedi.

Men ham «Nega, nima bo'libdi?» deya biroz qizishdim.

«Bilmayman, kelishga topgan vaqtini qara. Bugun dam olish kuni ekan, menga qo'ng'iroq qildi va yo'lda ekanligini aytdi. Men ham hech narsa deya olmadim. Mayli, kelganida tobim yo'q edi yoki shunga o'xshash biror bahona qilarman, uyat bo'lmasin», dedi.

Men esa yana qarshilik ko'rsatmay telefonni o'chirdim. Aytgancha, Seda uning eng yaqin dugonasi edi. Qo'shni mahallamizda yashardi, lekin o'zini hech ko'rmagandim. Birozdan so'ng Zumra xabar yubordi. Xabarda «Seda bilan tay-

yorlanib chiqib ketyapmiz, meni yigiti bilan tanishtirmoqchi ekan», kabi sovuq jumlar yozilgandi. Men yana hech narsa demadim. G'azabimdan uy ichida o'zimni qanday yeb bitirganimni eslashni ham xohlamayman. Bunaqa munosabatga loyiq inson emasligimni va u oshirib yuborayotganini tushunib turgandim. Keling, bu qizning maqtashga arzigulik, ishonchli tomonini sanaylik. Yo'q, aslo yo'q. Uning hech bir harakati menga zarracha ishonch bag'ishlamadi. Uni u yoki bu tarzda baxtli qilish uchun o'z baxtimdan kesib unikiga ulashga harakat qildim, bo'lmadi. Qanaqasiga meni shunchaki, yo'qqa chiqarishing mumkin? Ko'zingga ilinmas darajada yo'qmanmi sening hayotingda? Ming la'natlar bo'lsin qabilidagi gaplarni gapirardim o'zimga o'zim o'sha kuni uyga qamalgancha. Haqiqatan, bunchalik toliqtirilishga va yerga urilishga loyiq shaxs emasdim. Bu qadar nohaqlikka ham. Shunchalik muhim ekan-da, Sedaning yigiti? Biz rejalar tuzaylik, men uyda hayajondan joyimda tura olmay, xonim afandining qilgan ishiga qarang. Men yana sabr qildim. Alloh menga Payg'ambarning sabrini berganmi, bilmadim, lekin bularga toqat qilish haqiqatdan katta kuch talab qilardi. Men bu kuchni bunday mayda va arzimagan narsalar uchun behuda sarflashni xohlamasdim. Yonma-yon uzoq yillar davomida birgalikda yurib sarflashni afzal ko'rardim. Juda xohlardim, lekin bo'lmadi. Zotan, aslida, ham siz nimaningdir bo'lishini haddan ortiq istasangiz o'xshamay qoladi, rost aytyapman. Xohish kifoya qilmas ekan.

Unga bo'lgan g'azabimni ichimga yutdim, o'ziga sir boy bermadim. Jahlim chiqdi, ranjidim, xafa bo'ldim, charchadim, yaralandim va bularning hammasini oylar davomida yig'ib borayotgandim. Kunlar ketidan kunlar, oylar ortidan oylar o'ta boshladi. Necha marotaba ishlaydigan joyiga bordim, nima qilsam ham hech qanday ilgarilashga erisha olmadik. Shunchaki, hamma zarar mening bo'sh havoga sovrulayotgan vaqtimga edi. Behudaga ranjigan kunlarim, kechirgan

tushkunligim va boshqa narsalar haqida gap ochmay qo'yaqolay. Boshimizdan o'tkazayotgan bu bema'ni kunlarning bir oqshomida qo'ng'iroq qilib, nima qilayotganimni so'radi. Hech narsa qilmayotganimni, uyda o'tirganimni aytdim. Yonidan kelgan erkak ovozi kimniki ekanligini so'radim. Yaqin do'sti Mert ishdan chiqayotib uni uyiga tashlab qo'ymoqchiligini aytdi. Buni qarang-a, yaqin do'stimish. Uyiga tashlab qo'yarmish. Albatta, Mirach kim bo'libdi axir, deb xayolimdan o'tkazdim. «Yaxshi bor», dedim faqat. Sen shuncha vaqtingni ketkaz, shuncha harakat qil, muammolarga duch kel, tushkunlikka tush, boshqasi esa Zumra xonimni uyga tashlab qo'ysin. Hali bir marta ham menga odamdek vaqtini ajratmadi, ajratishga urinmadi ham.

Meni eng ko'p qiynagan narsa esa shu edi. Mendan tashqari hammaga vaqti bor, mendan tashqari hammaga fidokorlik qila olardi u. Menga kelganda esa o'zini xuddi dushmandek tutardi. Aslida esa yonida bo'lishi kerak bo'lgan va yaralariga malham bo'ladigan yagona inson men edim. Aynan shunday o'ylaganim uchun meni yaralashga urinardi, balki bilmadim, lekin tobora yanayam qattiqroq charchayotgandim. Charchog'im va jonim azoblanayotganini sezdirmayotganim tu-fayli meni kuchli deb o'ylamasligi kerak edi.

« Jonimizni doim
jondan
ortiq sevganlarimiz
og'ritmadimi? »



2 – bo'lim

**Ba'zi og'riqlarning ildizi juda chuqur
bo'ladi,
Bag'ringizga bosib ham yengillata
olmaysiz...**

*B*ir oqshom kasal ekanligimni bilaturib, ishdan chiqqach xiyobonga chaqirdi. Tomog'im shishgan, isitmam ko'tarilgan va o'sha kungi sovuq havoda kelishimni so'rayotgandi. Yo'q deya olmadim. Sen kasalsan, avval tuzalib ol, keyin gaplashamiz, deyish tushunchasi bo'lmagani aniq edi. Chunki unda insoniylikdan xudbinlik ustun edi, ammo sevgida kamchiliklari bilan sevasiz. Shikoyat qilmadim, holsiz bo'lsam ham xiyobonga bordim.

Uzoqdan biroz kuzatdim, juda go'zal edi. Har gal uni ko'rganimda xuddi alsgeymer xastasi kabi hamma narsani unutilib, e'tiborimni faqat unga qaratar edim. Men aytayotgan bu holatni chorasiz ahvolda sevgan insonlargina tushuna oladi. Xullas, ko'rishib gaplashdik. Undan nega bunday qilganini, menga nega bu qadar yaqin bo'laturib, o'zini uzoq tutishini, nega o'zini meni yoqtiradigandek ko'rsatib, xatti-harakatlarida buning teskarisini ko'rsatishi sababini so'radim. Bularning barchasi meni chuqur azoblayotganini, nihoyat, aytoldim.

«Iltimos, menga odatiy bahonalaringni emas, shu safamen bilmaydigan va eshitmagan narsalarimni gapir», dedim. «Qara, men haliyam sening biron arziri sababing borligini ishonmayman. Seni tutib qolishni va senga ishonishni xohlayapman, Zumra», dedim.

«Mirach, men sening kitoblaringni o'qimadim. Shunchak yozganlaring qadar bilaman tuyg'ularing va hislaringni. Lekin mendan vosita sifatida foydalanishingga izn berolmayman», deya javob berdi.

Buni eshitgach, haqiqiy telbaga aylandim. «Sen nimalar deyapsan? Qanday vosita? Bu qanday bema'nilik?» kab so'zlarni aytdim. «Zumra men shuncha paytdan beri menga o'rganishing, ishonishing uchun oz bo'lsa ham bir nimalarni his qilishingni kutdim, harakat qildim. Doim vaqt o'tsa tani ishonar, sevar, dedim. Shuning uchunmidi hammasi? Shunday bema'nilikni eshitish uchunmidi?»

«O'zingni qo'lga ol, Mirach... Meni faqat ko'rganing qadani taniysan. Sen ko'rmagan, bilmaydigan juda ko'p narsalar bor»

«Sen bularning qaysi birini bilishingga izn berding? Hech qaysi birini, chunki xudbinsan».

«Oylar davomida o'z onasini xiyonatga uchrayotganiguvoh bo'layotgan inson sifatida va kelajakda xuddi shunday azoblarni boshdan kechirishdan qo'rqayotgan bir o'z bandedaning o'z qobig'iga chekinishiga xudbinlik deyilsa, mayli, qabul qilaman, xudbinman».

«Qanday qilib?»

«Otam hisoblanadigan o'sha odam, kim desam ekan, yo'q odam ham emas, ko'z oldimda onamga necha martalab xiyonat qildi. Kamiga kim bilan, bilasanmi? Onamning eng yaqin dugonasi bilan. Onam kasallik bilan kurasharkan, buni fursat bilib, uni yana va yana oyoqosti qildi. Qo'limdan hech narsa kelmadi, hech narsa qila olmadim, bilasanmi? Chorasizlik nima ekanligini o'shanda o'rgandim. Ukamni himoya qiloldim, xolos. Onamni ham asrashga urindim, lekin otamning

xiyonati yana-da boshi berk ko'chaga kirib boraverdi. Onamning og'irlashib qolmasligi, xafa bo'lmasligi uchun dadamga qarshi chiqa olmaganim uchun o'zimdan nafratlanardim. Suyanadigan bir tog' qidirdim, topolmadim. Eng og'ir kunlarimda yonimda hech kim yo'q edi. O'zimni o'zim ovutdim. Yonimga bobom keldi, lekin o'sha jirkanch hikoyani faqat men bilardim. Yostiq tishlab yig'lagan kechalarimni faqat o'zim bilaman, Mirach, birgina o'zim...» dedi va yig'lab yubordi.

O'sha lahza hech narsa qila olmadim. Hatto bag'ringa ham bosish qo'limdan kelmadi, chunki bu quchoq bilan yengillata oladigan og'riq emasdi. Zumraning hayotining qoq markaziga o'rnashgan, ildizli dard edi.

O'sha kun hayotning beayovligi, insonlarning esa shafqatsizligiga yana bir bora guvoh bo'ldim.

Zumra biroz o'ziga keldi va menga «Shu kungacha doim otam onamga shunchalik og'ir xiyonatni ravo ko'rganida, qaysi yigit meni chindan inson kabi sevoldi tushunchasi bilan qadam tashladim. Senga ham shunday yaqinlashdim. Odamlar shunday lahzalarni boshidan kechiradiki, natijasi atrofidagilarning na samimiyati, na mehriga ishona olish bo'ladi. Qo'lidan keladigan yagona ishi ikkilanish, shubha, gumonlar bo'ladi. Yashayaptimi, yo'qmi, bunisini o'zi ham bilmaydi. Hayotimning chinori bobom. Uni juda yaxshi ko'raman. O'z otamdan ko'rmagan har qanday yaxshilikni undan oldim. Shunday insonning nabirasi bo'lganim uchun, haqiqatan, omadliman derkan «Sening bobong ham tirikmi?» deb so'radi.

«Zumra, men na otamdan, na bobomdan mehr ko'rdim. Ular mendan doim nafratlanib kelishgan. Bobong juda olijanob inson, senga boshpana bo'ldi, otalik qildi, mehrini berdi. Eng muhimi, bu mening avlodim deya mehribonlik qildi. Menikilar esa doim mas'uliyatdan qochishgan. Otam bizni tashlab ketgach, atasining bolasi sifatida mendan ham odam chiqmasligi tushunchasi bilan onamga yillar davomida meni

bolalar uyiga berib yuborish kerakligi uqtirib kelingan. Se
meni qo'yaver, qani tur, kech bo'ldi. Yur seni uyingga tashla
qo'yaman».

Tabassum qilib, «Lekin kasalsan?» dedi.

«Jiddiy bo'lishing mumkin emas, hazillashyapsanmi? B
xayolingga endi keldimi?»

«Jig'imga tegma, ketdik», dedi va sekin xiyobondan uzoq
lashdik.

O'sha oqshom Zumrani uyiga tashlab qo'yishim hisobig
tanamga singib ketgan sovuq azobini tortish bilan taqdirlan
dim. Bo'lgan ishlar shunga arziydimi javobi aqlimda hamon
javobsiz qolgandi

Arzishini istardim, chunki loyiq bo'lmaganlari uchun
o'zimni ko'p ranjitdim.

Nima bo'lsa bo'lar, desam ham yaxshi bo'lishiga umidvo
edim.

Shunchalik chorasiz qolgandimki, boshqa narsa deya ol
madim.

**Kerak bo'lsa ikkimizning o'rnimizga ham sevaman.
Hayotingga boshqasi kirmagunicha istagan joyingga,
istaganing qadar ket.**

**Men baribir istamaganing qadar sen tomon
kelaveraman.**

**Aynan o'sha yerda seni yana ilk ko'rgan kunim kabi
sevaman.**

«*I*kkimiz uchun» deb nomlangan bir film efirga berildi. Shu kinoni tomosha qilishni anchadan beri kutayotgan edim.

O'sha paytlar efirdagi barcha filmlarni yolg'iz o'zim ko'rarдим. Kinoda yolg'iz film tomosha qilish voz kechilmas odatimga aylangandi deya olaman. Hatto yolg'iz tomosha qilgan barcha filmlarimning chiptalarini bir bankaga yig'ib qo'ygan edim. Hayotimga kirishi kerak bo'lgan ayol qarshimda paydo bo'lganida, birgalikda tomosha qilishimiz kerak bo'lgan hamma filmlarni yolg'iz ko'rganim uchun yoqimli tarzda hisob so'rashdek orzuyim bor edi. O'sha chiptalarni hali ham saqlayman.

Kinoga tushmagan, kitob o'qishni yoqtirmaydigan, mototsiklga minib, qayerga ketayotganining ahamiyati yo'qdek pedalni aylantirishdan zavq olmaydigan insonlarni hech qachon sevmaganman, seva olmaganman. Chunki bularni yoqtirmaydigan insonlarning sevolishiga ko'zim yetmaydi. Ayniqsa, ki-

tob o'qishni yoqtirmaydigan insonlarning sevrishiga qat'iya ishonmayman, chunki tuyg'ular ta'rif etilgan narsalarni sevmagan odam, insonlarga ham mehr qo'yolmaydi.

Kinoga tushishni, mototsikl haydashni va kitoblarni yoqiradigan insonlarning sevgisi mustahkam bo'lishiga ishonganman. Albatta, kitob o'qishni yaxshi ko'radiganlari yanayam o'lgacha oshiq bo'lishadi. Men aytdi deysiz, yanglishmayapman.

Ikkimiz uchun orzu qilgan har narsani men bir o'zim boshidan kechirdim. Yonimga o'qiyotgan kitobimni olib, Buyukchekmeje sohilida chim ustiga uzalgancha kitob o'qidim, quloqchinlarimni taqib mototsiklda sayr qildim. Bularni yolg'iz o'zim qilsam ham huzurli bo'lardi, lekin seni topgach, ko'zlariga har gal qaraganimda qaytadan oshiq bo'ladigan inson bilan amalga oshirsam mendagi quvonch yana-da o'zgarib bo'lardi, balki.

Kunlarning birida yana o'sha Buyukchekmeje sohilida o'tirganimda, kekxa bir amaki va xola birga ketishayotganini ko'rdim. Xola deyotganimning sababi u ayol ancha kekxa edi. Xolaning qo'llaridagi moychechaklar diqqatimni tortdi. Ularni shu yoshida ham bunaqa baxtli holatda ko'rib, ichim birdan ta'riflab bo'lmaydigan darajada huzurga to'ldi. Hali ham sevgiga loyiq insonlar borligini ko'rish insonni xursand qilarkan. Garchi, biz ularga kamdan-kam duch kelsak-da, ko'zga tashlanmaydigan qaysidir burchaklarda haqiqiy sevgiga loyiq qalblar bor. Shuni bilishimizni o'zi ham taskin bera olarkan ba'zan...

Men o'zimdan kelib chiqib, ayta olamanki, sevgiga loyiq bironta Allohning bandasiga duch kelmadim. «Sen o'zing loyiqmisan?» deya so'rayotgan ekansiz: ha, men loyiq edim. Loyiq bo'lganim uchun qo'limda hech narsasiz qoldim. Kimni sevgiga loyiq ko'rgan bo'lsam, har buyurtma qilgan qahvam ortidan go'zal xotira qoldirish o'rniga dushmanimga aylandi. Aminmanki, bu kitobni o'qiyotgan bo'lsang, sen ham sevgiga to'laqonli haqlilardansan.

Chunki bu kitob sevgining haqqini oxirigacha to'lab, sevgida o'zining haqqi toptalganlarning kitobi...

Film efirga berilgan birinchi kundayoq ko'rishga bordim. Hech unutmaysan, 16.45 seansi edi. Zal sevishganlar bilan to'la. Oralarida yolg'iz o'tirgan bitta men edim deya olaman. Zaldagi buncha juftlikning orasida o'zimni xuddi qorovuldek his qildim. Qo'limga fonar yetishmayotgan edi, xolos.

Filmidagi Chichek obrazining «Sevgi, bir insonning qo'liga o'q to'la qurolni tutqazib, sizni otadigan paytini kutish bilan bir xil holat», deya bizdagi holatni ortig'i bilan izohlaganini angladim. Haqiqatan ham, shunday emasmi? Chindan ham qo'limizdagi qurolni o'qqa to'ldirib sevganimizning qo'liga tutqazmayapmizmi? Ular bizni halok qiladigan vaqt kelguncha xabarsiz va chorasiz holda sevmaymizmi? Hatto yaralaydigan o'qni bag'rimizga bosadigan darajada sevamiz. Aslida, haqiqiy qotil o'zimiz ekanligimiz farqiga bormaymiz. Bilaturib, o'z jonimizga qasd qilyapmiz-u, nomini chiroyli qilib sevgi deymiz.

Zumradagi muammolar bois oramizda devor paydo bo'layotgan edi. Men bu devordan bir toshni olib tashlasam, u o'rniga yana uch tosh qo'yib to'ldirishdan erinmasdi. Albatta, boshidan kechirganlari osonlikcha unutiladigan hikoyalar emas, lekin o'zimni ham bu «jazo»lariga loyiqman deb hisoblamasdim. Menimcha, ikki insonning bir-birini seva olish va baxtli bo'lish ehtimoli tashvishlarining qay darajada farq qilishi bilan ham aloqador. Bir xil azoblarni boshidan o'tkazgan ikki inson qanday sevishni ham, baxtli qilishni ham juda yaxshi biladi. Hozir uning holatiga qarshi bosim o'tkazmadim, qarshi chiqmadim. Chunki xudbin inson emasdim, bo'lolmasdim ham. O'z qobig'imga chekindim. Ba'zan bu insonga yaxshi ta'sir qiladi. Hamma narsaning va har kimning ovozi kesib, faqat o'zini tinglash inson uchun eng yaxshi muolaja. Men ham bir muddat o'zimni tinglashga qaror qildim.

«Ikkimiz uchun» filmi tomosha qilganimni bilganida, so'ng Zumra ham unga qiziqib qoldi va ko'rishni istadi. Men birga borishni taklif qildim:

«Lekin sen ko'rib bo'lgan ekansan-ku».

«Hechqisi yo'q, ikkimiz uchun yana qaytadan ko'raveraman», deyishim bilan oftobdek charaqlab kulib yubordi.

Uni yolg'iz qoldirmaslik va vaqtni birga o'tkazish uchun Zumra bilan yana bir marta bordim, chunki uni juda sog'ingandim. Osonlikcha vaqt topolmayotgan, hatto tuzukroq gaplashishga fursat bo'lmayotgandi.

Filmning bir qismida Chichek o'zi oshiq bo'lgan adabiyot o'qituvchisiga darsda shu she'rni o'qidi:

Seni o'ylash yoqimli,

Seni o'ylash umidli.

Go'yo dunyoning eng go'zal ovozidan,

Eng go'zal qo'shiqni tinglamoq kabi...

She'rni o'qiyotgan vaqti ko'z qirim bilan Zumraga qaradim. U ham shu asnoda nazar soldi. Juda qisqa bir muddatda ko'zimiz ko'zimizga tushdi. O'sha on eng sevimli she'rimga aylangan edi, bu to'rtlik. Film tugaganidan so'ng Zumrani uyigacha kuzatib qo'ydim.

Zumra meni o'ziga shunday bog'lagan ediki... yoki men shuni xohladimmi bilmayman, lekin bilgan yagona narsam o'zimni hech kimning oldida bu qadar huzurli va hayajonli his qilmagan edim. Bu jumboqning kaliti esa boshimizdan o'tkazgan bir xil azob-uqubatlar deb o'ylayman.

Otasizlikning, kambag'allikning va kamchiliklarning naqadar azobli va og'ir ekanligini u ham kamida men kabi bilar edi. Men ham bir xil azoblarni boshdan kechirgan ikki inson bir-birini chindan sevadi, bag'riga bosoladi degan o'y-xayollar bilan band edim.

Bir kuni kechki payt xabar bermay ishdan chiqish vaqtiga to'g'rilab ishxonasiga bordim. Qahva ichishga chiqdik. Zumra o'rtacha, men esa oddiy qahva ichdim.

Qahvalarni aytgandan so'ng «Xo'sh, kichik xonim, bu qahvani men bilan ichishni qabul qilganingga ko'ra, qirq yil meni eslashga jur'at topgan ko'rinasan», dedim.

Kulib, «Xudo saqlasin», dedi. Bu javobi meni ham kuldirgan edi.

«Ahvollaring qalay?» deya so'radim.

«Kun bo'yi tik oyoqda turib ishlaganim uchun charchayapman. O'tgan kuni ishdan ketmoqchi edim, qo'yib yuborishmadi».

«Bundan xabarim yo'q edi, nega ishdan ketmoqchi bo'lding?»

«Zerikdim, kelgan ayollarning dimog'dorliklariga chiday olmayapman. Pardozi-andozi do'koni bo'lgani uchun keladi»

gan ayollarning ko'pi xudbin va mahmadona bo'lishadi. Sabrning ham chegarasi bor. Nima qilay?»

«Lekin sen shunda ham yaxshi ishlading».

«Ha, shunday qildim. Agar ishdan bo'shay olsam, o'zimga va ukamga vaqt ajrata olaman. Hatto onam bilan ham oldingidek ko'risha olmayapmiz. Sevganlarim bilan o'rtada masofa paydo bo'lgach, o'zimni g'alati his qildim».

«Haqlisan. Yoshingga munosib tarzda taslim bo'lib qolmading, bir o'zing kurasholding».

«Shunga majbur edim. Ukam uchun, onam uchun... Hamma narsa yoshga bog'liq emas ekan. Men yengib o'tgan qiyinchiliklarning og'irligini hisoblaydigan bo'lsak, o'zimni o'ttiz yoshlik xonimlardek his qilaman».

«Yoshga qaralmaydi to'g'ri, lekin sen tengdoshlaringdan ko'ra kuchliroqsan. Shuni nazarda tutyapman».

«Shekspir «Insonni yoshi emas, boshidan kechirganlari yetuklashtiradi», degan ekan. Buni sen mendan ham yaxshi bilasan», dedi kulib.

So'ng «Xo'sh, sen o'zing haqingda aytib ber, shakarsiz qahva ichishing va beshiktoshlik ekanligingdan tashqari hech narsani bilmayman. Nima yeysan, nima ichasan, nimani yaxshi ko'rasan, nimani yoqtirmaysan, hech birini bilmayman. Kitob yozishdan boshqa shug'ullanadigan qandaydir mashg'ulotlaring bormi?»

«Bunga o'zing aybdorsan. Oradan qancha vaqt o'tdi, meni tanishni istagan odam dengiz qarshisida o'tirib, bir finjon qahva tugagunichayam meni gapirtirib, tanib olsa bo'lardi.

«Afsuski, hech qachon bunday niyatim bo'lmagan. Yani qachondir seni tanishni xohlayman deb o'ylamaganman».

«Zumra, unda nimalar haqida o'ylashingni gapirib berolasanmi?»

«Sendan tashqari hamma narsani».

«Meni ranjitayotganingni tushunyapsanmi?»

«Nega haqiqatni qabul qilishni istamaysan?»

«Inson bo'lganim uchun. Haqiqatni qabul qilolmaslik insonning tabiatida bor».

«Tabiati haqiqatni qabul qiladigan inson bo'lganingda, balki seni tanishni o'ylab ko'rgan bo'lar edim».

Men esa bu suhbatni cho'zmaslik uchun «Yaxshi, Zumra», deya oldim, xolos.

Qisqa lahza jim turganimizdan so'ng «Zumra sendan faqat bitta narsa so'rayman. Xayolingda va hayotingda menga oid hech qanday joy yo'qmi? Ya'ni oradan shuncha vaqt o'tdi, qalbingdan hech qancha joy egallay olmadimmi?» deya savol berdim.

«Mirach, hayotimga kimnidir kirgizish mas'uliyatini zim-mamga ola bilishimga ishonmayman. Balki hozir buni eng ko'p sen tushuna olasan».

Ichimda «Meni ham chiroyli seva olmaysan», dedim.

«Zumra, quloq sol, balki hozir na menga, na tuyg'ularim-ga ishonishni xohlamayotgandirsan. Balki qaysidir ma'noda bunga haqqing ham bor. Lekin agar xohlasang seni onam bilan gaplashtiraman. Istaganingcha men haqimda so'rashing mumkin, validam bu dunyoda meni eng yaxshi biladigan yagona inson. Balki shunda biroz bo'lsa-da, fikrlaring o'zgarar. Balki shunda oramizga o'rgan qalin devorlaringdan 5-6 tosh kamayib qolar. Nima deysan?»

«Mayli, qo'ng'iroq qil».

Chindan ham qo'ng'iroq qildim, tushunyapsizmi? O'sha oqshom onamdan Zumraga men haqimda gapirib berishini so'radim. Qaysi erkak bunday qilardi bilmayman, lekin o'sha on birdan xayolimga shu keldi. Onamga avvalroq bir necha marta Zumra haqida gapirib bergandim.

Telefonda bir soat gaplashishdi. Gaplashib bo'lgandan so'ng Zumra mendan «Nega onangga men haqimda gapirganningni aytmadig?» deb so'radi.

«Sen men tomonga bir qadam, bor-yo'g'i bir qadam bo'lsa-da, tashlaganingda edi, menda senga oid yana boshqa ni-

malar borligini ko'rsatgan bo'lardim. Lekin istamading, men tomonga odim otishni xohlamading...»

Gapimni tugatgach, Zumra qo'l yuvish xonasiga ketdi. Men u o'tirgan kursining burchagida soch tolasini ko'rdim va uni safetkaga o'rab, hamyonimga solib qo'ydim.

Keyin hisobni so'radim va chiqdik. Chiqayotganimizda Zumrani Elif ismli o'rtog'i olib ketish uchun keldi. Elif ham mening muxlisalarimdan biri bo'lib chiqdi. U meni ko'rar-ko'rmas hayratda qoldi. Zumra men haqimda Elifga aytmagani ko'rinib turardi. Turgan holatda biroz suhbatlashdik.

Elif «Sizning «Menga seni sevaman dema, his qildir» nomli kitobingizni o'qigan edim. Haqiqatan, sevgining his qildirilishi qanchalik muhim ekanligini juda chiroyli izohlagansiz», dedi tabassum bilan.

«Kimdir oylar o'tganiga qaramay bir inson haqida, hatto eng yaqin do'stiga ham gapirmagan bir chog'da boshqasi bu inson haqida onasiga gapirib bergan Elif. Bu ham his qildirishning bir shaklidir. Sevishini his qildiradigan insonga duch kelishingni tilayman...» dedim va tanishganimdan mamnun bo'lganimni aytib, yonlaridan uzoqlashdim.

O'sha oqshom miyam qozondek qaynadi. Uyga borib dush qabul qilgach, uxlashni xayol qildim. Dush qabul qilib, yotog'imga kirdim. O'sha vaqt Zumradan xabar keldi. Xabarda «Bugun seni biroz ranjitdim, nazarimda. UZR so'rayman», deb yozilgan edi.

Javob bermadim. Tong otganida «Xayrli kun» deb ham yozmadim. Oylar o'tdi axir, oylar. Bir yil bo'lishiga oz qolgandi. Sen men haqimda, hatto eng yaqin dugonangga aytma, g'ing dema. Men esa borib, onamga Zumraning qarashlari unaqa, qiziqishlari bunaqa deb dostonlar aytib beraveray. Soddaman men, juda soddaman.

Bir muddat Zumra bilan gaplashmadik. Zotan, men undan hol-ahvol so'ramagunimcha, qizig'im yo'q edi.

Haftaning payshanba kuni edi. Oqshomga yaqin yana Zumra telefon qilib, o'tgan safar uchrashgan bog'imizga chaqirdi.

Ovozidan yaxshi emasdi. Yetib borganimda uni yana biroz uzoqdan tomosha qildim. Yerdan bir nuqtaga ko'zlarini qadab, qarab turgan edi. Yoniga bordim, meni ko'rishi bilan darhol o'rnidan turdi, yig'lagancha quchoqladi. Men ham hayron bo'lib, uni bag'rimga bosdim. O'sha payt birdan «Mirach, onam uchinchi bosqich ko'krak saratoniga chalingan ekan», dedi va ovozi bo'g'ildi. Shu lahzadan turgan joyimda muzlab qoldim. Besh daqiqaga yaqin shu holatda turdik.

Yana bir chiqishi yo'q ko'cha, yana bir chorasizlik. Zumrani biroz tinchlantirdim va har doimgi stolimizga borib o'tirdik. Bir muddat hech nima demadik. Ikkimiz ham yerdagi bir nuqtaga ko'zimizni qadadik.

«Xafa bo'lmasin deb onam menga hech narsani bildirgan ekan. Bir yildan beri hammadan yashirincha davolanibdi. Menga bo'lgan sovuq muomalasi ham shundan ekan, bularni buvam aytib berdi. Hech narsa deyolmadim, turgan joyimda qotib qoldim. Men endi nima qilaman, Mirach? Agar onam ham ketsa... U ham tashlab ketsa-chi? Men nima qilaman, biz nima qilamiz? Men-ku mayli, lekin ukam nima bo'ladi? Nima deyman unga, Mirach? Nima deyman?»

«Sovuq niyat qilma, to'xta, avval aniqlashtirib olaylik. Bir yildan beri davolanayotgan bo'lsa, tafsilotlarni onangdan so'rab ko'r. Alloh seni bu dard bilan ham sinayotgan bo'lsa, bir bilgani bordir. Umidni so'ndirmaslik kerak. Sen onang bilan gaplash, davolanishi va kasalligi qanday holatda ekan, vaziyatni o'rganaylik. Shunga ko'ra harakat qilamiz. Zumra bir narsani esingdan chiqarma, nima bo'lgan taqdirda ham yoningdaman. Buni shunchaki hamdardlik uchun emas, haqiqatan ichimdan xohlab va his qilib aytyapman. Yoningdaman...»

«Inshaalloh onamga hech narsa bo'lmaydi. Yo'qsa men tamom bo'laman».

«Onang uchun duo qilaman. Eng yaxshi dori duo. Yur, ketdik uyingdagilar bilan batafsil gaplashib olishing kerak. Hozir qilishing kerak bo'lgan yagona ish shu», dedim va uyigacha

kuzatib qo'ydim. Qaytayotganimda mahallada buvasi Hashmet amaki bilan uchrashib qoldik.

Men tarafga kelib, «Mirach o'g'lim, qandaysan?» deya soradi.

«Yaxshiman, Hashmet amaki, Zumrani uy yaqiniga tashlab, o'zim ham uyga qaytyapman».

«Zumra oxirgi paytda qiyin kunlarni boshdan kechiryapti. Sen unga dalda bo'lyapsan. Buni men ham ko'ryapman. Sen juda yaxshi bolasan, uni xafa qilma. Unga yumshoq muomalada bo'l».

«Siz bundan xavotir olmang Hashmet amaki, qo'limdan kelganicha yonidaligimni his qildirishga urinyapman».

«Mayli, o'g'lim, seni yo'ldan qoldirmay. Ehtiyot bo'l, xayrli oqshom».

«Sizga ham xayrli oqshom», dedim. Suhbatimiz juda qisqa bo'ldi, lekin Hashmet amakida jismoniy bo'lmagan charchoq borligi yaqqol ko'rinib turgan edi. Ko'p chalg'imasdan, uyga ketdim. Yana bir muddat Zumra bilan ko'rishmadik. Ham u o'ziga kelib olishi uchun, ham o'zim uchun biroz vaqt berdim. Haqiqatan, juda qiyin vaziyat edi, bu.

Hayot shunday narsaki, kimdan olib kimga beradi.

Kimningdir otasi yo'q, kimningdir onasi. Yana kimdir tamoman yolg'iz. Onasiga bog'lanib qolgan bir inson sifatida doim o'zimga, «Onamga biror narsa bo'lsa, men nima qilaman?» savolini berar va doim javobsiz qoldirganman.

Hayotim davomida har narsaga qarshi tik turishga urindim. Ba'zida yiqildim, lekin hech kimga oshkor qilmadim. Ichim qon yig'larkan, tashqaridan eng baxtlilardan edim.

Shunday qilishga majbur edim, chunki. Ichingdagi bo'ronlarni yuzingdagi dard to'la tabassuming bostirishga majbur.

Shuning uchun kulishi go'zal insonlar yana-da ko'p dard saqlaydi ichida deyishadi.

Iching to'la dard, tabassuming juda go'zal...

Sen o'n yetti yoshimsan.

Shirin paxta ham ba'zida achchiq bo'lishi mumkin

Shanba kuni edi. Tushlik vaqtida sevgilimning oldiga borishni o'yladim. Uni juda sog'ingan edim. Zumraning eng sevimli narsasi shirin paxtani olib, yo'lga tushdim. Zumraning oldiga ketayotganimda uning dugonasi Elifdan xabar keldi.

«Salom, Mirach, birinchi navbatda aytadiganim, Zumraning oldida seni ko'rgan kunimdan beri bu xabarni senga yuborish yoki yubormaslik o'rtasidagi qarorsizlikdan o'zimni yeb bitirdim. Va oxiri bu xabarni senga yuborishga qaror qildim. Qanday boshlashni ham bilmayman, bilishing kerak bo'lgan narsalar deb o'ylayman. Bulardan eng muhimi Zumra senga loyiq emas.

O'sha oqshom Zumraga qanday qaraganingni ko'rdim. Uni qanchalik sevishing qarashlaringdan yaqqol ko'rinib turardi. Bir erkak bir ayolni bu qadar go'zal sevishi mumkinmi, degan savolimning javobini menga Zumraga bo'lgan qarashing berdi. Sen, haqiqatan ham, hech kimga o'xshamaydigan darajada juda yaxshi insonsan. Sen kabi sevoladigan insonga duch kelish uchun qancha sahhof kezdin, sanab tugata olmayman. Uchrashgan kunimiz Zumraning menga sen haqingda gapirmaganiga oid gaping bilan aloqador bir narsani aytmoqchiman. Ha, Zumra menga hech qachon sen haqingda gapirmagan edi. O'sha kuni oldingizga uni olish uchun bormasam, kim biladi, qachon xabarim bo'lardi. Kitobingni o'qiganimni

aytgan edim, o'sha kitobda birma-bir boshimdan kechirganlarimni va chekkan azob-uqubatlarimni yozibsana. Xiyonatga uchraganingni yozibsana. Bu azobni juda yaxshi bilaman. Men ham xiyonatga uchradi. To'rt yilimni sarflagan, u uchun bor-u yo'g'imni fido qilgan bir yigit o'z ko'zim bilan ko'rmasam aslo ishona olmaydigan inson bilan menga xiyonat qildi. Juda qiyin kunlarni boshdan kechirdim. Tushkunlikka qarshi dorilar, psixolog treninglari va yana bir qancha narsalar bajara olmagan ishni sening kitobing uddaladi. Meni oyoqqa turg'azdi. Dardlarimga darmon kitoblaring bo'ldi. Kitobingni o'qiganimdan so'ng dedimki, bu azoblarni boshdan kechirarkanman, yolg'iz emas ekanman. Qaysidir ma'noda, meni yiqilgan joyimda qo'limdan tutib, oyoqqa turg'azgan sen eding. Buning uchun senga tashakkur aytish uchun qarzdor edim. Hozir shuni tushunib yetdimki, bu hayotda doim, haqiqatan, sevgan insondan foydalanishar ekan. O'sha kitobda boshingdan kechirganlaring yana takrorlanmasligi uchun senga bularni aytishni xohlayman.

Zumra bir yigitni sevardi. Ismi Merich edi. Merich universitetga kirishidan avval ko'p vaqtlarini birga o'tkazishdi. Lekin uzoq vaqt birga bo'lganlari Merich Zumrani sevib qolishi uchun yetmadi. Zumraning sevgisiga nisbatan doim uni ranjitadigan javob qaytardi.

Biz ayollarni bilasan, qalbimizga bir inson kirganidan keyin, ko'zlarimiz undan boshqa hech narsani ko'rmaydi. Merich Zumrani hech qanaqasiga sevolmadi. Hatto boshqa sevgan qizi bor edi. Zumraga sevgan qizi haqida ko'p gapirardi. Zumra menga o'rtalaridagi ba'zi narsalar haqida gapirib berardi. Sevgan qizi uchun, hatto Zumraning yelkasiga bosh qo'yib yig'lagan vaqtlari ham bo'lgan.

Buni aytishni xohlamasdim, lekin ikkingiz ham yo'qotganlar sifatida noloyiq insonlarga uchragansiz. U sevgan odamiga. Sen esa Zumraga... Juda achinarli vaziyat ekanligini tushunyapman.

Zumra Merichni sevarkan, o'zini unutdi. Merich unga loyiq bo'lmagan kunlarni ko'rsatdi. Yagona ovunchog'i esa Merichning unga olgan sharfi bo'ldi. Qayerga bo'lsa ham o'sha sharfni bo'ynidan tushirmadi. Merichga bo'lgan sevgisining ma'nosini o'sha sharfga bog'ladi. Zumra uni sevgining ramziga aylantirgan edi.

Zumra boshidan kechirgan noloyiq kunlarining alaminu sendan olishga haqli emas. O'zi boshdan kechirgan azoblarnu yonidagiga ham his qildirishi xato fikr. Lekin afsuslanib aytamanki, unga erishish uchun oylar davomida kurashding, harakat qilding va eng muhimi, kutding. Bu chuqur ma'noli va qiymatli narsa. Hamma ham sevoladi, lekin hech kim kutolmaydi. Sen uni juda uzoq kutding, lekin Zumra sen uni kutayotgan bekatdan o'tmaydi, Mirach.

Bu xabarni senga yuborganimni Zumra bilmaydi. Bilmagani yaxshi. Xabar topsa ham afsuslanmayman. Yaxshi insonni necha oylardan beri ko'rmaganga olib, ozor bergan, o'ziga loyiq bo'lmagan va bo'lmaydigan odamning ortidan qaysarlik qilib ketgan, xayoli va qalbi boshqasida ekanligini senga aytmay, hamma narsani yashirgan do'st hayotimda bo'lsa nima-yu, bo'lmasa nima? Qanday insonligingni bilaturib, arzimasi insonning ortidan quvib, seni yo'q deb hisoblaydigan, sendan hamma narsasini yashirgan odam, kim biladi, hatto mendan ham nimalarni berkitayotgan ekan? Kim biladi, kelgusida menga nimalar qiladi. Zumra senga loyiq emasligi to'g'risidagi fikrimga haqiqatlarni o'rganganingdan so'ng qo'shilasan. Kech bo'lmasidan seni ogohlantirishni istadim. Shuncha vaqt o'tdi, lekin zararining qayeridan qaytsang ham koringga yaraydi. Raqamingni Zumraning telefonidan oldim. Seni boshqa bezovta qilmayman, xavotir olma. Hatto raqamingni hozirni o'zida o'chirib tashlayman. O'zingni ehtiyot qil, maylimi? Sen kabi hassos qalbli va hayotda hech narsaning tuyg'ulardan muhim emasligini angelaydigan insonlarga ehtiyojimiz bor. Alloh yo'lingni ochiq qilsin, ko'nglingdagi kabi yashashingni tilayman...»

Xabar meni shokka tushirgandi. Qotib qoldim. O'sha lahza nima ham qilolardingiz? Yagona ishingiz turgan joyingizda bir muddat qotib qolish bo'lar edi har holda.

Zumraning bu xabardan, Elifning esa sharfdan xabari yo'q edi. Ya'ni menga yuborgan xabarida Zumraning sharfi menda qolganiga oid so'z aytmaganidan bilmasligi aniq edi. Bilmasin ham, bu sharmandalik va chorasizligimni u ham bilmasin. Zumraning birinchi bo'lib, sharfini so'raganidan sezilgan edi. O'shanda men o'sha sharfning u uchun ma'naviy qadri borligini aytgan edim, lekin bu qadar og'ir narsaga duch kelishimni tasavvur ham qilmagandim.

Shunday tasavvur qiling, sevgan insoningizga oid bo'lgan biror narsani aynan uniki bo'lgani uchun hidlab, bag'ringizga bosib uxlaysiz. So'ngra esa o'sha bag'ringizga bosib uxlagan narsa sevganingiz oshiq bo'lgan inson tarafidan unga olingan sovg'a ekanligini bildingiz.

Hozir shu kitobni o'qishni to'xtating va bir daqiqa shu azobni ichingizda his qilib ko'ring. Meni ham tushuning.

Men buni siz uchun ham his qildim. Bu nazarimda o'ziga kelish uchun katta kuch talab qilinadigan holat edi.

Zumraning oldiga borganimda hech narsani sezdirmadim. O'sha kuni qalbim yana qaynoq azobga to'lgandi. Va men qalbidagi qaynoq azob bilan uning tabassumiga sabab bo'lish uchun yoniga borgan edim. Bunga noloyiqligini bilsam ham...

Unga hech narsani aytmadim. Ya'ni uning oldida hamma narsaning xavotirini va azobini unutar edim. Sog'inganim uchunmi, bilmadim, uni ko'rgan va o'zimni uning yonida his qilganim zahoti xayolimdagi hamma narsa o'chib ketdi. Bir lahza barchasini unutdim. Lekin bu Elifning aytganlarini o'zgartirmadi. Men his qilayotgan bu huzur qisqa va qaytadan uxlashga urinishim bilan davomini ko'rolmaydigan tush edi, go'yo.

Elifdan eshitganlarim og'ir edi, lekin, baribir hech narsa demadim, chunki ba'zida ichingizga yutgan haqiqatlarni qarshingizdagi insonning o'zidan eshitmoqchi bo'lasiz. Bu sizni ikkinchi bor yaralaydi, ammo ichingizga yutganlaringizni tasdiqlagan bo'lasiz. Zumranning o'zi menga ba'zi narsalarni aytadigan vaqtigacha hech narsani aytmadim.

Tushlik vaqtida ovqatlanadigan joyiga borib, qarshisiga o'tirdim. Ovqatlanayotgan edi. «Yoqimli ishtaha», dedim.

«Rahmat, xush kelding. Sen ovqatlandingmi?»

«Men yeydiganimni yedim, och emasman, rahmat. Aytgan-cha, senga yaxshi ko'rasan deb, shirin paxta olib keldim».

«Nega ovora bo'lding, katta rahmat», dedi kulib.

Qalbimda motam edi, uniki esa moychechaklar bilan to'la bir bog'cha.

«Zumra, sendan bir narsani anchadan beri so'ramoqchi bo'lib yurgandim, o'sha kuni o'yinda qoshim qonaganida menga bergan ro'molingni qayerdan olgan eding?» deya so'radim. Men bu savolni berar-bermas yuz ifodasi va rangi birdan o'zgardi. Hayron bo'lib, «Nega so'rayapsan?» dedi.

«Rangi juda chiroyli, ham issiq tutadi. Axir, qish oylari. Men ham xuddi shunaqasidan onamga olmoqchi edim, shunga so'radim».

«Ha, issiq tutadi, uni menga onamning turmush o'rtog'i sovg'a qilgan edi».

«Issiq tutishi ko'rinib turibdi. Qayerdan oldi ekan, men ham onamga shunday sharf qidirayotgan edim. Mayli, qarab ko'rarman».

«Mirach, sendan bir narsani so'ramoqchiman, lekin iltimos, meni noto'g'ri tushunma», dedi xavotir bilan.

«So'rayver, albatta», deb javob berdim qiziqish bilan.

«Sening hech qanday do'sting yo'qmi? Nega mendan uzoqlashmaysan? Nega ular bilan vaqtingni o'tkazmaysan?»

Zumranning bu savolidan so'ng darhol xayolimga Jemal Sureya va Tomris Uyarning hikoyasi keldi.

«Sen Tomris Uyar va Jemal Sureyaning hikoyasini bilasanmi?»

«Yo'q».

«Tingla, senga aytib beraman: Jemal Sureya har oqshom ishdan chiqqanidan so'ng darhol uyga, Tomrisning yoniga shoshilarmish. Bir kuni Tomris Uyar Jemal Sureyaga biroz sayr qil, do'stlaring bilan uchrashib vaqtingni o'tkaz, debdi. Bu suhbatdan bir kun o'tib, Jemal Sureya uyga kech kelibdi. Ertasi kun ham, indinga ham kech kelibdi. Bu holat bir muddat davom etibdi. Shunday davom etayotgan kechalarning birida pardani qoqish uchun oynani ochgan Tomris uyning kirish joyida o'tirgan Jemalni ko'rib, haqiqatni tushunibdi».

«Haqiqat nima ekan?»

«Jemal Sureya har oqshom ishdan chiqishi bilan doimgidek uyga kelarkan, lekin ichkariga kirmasdan darvozaning tagida o'tirib, biroz kechikib kirar ekan. Buni bilgan Tomris Uyar bu holatni «Shaxsiyat kechikishi» deb nomlagan ekan».

«Yaxshi, lekin buni senga bergan savolim bilan qanday aloqasi bor?»

«Sendan uzoqlashishimni kutma. Uzoqlashishing shart desang ham men sendan Jemal Sureyaning Tomris Uyar bilan orasiga qo'ygan masofa qadar uzoqlasha olaman».

«Eshigim tagida kutarmiding?»

«Uyimizning eshigi tagida kutardim».

«Ya'ni sen ham mening shaxsiyat kechikishim bo'larding, shundaymi?»

«Shunday desa ham bo'ladi».

Ovqatini yedi, shirin paxtasini ham olib, ishga qaytib ketdi. Men esa yolg'iz o'tirib biroz o'yladim. Mendagi vaziyat xuddi labirintdek edi, chiqish yo'li topolmayotgandim. Chiqolmadim ham.

Bo'lib o'tgan voqealar bois boshi berk ko'chaga kirib qolgandim. Bu ko'chada tashlagan har qadamimda Allohga duo qildim. Bu vaziyatni faqatgina U hal etolardi. Qalblar faqat Allohning qo'lida, men ham Zumraning qalbini Zumradan emas, Allohdan so'ragan edim. Bu ko'chada bu qadar dard va nochorlik bilan qayergacha borolardim, bilmayman. Bu dard umuman boshqacha edi. Bundan oldin hech qachon boshimga bunday ish tushmagan edi. Qarshisiga chiqib, eshitganlarimni ham aytolmasdim. Elif menga Zumraning xabari bo'lsa ham, bo'lmasa ham farqi yo'q degan edi, lekin, baribir Zumraga Elifning aytganlarini aytib berolmasdim.

Uzoq muddat o'zimni kuni kelib, bilishim kerak bo'lgan narsa bo'lsa, albatta, qarshimga chiqadi, deya ovutdim.

Shuncha harakatimga qaramay, faqat men sevdim, ishonasizmi? Har kuni ikkimizning ham o'rnimizga sevdim. Ikkimiz uchun ham sevganim uchun vaqti-vaqti bilan yuragim charchatgandi. Lekin taslim bo'lmadim, yiqilmadim. Ikkimiz uchun sevgan har kunimda tippa-tik oyoqda edim. Hammasini ichimga yutdim. Voz kechmadim. Necha oy yolg'iz o'zim kurashdim. Unga erishish uchun o'zimni yo'qotdim, g'ururimni yo'qotdim. To'xtovsiz kurashdim. Men uni menga yaratgan imkonsizliklariga qaramay sevdim.

U uchun hamma narsani qarshingizga oladigan darajada sevolsangiz, osonlikcha voz kecholmaysiz. Uni yoki bu azoblar sizda paydo qilgan qaramlikni sevasizmi, bilmaysiz, lekin, baribir har bir zarrasigacha sog'inaverasiz. Bu hayotda bir taraflama sevishdan yomon narsa yo'q. Og'riqning bosqichlari bor, bilasiz. Og'rig'im qaysi bosqichda edi, bilmayman, lekin his qildirgan vazifasi ichimda juda katta zarar yetkazayotgan edi. Har kuni ishxonasiga bordim, balki ko'rib qolarman deya

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

ko'chasida kezib yurardim. Balki uchrashuv bog'imizdadir deya yana qidiraverdim. Tortni juda yaxshi ko'rganim uchun uni ham sherik qilish bahonasida tort bilan necha martalab ishxonasiga qatnadim.

Bir filmni ko'rganimda u bilan ham ko'rsam bo'larkan deya eslatma ham olib qo'ydim. Biror narsa yesam, u siz tati-may har safar unga ham bir bo'lak ajratdim. Lekin bu china-kam ishonch, chinakam haqiqiy tuyg'ular. Chin qalbdan xoh-lamasam, aslo bo'ladigan ishlar emasdi. Men chindan sevdim.

Men uni usiz sevizhga ko'nikdim. Ishonavering, holdan toydiruvchi holat. Kunlar o'tib, bu azoblarning chidab bo'l-mas darajaga kelayotganini sezayotgandim. Boshqa choram yo'q edi. Qo'limdan boshqa narsa kelmasdi. Yelkamdagi yuk-ni ortig'i bilan ko'tardim. Agar Elifning aytganlari to'g'ri chiq-sa hammasi puch bo'lardi, chunki bir ayol kimnidir qalbiga qamab, barcha eshiklarni qulflab, kalitini ham dengizga otib yuborgan bo'lsa, uni sevganichalik boshqa hech kimni sevol-maydi. Bizda esa o'sha hech kim men edim.

Afsuski, men har kun uning iforini his qila oladigan inson bo'lishni xohlardim. Menga shu ham kifoya edi.

Hayotimning eng achchiq azobi...

Zumraning onasi Meltem opa saraton tufayli jarrohlik amaliyoti qilindi. Doktorlar unga amaliyotdan keyin aravachaga mixlanib qolishi mumkinligini aytishsa ham rozi bo'ldi. Har kuni tonggacha onasi uchun duo qilardim, agar Zumra onasini yo'qotsa, men uni yo'qotishim turgan gap edi. Onaning o'rni qanchalik beqiyos ekanini o'zingiz ham bilasiz. Ayniqsa, hayotida undan boshqa ilinadigan shoxi bo'lmaganlar meni yanayam yaxshiroq tushuna olishadi.

Jarrohlik amaliyoti bo'ladigan kuni Zumraning yonida qololmagan bo'lsam ham kasalxona oldida ko'rganimda bo'yniga Merich sovg'a qilgan sharfni yengil tashlab olgandi. Meni ko'rdi, lekin hech narsa demadi. Ko'pchilik bo'lishgani uchun men ham yoniga borolmadim.

Oradan ko'p o'tmay, nima bo'ldi, bilasizmi? Hayotimni zaharlay oladigan o'sha xabarni eshitdim. Zumra meni yana o'sha bog'imizga chaqirgandi. Ovozidan yaxshi emasligini his qilib turardim. Yig'lamsirab gapirayotgandi. Onasiga nimadir bo'lgan degan gumon bilan, darhol yetib bordim. Borganimda o'sha sharf yana bo'ynida va o'sha o'rindig'imizda baqirib-baqirib yig'layotgan edi. Yugurib borib, xavotir aralash «Nima bo'ldi, Zumra? Yoki oyingga nimadir bo'ldimi?» deb so'radim.

Tinimsiz yig'layotgani uchun javob bera olmadi. «Boshqa uchrashmaylik, Mirach», deb baqirgan onida turgan joyimda qotib qoldim.

Tilim bazo'r aylanib, «Nima? Qanaqasiga? Nimalar deyapsan, Zumra?»

«Eshitganingdek, sen bilan uchrashishni istamayman. Ikkimiz uchun ham shunisi yaxshi. Seni ham, o'zimni ham ortiq xafa qilishni xohlamayman».

Ko'zlarim yoshga to'lganicha, «Zumra seni bu xayolga yetaklagan narsa nima? Men senga qanday yomonlik qildimki, mendan ajralishni istayapsan? Qanday zararim tegdi senga? Nega bunday qilmoqchisan tushuna olmayapman. Sevgim seni bezovta qilayotgan bo'lsa ayt, seni o'zingga sezdirilmagan holda uzoqdan bo'lsa-da, sevishga tayyorman. Faqat mendan uzoqlashma, iltimos.

Har yig'isida jigarimdan bir parcha sug'urib olayotgandek bo'ldi.

«Seni hech qachon dushmanim sifatida ko'rmadim. Aksincha, sen juda yaxshi insonsan, lekin haqiqat shu. Bilaman, menga zarar yetkazmading, lekin ortiq sen bilan hech qanaqasiga uchrashishni xohlamayman. Iltimos, meni yana-da qiyin vaziyatda qoldirma. O'z yo'lingda davom et, qarshingga mendan yaxshiroqlari, seni sen kabi go'zal sevadiganlari chiqadi. Mendan senga xayr. Senga azobdan boshqa hech narsa berolmayman».

«Zumra, o'rnimga qaror qabul qilishni bas qil. Hech narsa meni sendan ayira olaydi. Bunga yo'l qo'ymayman. Men senga kunlarimni, oylarimni fido qildim. Eng muhimi, hech kimga bermagan qalbimni senga berdim. Tutmasang ham qo'llarimni uzatdim».

«Mirach, iltimos, meni qiynama, raqamimni o'chirib tashla, boshqa gaplashmaylik. Mendan rozi bo'l. Men ham sendan roziman. Joning sog' bo'lsin», dedi va orqasiga o'girilib ketayotganida, ko'zimda yosh bilan dedim:

«Seni ilk bor ko'rgan kunim, qoshim yorilganida shunday mehribonlik bilan yaqinlashgandingki, hozirgi shafqatsizlar-cha ketishing senga umuman yarashmadi. Menga qiyin bo'lyapti, tushunyapsanmi? Qilgan shuncha harakatimni ko'rmanganga olishing, har gal o'zingni meni sendan voz kechishga majbur qoldiradigan darajada tutishing azob beryapti. Mana endi butunlay ketmoqchisan, bunisi hammasidan og'riqliroq bo'ldi.

Sen bilan tanishganimga bir yildan oshdi. Bu aytishga oson bo'lsa ham juda uzoq vaqt. Shu vaqt ichida bir marta bo'lsa ham qo'llaringdan tutmadim. O'z qobig'imga chekindim, seni sensiz sevdim. Sochingning bir tolasi to'kilsa, dard chekdim. Bor og'rig'ingga ko'nikdim. Senga muhtoj paytimda yonimda turmagan bo'lsang ham sendan g'azablanmadim. Hatto yo'qligingdan ham ma'no topishga harakat qildim. Do'stlarim meni telbaga chiqarishdi. «Voz kech», «Undan a'loroqlari bor?», «Shuncha vaqtdan beri sevmagan, bundan keyin sevarmidi?» deyishdi men eshitishni xohlamadim, chunki ayri-lishni istamasdim. Mayli, sevmasin, ikkimiz uchun ham o'zim sevaman dedim. Sendan voz kechish tugul, buni xayolimning bir burchagidan o'tkazishning o'zi mushkul edi, menga.

Hayotimda ilk bora shunday kuchli sevdim, bog'landim. Juda qattiq, go'yo tugun kabi. Havas qilsa arzirli va o'zaro sirlashmagan tuyg'ularimiz bo'lmagani holda sen hayotimdagi birinchi ayolsan, unutmam, birinchilarning takrori bo'lmaydi. Ishq hislarim ham ilk bor senda uyg'ondi. Kimning so'nggisi bo'lish uchun ketyapsan, bilmadim, lekin seni shunchalik sevib, hayotining birinchisiga aylantirgan odamning qayerga va nima sababdan ketayotganingni bilishga haqqi bor. Sevmasligingga-ku ko'ndim, hech bo'lmasa nega va nima uchun ketayotganingni ayt. Zotan, «yo'q»ligingga zo'rg'a bardosh berayotgan edim. Endi bo'lsa hech qachon bor bo'lmaysan. Nima uchun va kimga ketayotganingni bilishga haqqim bor, Zumra».

O'sha oqshom bularni qay tarzda aytganimni ko'rganingizda edi, hatto o'zim-o'zimga achindim. U hammasini ortiga o'girilgan holda eshitdi va faqat yig'ladi. Hatto o'sha ondayam Zumranning har yig'isi sasida ahvolim yanayam yomonlashardi. O'z jonim og'riyotib ham uning og'rig'ini his qilish...

Balki oshirib yuboryapti, deb o'ylarsiz, lekin ishoning bari haqiqat. Men unga bekorga ilk muhabbatimsan demadim.

U meni birinchi sevgim edi va doim shunday qoladi.

Buni esa hayotida ilk marotaba eng go'zal va eng toza tuyg'ulari bilan sevgan odamgina yaxshiroq tushunadi. Zumranning bor ovozi bilan yig'laganicha «Men endi boshqasini kiman», dedi. Buni eshitar-eshitmas yuragimning qoq o'rtasidan o'q yeganday bo'ldim.

Har qancha urinmay o'zimni tuta olmadim, hayotim davomida o'sha oqshom yig'laganimchalik ko'z yosh to'kkanimni eslay olmayman. Nochor bir ahvolda «Kimniki?» deb so'radim.

«Onam kasalxonadaligida o'gay otam menga zo'rlik bilan ega chiqdi. Unga kuchim yetmadi, o'zimni himoya qilolmadim. Men endi yashashga ham loyiq emasman. Shu bois na sening, na onamning, na oilamning yuziga qaragulik emasman. Hatto oynadagi aksimni ko'rishga toqatim yo'q. Iltimos, bu voqeadan hech kimning xabari bo'lmasin. Bilasan, onam yaqindagina kasalxonadan chiqdi. Ahvoli yaxshi emas. Osonlikcha unut deya olmayman, lekin boshqa chorang ham yo'q. Meni o'zing uchun unut», dedi va yuzini o'girgancha xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi.

Ko'zim o'rindiqning bir burchagiga qadalgancha uni tinglarkanman, Zumrani kuzatardim. Biroz sukunatdan so'ng «Nega senga zo'rlik bilan ega chiqqan odam sovg'a qilgan sharfi hali ham bo'yningda?» deb so'radim.

Yana yig'lamsiragan ovoz bilan «Yaxshi qol», deb yonimdan ketdi. O'sha ondan e'tiboran bu bog' mening qabristonim, biz o'tirgan o'rindiq esa qabr toshimga aylangan edi.

Barcha azoblarim, sevinchlarim, qayg'ularim, dardlarim va yana boshqa bir qancha anglatib bo'lmas tuyg'ular o'sha birgina «Yaxshi qol»ga jo qilindi.

Nega bunday bo'ldi? Qanday qilib, men sevgan qizga o'gay otasi ega chiqishi kerak? Zumraning bunday voqeani boshidan kechirganiga xafa bo'lishim kerakmi? Yoki men bilan vidolashish uchun sevgan insoni olib bergan sharf bilan kelgani uchun o'zimga achinaymi?

Sizga ishonch bilan aytamanki, hayotim davomida hech qachon bu darajada boshi berk ko'chaga kirib qolganimni eslay olmayman. Barini jam qiladigan bo'lsak bular shu kungacha boshimga tushgan eng katta ko'rgilik edi.

Bu azoblarning har tomchisida ichimdan qon sizardi. Ko'zlarim alohida, yuragim alohida bir-biriga hamdardliksiz yig'ladilar.

Oylab uydan tashqariga chiqmadim. Yeyish, ichishni to'xtatib, o'n besh kg vazn tashladim. Hech qanday sabab ko'cha yuzini ko'ra olishimga undamasdi. Soch-soqolim bir-biriga qo'shilib ketdi. Behazil, uydan tashqariga bir qadam ham hatlay olmadim. Buni o'zim xohlamadim.

Qachon bir juftlikni ko'rsam, ko'nglim buzilmasligi uchun o'zim bilan o'zim kurashdim, lekin qon yig'layotgan qalbimga hech narsa kor qilmasdi.

Hatto eng yaqin insonlarim ham yonimga yo'lay olishmadi. Insonlardan zotan, uzoq edim, bu hodisa battar meni begona qildi. Har qanday suhbatlar uchun yopiq odamga aylangan edim. Bu azobni qayerga borsam ham, doim ichimda jim saqladim. Toki bu kitob yozilgunicha.

«Hamma sevgi kikoyalari ham
ikki tomonlama boʻlganida,
yozuvchilar ishq haqida asarlar
bitmasdi».



Haqiqatlardan xabar topgan onasining kasalligi yana-da og'irlashib, bu dunyoni tark etdi

Qaysi ona bunday azobga dosh berolardi? Siz onasiz va turmush o'rtog'ingiz qizingizning hayotini barbod qildi. Bunday jirkanchlikka kim dosh berolardi? Kamiga yaqindagina og'ir kasallik sabab jarrohlikni boshidan o'tkazgan inson... Bu sizga ham xiyonat, ham nomusingizga tushirilgan dog' bo'lardi. Onasining o'limi meni ham qattiq xafa qildi.

Jarayonlar ko'zimga dahshatli film kabi ko'rinardi va umrimdagi eng og'ir pallalar edi.

Faqat Allohga sig'indim. Borishga na kimsam, na bir joyim qolgan edi.

Zumra onasining vafotidan so'ng buvasi va buvisining Malatyadagi uyiga joylashdi.

Oylar davomida nochor holatda o'yladim. Qo'l-oyog'im shunday bog'langan ediki, hech kim bu tugunni yechib, meni bu azobdan qutqara olmasdi. Oxirida Zumraning boshiga tushganlar uning istagi bilan emasdi-ku, ya'ni uning aybi yo'q deya tuyg'ularimni bir kitobda to'plashga, o'sha kitobni chop qildirgach, Malatyaga borib, Zumra bilan yuzlashishga qaror qildim. Elifdan Zumraning Malatyadagi manzilini berishini iltimos qildim va unga hech narsa demaslik va'dasini ham oldim.

Zumra uchun yozgan kitobimni «Ilk yurak azobim» deb nomlagan edim va kitobning ustida Zumraning rasmi bor edi. Kitobda uni ilk bor ko'rgan kunimdan boshlab, hozirga qadar his qilganlarimni va tuyg'ularimni yozdim.

Malatyaga ketish uchun chipta sotib olganimdan bir kun o'tib, reys bekor qilindi. Men ham chiptamni bekor qilish o'rniga uni Elazig' reysi bilan o'zgartirdim. Chorshanba kuni edi. Elazig'ga uchdim. U yerdan Malatyaga avtobusda ikki soatda yetib bordim. Borganimda qorong'i tushgan edi.

Mehmonxonaga joylashib, ertani kutdim. Uyqudan oldin Zumraga yozgan kitobimni oxirigacha o'qidim. Shuning uchun biroz kech uxladim. Kech yotganim uchun uyg'onganimda tushlik bo'lgan edi. Xullas, Galataning qarshisida bo'lgan ilk uchrashuvimizdagi kiyimlarimni kiyib, tayyorlandim. Kitobni olib, yo'lga chiqdim. Uyning manzilini biroz qiynalsam ham, axiyri topdim. Buvasi meni tanigani uchun manzildagi mahallaga kirgan zahoti yuragim qinidan otilib ketadiganday tuyulardi. Aynan o'sha payt Zumra uydan bir erkak bilan chiqayotganini ko'rdim. Ular meni ko'rishmadi, lekin orqalaridan bir ularga qaradim, bir ular chiqqan uyga. Oynadan Zumraning buvasi Hashmet amakini ko'rib qoldim. U ham meni ko'rdi va kutib tur, boryapman, deganday ishora qilib, yonimga keldi. Zumra meni ko'rmasligi uchun Hashmet amaki bilan mahalladan chiqib, bir xiyobonchada o'tirdik.

Hashmet amaki meni ko'rganidan hayratda edi.

Xuddi javobini bilmaydigandek, «Tinchlikmi, Mirach o'g'lim, seni bu yerga qaysi shamollar uchirdi? Qanday ish bilan kelding?» deb so'radi.

Joni og'riganida og'rig'i bilan yengil tabassum qiladi-ku inson, men ham shunday ichim yonib, og'riqlarim bilan yengil tabassum qildim va «Qalbimdagi chorasizlikning shamoli uchirdi, lekin ko'rganimdek, behudaga kelganga o'xshayman», dedim.

«Zumraning o'ziga kelishi juda qiyin bo'ldi. Boshidan kechirganlari yengil emasdi, buni sen ham bilasan. Buvisi bilan

o'ziga kelib olishi uchun ko'p harakat qildik, chunki eng qiy-matli borlig'imiz Zumra. Mening ayni damdagi turmush qur-gan ayolim Fatma xolang ikkinchi xotinim. Zumraning onasi Meltem birinchi xotinimning farzandi edi. Fatma bilan tur-mush qurganimizdan so'ng farzand ko'rolmadik. Fatma Zum-raning haqiqiy buvisi emas, haqiqiy bo'lmasa ham bir-birini shunday sevardi. Birinchi xotinimni va qizimni saraton sa-babli yo'qotdim. Bu men uchun juda og'ir bo'ldi, hanuz ko'ni-kishga urinyapman. Bu barchamiz uchun juda og'ir kulfat edi. O'ylashimcha, sen uchun ham. O'g'lim, men seni juda yaxshi tushunaman, lekin inson ba'zan voz kechishni ham o'rganishi kerak. Ma'lum bir nuqtadan so'ng bu ish bo'lmasligini tushu-nib yetganimiz zahoti nuqta qo'yolishimiz ham bir san'at. Bi-laman og'ir yuk, lekin shunisi eng to'g'ri yo'l».

Zumraning hayotida hozir Merich ismli yigit bor va ik-kisi juda baxtli. Merich ham juda yaxshi bola. Zumra meni doim otasidek ko'rди va o'rtamizda sir bo'lmadi. Hatto ona-si bilmaydigan haqiqatlarni ham mendan yashirmadi. Seni yana yaralanishingni xohlamagan bo'lardim. Hali yoshsan, kelishgansan, o'zing va Zumraning baxti uchun ham kechish eng to'g'ri yo'ldir. Qara, Fatma bilan farzandimiz bo'lmagani uchun u juda xafa bo'lardi. Uning eng sevimli guli sardiniya. Men uni yetishtirishni boshlagandim, lekin gul ochilmagu-nicha o'ziga aytmadim. Gul ochilganidan so'ng Fatmaga olib borib, «Bizning farzandimiz bo'lmadi, bu esa sening sevimli guling, istasang, bu bizni bolamiz bo'lishi mumkin», dedim. Go'zal sevmoq shunday narsadir, bolam. Ba'zan odamning yu-ziga mumkin bo'lmagan narsa bilan urish o'rniga, u odamni baxtli qilishning boshqa yo'llarini ham o'ylab ko'rishi lozim. Sening ham Zumrani baxtli qilish uchun qiloladigan yagona ishing bu sevgini tark etishing. Senga ham bobo sifatida har soniyasini go'zal sevganingga va sevolishingga ishonaman».

Hashmet amakidan bularni eshitarkanman, bo'g'zimga ni-madir tiqilib, tobora kattalashayotganini his qilayotgandim.

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

Nima desa ham oraga qo'shilmay aytgan har bir gapini tingladim. Javob qaytarishga ojiz edim. Gapirishni xohlamasdim ham, chunki endi hech narsani o'zgartirib bo'lmasdi. Bu sevgida zimmamdagi yagona ish – voz kechish qolgandi va buni ham bajardim.

**Eh, o'n yetti yoshim,
Har kuni kirib-chiqadigan eshigimning
raqami ham o'n yetti.
Endi men seni qanday qilib unutay?
Bu hayotning qayeridan tutay?
Qanday yashay?
Hech narsa abadiy bo'lmas ekan.
Inson o'z jonidan ortiq sevsam ham.
Kuni kelib, sevsam-da, voz kechishga majbur qolarkan
inson.**

Seva turib ortga chekindim. Elifga qo'ng'iroq qilib, «Bu bo'lib o'tganlardan xabaring bormidi?» deb so'raganimda, «Ha, bilardim va shuning uchun ham seni ogohlantirgan edim, o'zing Zumrani kutishdan voz kechmading. Bilganingdan qolmading» tarzidagi javobni oldim.

Qisqa muddatdan so'ng Elif menga bo'lgan sevgisini tan oldi. lekin bu Zumraga bo'lgan sevgimga nisbatan havas edi. Zumra uchun qilgan barcha ishimi har bir ayol istaydi. Elif bunga guvoh bo'lgani sababli shuni istadi, lekin men qabul qilmadim.

Zotan, qalbim motamsaro maskan edi.

O'tgan ikki yilim menga dars bo'ldi. Qalb eshigimni qulfadim. Hayotimga ortiq hech kimni kirgizmadim, kirgizish tugul suhbatlardan qochar edim. Zumraga yozgan «Ilk qalb og'rig'im» nomli kitobimni ham uyga qaytgach, ko'z yoshlarim hamrohligida yoqib yubordim.

Har tong ko'zimni ochganimda oldingidek Zumrani o'ylab uyg'onmayotganimni sezdim. Ayni damda men turgan nuqta

hayotimning qolgan yarmi deya, yangi bir daftar ochdim. Ilk sahifasiga esa shunday deb yozdim:

**Boshqa hech qachon, hech kimni o'zi loyiq bo'lgani-
dan ortiq sevmaysan.**

Men Zumradan voz kechganimdan uch oy o'tib, Merich yo'l-transport hodisasi tufayli halok bo'ldi va o'sha on xayolimga onamning bir so'zi keldi:

**«Agar Alloh ikki insonni bir-biri bilan bo'lishini
taqdir qilmagan bo'lsa, ikki jahon bir bo'lsa ham bu ish
bo'lmaydi.
Lekin Alloh ikki insonni bir-birining taqdiriga yozgan
bo'lsa, bunga hech qaysi banda to'sqinlik qilolmaydi.»**

O'zliging ko'rganlaring bilan tengdir

Siz yomonsiz. Aytganingizchalik marhamat egasi emassiz. Profilingizdagi yaxshi insondan asar ham yo'q. «Vijdon» haqida gapirishdan charchamaysiz-ku, aslida, vijdon-sizlikdan o'lasiz, lekin buni sezmay-siz. Men yaxshi insonman deya o'zingiz va boshqalarni ishontira olasiz. Marhamatli bo'lmagan inson vijdon va marhamat egasi bo'lgan insonni chuv tushira olmaydi. Shuni ham bilishingiz kerakki, ortig'i bilan nonko'rsiz. Ko'rishingiz kerak bo'lganlarni ko'rmaganga olib, ko'rishingiz kerak bo'lmaganlarni o'zingiz uchun hayot standarti darajasiga ko'taryapsiz. Unga sevgi, mehr-muhabbat ko'rsatib kelgan bir insonni xafa qilib, ortiga qaytarib yuborgan kim vijdonli ekan? Kim marhamatli ekan? Qo'lingizdan keladigan eng yaxshi ish nimaligini bilasizmi? Xafa qilmoq, ranjitmoq, yiqitmoq, parchalamoq. O'rinsiz ziyon bermoq. Bir insonning qalbini parchalash siz uchun tabiiy hol. Qalb parchalanishi nima ekanligini qalbingizda parchalanmagan joy qolmaganida tushunasiz, lekin koshki edi, bu nuqtaga qadar kelishdan avval shunday tushunchaga ega bo'lganingizda... Ustiga-ustak xudbinsiz. Hayotda siz to'g'ri deb bilgan narsalardan, tuyg'ularingizdan, o'y-fikr va tushunchalaringizdan boshqa eng yaxshi va eng muhim narsa yo'q, shundaymi? Bu

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

mavzuni cho'zib o'tirishni istamayman. Xudbinlik haqida gap ketganida, asablarim yana-da taranglashadi.

Xullas, gapning qisqasi, yomon insonsiz.

Hatto o'zligingiz ham. Bu ham hamma narsani izohlaydi zotan.

Insonning o'zligini ko'rganlari aks ettiradi



Qalban charchadim, vijdonan tin oldim

Siz qanday sevsangiz seving, qanchalik qadrlasangiz qadrlang, lekin aslo qarshingizdagi inson siz u uchun qilganlaringizni xuddi shu tarzda qaytarishini kutmang. Bu insonni charchatibgina qolmay, halok qilishi ham mumkin. Umidlari puchga chiqqanida inson holdan toyishini hamma-miz bilamiz, lekin bilib turib ham barcha umidlarimiz amalga oshishini istaymiz. Xafa bo'lamiz, e'tiborga olishmaydi. Haqli bo'lsak ham, haqsiz bo'lsak ham, qarshimizdagining qo'lga ilinadigan tomonini qidiramiz. Ya'ni unga qaytadan ishonish uchun o'zimizni yeb bitiramiz. O'sha inson tufayli tortmagan azobimiz qolmagan bo'lsa-da, baribir to'xtamaymiz...

Albatta, uning ishonsa bo'ladigan bir tarafi bor deymiz.

Hech narsa topa olmasak ham chin sevgimizga yengilamiz.

Bu esa bizni ortig'i bilan ranjitadi.

Eng katta xatoyim nima edi bilasizmi? Qarshimdan chiqqan har bir insonni o'zimdek deya o'ylashim edi. Bu odatimdan voz kecholmadim. Odam doimo aldanishdan voz kecholmay, ushlab turish uchun yagona shox deb o'ylaydigan va oxirida yiqiladigan «umid» so'zi bor-ku, men ham xuddi shunday voz kecholmadim. Meni ruhan va qalban charchatayotgan bo'lsa ham boshqa tarafdin vijdonimga huzur berayotgan edi, chunki his-tuyg'u kabi so'zlarning eng kichik

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

ta'rifni bo'lsa ham aytolmaydigan har odamga yuraklari his qilishi va tuyg'ulariga ega chiqishni o'rganishlari uchun imkonimdan ortig'ini qildim. To'g'ri, bir tarafdin charchatsa ham boshqa bir tarafdin huzur berayotgan edi... Bunday lutf Robbim tarafdin berilgan bo'ladi.

Inson inson bilan sinaladigan bu hayotda, insonning insondan boshqa sevadigani bo'lmasligini, insonni insondan boshqa hech kim tushuna olmasligini hech kimga tushuntira olmaganim uchun menga ham attang...

**Hammani sendek deb o'ylardim.
Kechir meni qalbim, barchasiga o'zim aybdorman.**

Yurak urayotgan bo'lsa, demak, umid bor

*B*uni har doim ta'kidlaganman, ranjitganini anglab yetmaydigan insonlarni sevmang, ular faqatgina xafa qilishni bilishadi, sevishni emas.

Bir inson o'z xatolarini ko'rmasdan, davomiy tarzda sizning kamchiliklaringizga diqqatini qaratib, tilidan qo'ymayotgan bo'lsa, unga tarsaki kabi beroladigan birgina javobingiz uni yo'qligingiz bilan tarbiya qilishdir. Bu eng yaxshi javob bo'ladi. Insonning vijdon tarozisi har doim teng bo'lishi kerak. Faqat o'zini o'ylab, atrofdagilarni qiyin vaziyatda qoldirishga haqqi yo'q. O'sha qalbning qarg'ishini olsang, keyin buning hisobi so'ralmaydimi?

To'g'ri, o'zimizni ham o'ylashimiz kerak, lekin boshqalarni qiyin vaziyatda qoldirish evaziga emas. O'zini o'ylash chegarasini xudbinlik darajasiga qadar yetib borishiga aslo izn bermang. Afsuski, men ko'rgan odamlar xudbinlikning ichida bo'g'ilarkan, kamiga o'zlarini haqli deb bilib, oqlanishga urinishadi. Aynan mana shu holatni hech qanday so'z bilan sharhlab bo'lmaydi.

O'tmishingizda sizga loyiq bo'lmagan og'riqlarni boshdan kechirgan bo'lishingiz mumkin. Hayotingizga kiritgan noto'g'ri tanlovlaringizning hisobini boshqa insonlardan ol-

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

mang. Ranjisangiz ham aslo ranjitmang. Buning o'rniga sevganlaringizga mehr-muhabbat va g'amxo'rlik qiling.

O'ylab ish qiling, bir marta ziyon ko'rdim deb, tuyg'ulariga sodiq va sof bo'lgan insonlarning qarg'ishiga qolmang.

Payg'ambarimizning bir chiroyli eslatmasini aytib o'taman: «Umid berib, ishonch uyg'otib, yarim yo'lda qoldirib ketgan odamingning ko'ngil sadaqasini ikki dunyoda ham berolmaysan».

**Qalbingizni berolmaydigan
insonlaringizga umid ham bermang.**

«Ranjitganini tushunib yetmaydigan
insonlarga ikki og'iz gapim bor:
Kun kelib, siz ham ranjiysiz.
Aynan bizni ranjitganingiz
kabi... »



Ko'ngil ohi

Ko'ngil ohimni olib, qayergacha borasan, bilmadim, lekin hech kim bironing boshiga solganlarini boshidan kechirmaguncha o'lmasligini juda yaxshi bilaman.

Seni qarg'ayotganim yo'q, lekin meni tushirgan holingga sen ham tush, hatto bundan ham yomonrog'ini his qil.

Menga ko'rsatgan kunlaringni o'zing ham ko'rishingni istayman. Vijdonsiz emasman.

Men buni chin dildan aytaman: senga yomon bo'lishini xohlamayman.

Lekin jonimni qiynaganingdek seniki ham yonsin. Demochi bo'lganim shuki, na oz, na ko'p... na egri, na to'g'ri... qoq o'rtasi... Faqatgina ko'rsatganlaringni ko'r.

Ortig'i senga zarar, menga gunoh.

Menga ravo ko'rganlaring o'zingga ham bo'lsin.

Menga shu kifoya.

Sen tomon qadam tashladim

Seni o'rnimga boshqasini qo'y, deya sevmadim. Baxtinga baxt, dardimga dard bo'l, deya sevdim. Lekin sen, hatto dardim bo'lishni ham eplay olmading. Hatto shuni ko'p ko'rding. Har qachon tanlovlaringdan tashqarida qolishda davom etdim.

Meni ko'rmaslikka olishlaring barini yo'qqa chiqardi. Bilasanmi, hech bo'lmaganda sen sabab, injiqliklaring sabab keladigan iztiroblarga ham rozi edim. Ming afsuslar bo'lsinki, boshqalardan hech qanday farqim bo'lmadi. Og'riqli edi.

Eng ko'p nimada yanglishganimni bilasanmi? Sevasan deb o'yladim, aldandim. Sevmading, parchalandim.

Har gal qarshimga chiqqaningda butun ruhim yaralanardi. Men esa yana sen tomon qadam tashlayverdim.

**Mening o'rnimga qo'rganlaring ham o'ringga
boshqalarni qo'yishsin.
Meni o'shandagina tushunasani.**

Kemtikliklar

*K*emtikliklar, insonga his ettirgan og'irligiga qarab har xil turlarga bo'linadi. Ba'zilarining to'ldirilishi oson. Yo'l-yo'lakay to'ldirib, yo'lingda davom etasan, lekin yana ba'zilari borki, ularni qo'lingdan kelgan barcha ishni qilsang ham to'lmaydi, turgan joyingda shunday qolib ketasan. Ikki qadam oldinga yurolmaysan. Eng alam qiladigani ham shu. Va yanayam yomoni, kemtik holingda turgan joyingda sanar ekansan, boshqalarda to'liq bo'lgan hamma narsa ko'zingga cho'g'dek bosilaveradi, natijada battar xafa bo'lasan.

Ranjiysan, lekin qo'lingdan keladigani ham faqat shu. Odam-zodning umri mobaynida turli xil ko'rinishdagi bo'shliqlar bo'lishi ilohiy qonun. Hech kim mukammal bo'lolmaydi. Kimningdir onasi, kimningdir oilasi, kimningdir sevgilisi, kimningdir sog'lig'i... Gapning lo'ndasi, hech kim mukammal bo'lolmaydi ozmi-ko'pmi qaysidir turdagi kemtikligi, kamchiligi bo'ladi.

Zotan, hayot kamchiliklar ustiga qurilgan. Lekin buni hech kim bilmaydi, inson bular orqali sinaladi.

Sinalgan narsang, balki sening yetishmayotgan parchangdir.

Shuning uchun kamchiliklaring bilan sinalishingni unutm. U bilan tugallan.

«Nima kamchiliging bor» deyilganida, miyamda paydo bo'ladigan ro'yxatning eng birinchi qatoridan sen joy olgansan.

Ishonch bir martalikdir

Ishonishni istaydi inson, ishonishni. Sevgilisi bo'lmasin, mayli. Ko'zini yumganida butun charchog'ini, barcha tashvishlari va azoblarini unutib, o'zini ishonchli inson yonida ko'rishni istaydi. Kimgadir suyanish va unga suyanganlarga mas'uliyatli bo'lish insonning ajralmas shartlaridan biri bo'lishi lozim, lekin ko'rib turganimizdek biznikilar na ishonch bildirishadi, na bildirilgan ishonchga sodiq qolishadi, na mas'uliyat his qilishadi... Qo'rqinchlisi ishontirishga urinayotgan odamlarimizning bizni toliqtirishi... Aynan ishonch borasida o'zingizni majburlamang. Zotan, shunday lahza keladiki, o'zingiz bilmagan holda unga suyanayotgan bo'lasiz. Kurashmoqchi bo'lsangiz, shundaylar uchun kurashing.

Niyati aniq bo'lgan insonlardan zarar kelmaydi, niyati nima ekanligi o'zi ham bilmaydigan insonlardan uzoq turing.

**Alloh bizni ishonch bildirmaydiganlardan emas,
o'zini ishonch bildirayotganday ko'rsatadiganlardan
asrasin.**

Yo'qotishdan qo'rqib, sevganlarga...

Eng katta ahmoqligim meni yo'qotishdan qo'rqmaydigan insonlar uchun bor-u yo'g'imni fido qilganim bo'ldi. Siz ham bilasiz, sevgining eng go'zal shakli yo'qotishdan qo'rqib sevish. Yoqimli hadikni qamrab oladi. Bu tuyg'uni sevilganlar emas, yo'qotishdan qo'rqib sevganlar yaxshi biladi. Ham yuraging siqiladi, ham yengil rohat beradi. Hatto nafas olishing og'irlashadi, ammo, baribir yoqimli his. Lekin haqiqiy azobni yo'qotishdan qo'rqqan insoning bu dardni senga ravo ko'rganidagina his qilasan. So'ngra, o'sha yoqimli azoblar ko'tarish qiyin bo'lgan mushkulotlarga aylanadi. Ko'tara olsang, ko'tar...

Sizga bir sirni aytaman, hech kimga ularsiz qolishdan qo'rqishingizni sezdirib qo'ymang, yo'qsa aynan shuni o'zingizdan chiqaradilar. Insonlarga zaif tomoningizni ko'rsatish badalini og'ir shaklda to'lashingizga majbur qilishi mumkin.

Men buni boshida bilmaganim uchun og'ir badallar to'ladim. Endi hech kimga na qo'rquvlarim, na xavotirlarim haqida gapirmoqchi emasman.

Barini o'z omborimda saqlash eng ma'qul va to'g'ri tanlov.

Bardosh berolmayman deganlaringga chidaganingda, men bunchalik haqsizlikka loyiq emasman deganingda, ko'k-

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

singda mitti chumchuqdek tipirchilayotgan yuraging qon ishlab chiqarishdan boshqasiga yaramay qolganida meni tushunasana.

Holbuki, yaralarimni ularga malham qo'yishing uchun anglatgandim. Yana-da ko'proq qonatishing uchun emas.



Achinarli holatga tushmaslik uchun achinma

Sevgi men uchun emasligini vaqt o'tib bo'lsa ham anglab yetdim. Insonlar butun qalbi bilan sevolishmaydi. Oldindan xulosa chiqarish odatim bo'lmagan, lekin yo'lim kim bilan kesishsa, tinimsiz boshi berk ko'chaga kirib qoldim, o'zimga kelishim qiyin bo'lgan zarbalar oldim. Balki buning ikkitagina sababi bo'lishi mumkin: yo men juda soddaman, yoki insonlar o'ta bag'ritosh. Sevilishim imkonsizliklarga aylandi, chunki qachon kimgadir ko'ngil bersam, kichik sevinchlarimgacha dardga aylandi. Insonlar juda shafqatsiz edi.

**Achinmaydiganlarga achinganimiz uchun doim
achinadigan holatga tushdik...**

Ishonch

Bu so'z butkul boshqa sayyora. Soddalik, oddiylik va beg'amlik bu so'zga mutlaqo begona. Ishonch bo'lgan har joyda hammasi o'z yo'lini topib ketadi. Sevgiga, hurmat-e'tiborga olib boradigan yo'llar, shubhasiz, ishonch yo'lidan o'tadi. Ishonmaydigan insoningizni hayotingizga kirgizolmaysiz. Kirgizishni istasangiz ham buni uddalay olmaysiz. Bu so'z insonning sifati bilan mutanosib jumla deya olaman, ya'ni ishonchga loyiq bo'lmagan shaxs yo o'z sifatini tushirgan, yoki aslida, hech qachon bunga ega bo'lmagan bo'ladi. Insonlarning qilayotganlari bilan aytayotganlari ayro-ayro ekanligi bilan takror va takror yuzlashsa bo'ladigan dunyodamiz. Gar qarshimdagi odam va'dasining ustidan chiqmaydigan va arzimagan muammolarni hal qilish o'rniga noto'g'ri xulosalarga borishni ma'qul ko'radigan shaxs bo'lsa, u odam men uchun hech kim emas. Ojizdir, bahonachidir. Yo'li oxirigacha ochiq bo'lsin. Shu ketishida hech qachon chin sevilmaydi ham. Mendan sizga do'st tavsiyasi: Sevasizmi? Ishonch bildiring. Oshiqmisiz? Ishonch bildiring. Insonmisiz? Ishonch bildiring. Shunday qilmas ekansiz, hech qaysi tuyg'uyingizga munosib ravishda javob ololmaysiz. Ishonch hamma narsaning boshida turadi. Va albatta, uning bir martalik ekanini ham unutmang...

**Ishonch yo'qotilganida, qaytib qo'lga kiritib
bo'lmaydi.**

**Hayot qisqa, qalb sindirilganida, qaytib tuzatib
bo'lmaydi.**

**Aslida, hech narsa sindirilishga loyiq emas.
Bularni eng qisqa fursatlarda tushunishingizni va
anglashingizni tilayman...**



«Holbuki, biz ham xom sut
emgan bandalarmiz,
Lekin hech nonko'rligimiz
tutmadi... »



Mo'jiza deganlari Allohning «bo'l», deganidir

Xastaliklar eshigimni erta qoqdi. Besh yoshimga qadar kasalxonalarda ulg'aydim. Og'ir davolanishlarda o'tkazgan kunlarim bo'ldi. Jiddiy kasalliklardan qutula olmadim. Mendan hech ajralishni xohlamaydigan talvasa kasalligi ancha azoblar chektirdi. Yosh bo'lishimga qaramay meni o'ldiradigan darajadagi og'ir yuk bo'lib ustimga tirmashdi. Peshonamga joylashtirilgan muzdek matolarni xuddi kechagidek eslayman.

Hayotimda hozirga qadar yengib o'tgan qiyinchiliklarimning boshida har xil kasalliklar ham peshqadamlik qiladi, onamning aytishi bo'yicha kurashdan charchamagan ekanman. Alloh oraga mo'jizalarini qo'shganidan so'ng nihoyat, meni onamga qaytarib berdi. Shu on turgan joyimdan esa faqat onam emas bir nechta inson uchun bag'ishlaganini ko'ra olyapman.

Mo'jizalarga o'sha paytlar ishonishni boshlaganman. Bari Allohning izni bilan sodir bo'lgandi. O'zim noloyiq bo'lgan og'ir dardlarni yengdim, kamiga murg'ak paytlarimdayoq. Bolalar o'yinqaroq bolaligini to'lig'icha yashashi kerak deb hisoblayman unga munosib bo'lmagan og'riqlarni ko'tarishi, kichikligidanoq dahshatli vaziyatlarga ko'nikkanlik darajasiga kelib qolmasligi kerak. Bularni o'zim uchun ham gapira

olishni shunchalik xohlardimki, ammo endi hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Men ko'nikdim.

Bu «ko'nikdim» so'zining tagida qancha vayronalar ko'milgan bo'lishini chidab bo'lmaydigan darajadagi azoblarni his qilgan odamgina ko'ra oladi.

Ha, men bolalikni ko'rmadim. Uni menga, hatto ota deyishga or qiladigan odam qarzdor... Bu kitobga u haqida eng go'zal jummalarni yozishni shunaqangi istar edimki... Ammo hayot menga nasihatlarini to'yib-to'yib eshita oladigan, hech bo'lmasa u haqida bir nechta jumlani faxrlanib yozoladigan ota nasib qilmadi.

Xavotir olma.

«Alloh hech bir jonga toqatidan ortiq yuk bermaydi».

(Baqara surasi, 286.)

Sifat nazorati

Qimiz yarim bo'laturib, boshqalarni to'ldirish uchun qilayotgan urinishlarimiz qachongacha davom etadi bilmayman, lekin shu tarzda davom etsak, jiddiy zararlar bilan yuzlashishimiz aniq. Undan ham battari, keyini ham o'zimizga qoladigan ish. Ya'ni ranjiganimizda yoki yiqilganimizda hech kim bizga yordam bermaydi. Yaxshilik qilgan va oyoqqa turg'azgan insonlarimizning xayolining bir burchagidan o'tib ketmasligimiz bor gap. Ana o'shanda insonlarga, haqiqatan ham, vafo tushunchasi notanish ekanini anglay boshlaysiz. Bu hayotda nima qilsangiz ham barchasini o'zingiz uchun qilayotgan bo'lasiz. Bir sokin joyda o'tirib, odamlarga qilgan yaxshiliklaringni, qadrlaganingni, evazsiz ulashgan sevgingni ko'z oldingga keltir va sarhisobini qilib ko'r. Hurmatingga, fidokorligingga arzimagan insonlarga duch kelib qolsangiz, guruchni kurmagini ajratgandek, ularni ham ajratib, chiqarib tashla. Hammasidan muhimi sen o'zingni yaxshi his qilsang bo'ldi. Shunda barcha go'zalliklar «Suv oqar, yo'lini topar» deganlaridek o'z iziga tushib ketaveradi. Muhimi, o'zingni, o'zligingni yo'qotma. Hayotingga kiritayotgan insonlaringni tanlashda ehtiyotkor bo'l. Baxtli bo'lish yoki bo'lmasligimiz eng katta ehtimol bilan atrofimizga to'plagan narsalarimizning sifati bilan bog'liq. Bu, hatto bir inson bo'lsa ham.

Eng katta xato o'zimiz yarim bo'laturib, boshqalarni to'ldirishga urinishimiz.

Xudbin bo'lmang, oshiq bo'ling

*H*ar daqiqa faqat o'z tuyg'ularingiz va tushunchalaringizni o'ylaysiz. O'z manfaatlaringizga qaratganchalik boshqa hech narsaga e'tibor qaratmaysiz, holbuki, hayotda manfaatdan boshqa muhimroq narsalar ham mavjud. Buni tushuna olmay o'tib ketayotganingizdan butun vujudim bilan xafa bo'lyapman. Men qo'limdan kelganini qilsam ham muvaffaqiyatga erisholmadim. Qilgan barcha harakatim besamarligini ko'rgach, yanayam battar ezildim, yiqildim. Siz g'olib bo'ldingiz. Qo'limdan tutish, turg'azish tugul holdan toyganim bilan ham ishingiz bo'lmadi. Balki butunlay bekorga nafasimni tugatyapman. Baribir eslataman, xafa bo'lsangiz, sizning baxtingiz uchun fidokorlik qiloladigan, yuzingizda eng kichik tabassumga bo'lsa-da, sababchi bo'lishni xohlaydigan insonlar uchungina xafa bo'lishingiz kerak.

Chuqur o'ylanib qaror qiling.

O'z baxtini, manfaatlarini va o'y-xayollarini bir chetga surib, sizga g'amxo'rlik qiladigan, baxtingiz uchun qo'lidan kelganini qiladigan insonlarni yer bilan bir qildingiz. Hisobi so'ralmaydi deb o'ylaysizmi?

**Albatta, so'raladi.
So'rashlari shart...**

«Allohga havola qildim» tasallisi

Sevgiga ishonchim qolmadi. Anchadan beri hayotimni «Hech kim meni chin ko'ngildan sevishiga ishonmayman» mantig'i bilan davom ettiryapman.

Hayotimda xohishlarimga teskari bo'lgan bir qancha holatlar bor. Shunday vaziyatlarda «Allohga havola qildim» tasallisi xayrlidir. Robbinga tashlab qo'yish tasallisi bilan yashamoqchiman.

Bir paytlar qadrlaganlarimdan ko'rganlarim endi qarshimdan chiqqan yaxshi insonlarga ishonishga mador qoldirishmadi. Hayotda eng ko'p nafratlanadigan va toqat qilolmaydigan yagona narsam bu oldindan xulosa qilish. Keling, yanayam aniqlik kiritib olamiz. Oldindan xulosa qilish tabiatingiz sizni nazoratga olgan daqiqangizdan e'tiboran o'zingizni yo'qotgansiz demakdir. Bunday xatoga yo'l qo'yishdan oldin bu kungacha boshingizdan kechirganlaringizni va yashashni istaganlaringizni siz boshqaring. Boshqaruv qo'lingizda bo'lsin. Balki hayotingizning eng go'zal onlarini yanglish xulosalaringiz yo'qotayotgandir? Siz bu jummalarni o'qiganingizdan so'ng yana bir bor o'ylab ko'ring. Boshingizdan kechirgan azobli kunlaringizning hisobini boshqalardan olmang. Bunga haqqingiz ham yo'q, zotan.

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

**Bir vaqtlar jonim juda qattiq azoblandi.
Hatto noloyiq bo'lgan insonlar uchun ovozim
bo'gilgunicha ko'z yosh to'kkan kunlarim ham
bo'lgan.
Shunda ham ortimga qarab, qarshimdan chiqqan
hech kimni
o'tmishimda boshimdan kechirganlarim uchun
aybsitmadim.
Chunki hamma ham bir xil emas.
Uyalishi kerak bo'lgan kimdir bo'lsa ham u hamma
bo'lishni tanlagan odamdir.**



Qalb eshigi

Inson o'zining kim ekanligini, qaysi yo'ldan ketayotgani va qanday matoga, tabiatga ega ekanligini bilishi kerak. Kim bilan qarshilashgan bo'lsam ularning har biridan «Meni boshqalar bilan qiyoslama» jumlasini eshitganman. Yaxshilab kuzatgach esa tushunib yetdimki, qiyoslashdan gap ochishga arzimaydigan darajada oddiy ekanlar. Bu menga berilgan jazomi yoki lutfmidi, bilmayman. Qalb eshigi hammaga ham ochilavermaydi, buni yaxshi bilaman. Va u eshikdan doimiy o'zini rivojlantiradigan, lekin o'zini ular bilan qiyoslamaydigan insonlarni kiriting. Bilingki, qarshingizdagi inson doimo o'zini o'tmishdagi sizga «hamrohlik» qilganlar bilan o'zini bir tutib, solishtirishga harakat qilsa, u kishining matosi boshqalarnikiga qaraganda ko'proq yirtilgan. Bu gaplarni tushunib yetganingda, ushbu so'zlarni o'zingga o'zing takrorlab qo'y: «Matosi biznikidan ko'p teshik bo'lganlar bizga chevarlikdan saboq berishga urinmasin».

Yirtilgan joyi haddan ziyod ko'p matoni tikib bo'lmaydi.

Seni sevmok...

Seni sevmok, hayotning qoq markaziga o'tirib, o'limni kutish kabi.

Seni sevmok, qaysi fasl bo'lishidan qat'i nazar, moychechaklarning ochilishi uchun bahona topishning bir yo'li.

Seni sevmok, jiddiy masala, azizam, seni hech kim men kabi go'zal sevolmaydi.

Yaralanishini bilaturib seni sevish xavfli, lekin men bu xavfning lazzatini umrimning oxirigacha totishni xohlayman. Jonimni azobla, men yana sen tomon kelaman. Hislarimning qo'shig'i faqat sening ovozing va men bu qo'shiqni faqat sendan tinglashni istayman.

Barmog'ingga tikan kirsam, yuragim azoblanadi. Seni sevishimni aytgandan ko'ra, senga buni his qildirib, sevaman. Bu tuyg'uni qanday ta'riflashni bilmayman, lekin sevgining eng go'zal shaklini har kuni senga qaytadan oshiq bo'lish orqali his qildirolaman.

Va bularning barchasini his qilishdan qalbing to'ymaydi.

**Seni sevgingni his qilish esa butkul boshqacha.
Ichimda cho'ntagi bayram puli bilan to'lgan bolaning
sevinchi bo'ladi u chog'da.**

Taslim bo'Ima!

*B*olaligim oson kechmagan. Nohaqliklarga uchrardim. Oila sevgisiga to'yinib o'sayotgan oddiy bolalar kabi bo'lmadim. Inson bolaligida tezroq katta bo'lishni, katta bo'lganida esa bolalikka qaytishni istaydi-ku...

Mening esa qaytishni istaydigan bolaligim bo'lmadi. Chunki armonlarga, alamlarga, og'riqlarga to'la makon men uchun. Ko'ryapsizmi, bolalik mendan katta bo'lgach, qaytishni istamaydigan darajada tortib olindi. Boshqalardek tartibli parvarish va kezi kelganda erkalik bilan ulg'aymadim. O'zimni o'zim katta qildim. Va ko'rgan-kechirganlarim orqali hayotni o'rgandim. Olti yoshimgacha xolam bilan yashadim. U onam ekaniga ishonch hosil qilayotgan palla o'z onam paydo bo'ldi. Otasi hech qachon yonida bo'lmagan, onasini esa olti yoshida tanigan bir bolani tasavvur qilib ko'ring. Ana o'sha menman...

Onamning qaramog'iga o'tdim, u menga onalik qilishni boshladi. Hayot mayog'imni topgandim. U qattiq holdan toygan, parchalangan edi. Mendek o'zi loyiq bo'lmagan ko'p sinovlar bilan yuzlashgan, lekin taslim bo'lmaganlardan edi.

Ukam bilan otasiz katta bo'layotganimiz uchun yillar davomida buvim va bobom onamga bu bolalarni bolalar uyiga topshirib yubor, bulardan odam chiqmaydi, otasi ham yo'q, qanday katta qilasan bularni, kabi gaplarni gapirib bosim o'tkazardilar. Yashayotgan uyimizdan ham haydaldik. Ko'chada qolib ketgan kunlarimiz bo'ldi.

Nima bo'lsa ham onam bizdan voz kechmadi. Har qanday qiyinchilikka ko'ksini qalqon qildi. Vaqti kelganda ba'zi erkaklar qilolmaydigan otalikni ham zimmasiga oldi.

Farzandlarini yolg'iz qoldirmadi. Hayotimning burilish nuqtasi ham mehribonlik uyiga berib yuborishmagani bo'ldi, albatta. Aksi bo'lganda hech kimga nafini tegdirmaydigan inson bo'lib yetishardim, balki. Bu voqeadan keyin yana bir marta Allohning mo'jizalariga ishonishni boshlaganman.

Menga eng qiyini nima edi, bilasizmi? Yashayotgan uyimizga yaqin joyda har chorshanba kuni bozor bo'lardi. Bobomlar bozorga borishardi, uyga qaytganlarida xolamning bolalariga olgan o'yinchoqlarini qiziqish bilan tomosha qilardim. Menga hech narsa olib kelishmaganidan na xafa bo'lardim, na hasad qilardim. Alamlisi, men ham ularning nabirasi edim. Men ham bola edim, faqat otasiz bola. Birgina farqimiz shu edi. Otam yo'qligi esa aybim emasdi.

Har qanday ko'ngilsiz hodisalarda ham meni aybdorga chiqarishlari sabab, nohaqliklardan nafratlanardim. Mana oradan yillar o'tgan bo'lsa ham eng kichik nohaqliklar bo'lganidayoq qizishib ketaman. Boshqalarga qilingan haqsizliklarga ham chidab turolmayman. Vijdon tarozim doimo teng ko'rsatgichda turadi. Birovni aybini boshqa birovga yuklamayman. Kim qanday muomalaga loyiq bo'lsa shuni ko'rsatib keldim va doim shunday qoladi.

Ya'ni gapning qisqasi, Allohning mo'jizalariga ishonib. Taslim bo'lmang. Ishongan narsalaringizni esa yarim qoldirmang.

Shu qiyinchiliklarning barchasiga ko'ksini qalqon qilishdan bir lahza bo'lsa ham qo'rqmagan ayolning ona suti bilan katta bo'lganim haqiqati dardlarimga darmon bo'lardi.

Men shunday ulg'aydim.

Shu sabab biron narsaning yo'qligi sizga qiyin bo'lganidek menga qiyin bo'lmaydi.

Ranjitmang

Nega odamlar qalblarni sindirish borasida bu qadar qiziqqon? Nega sindirilgan qalbni davolash yoki uni sog'lom saqlab qolish haqida bosh qotirib ko'rishmaydi.

Qalblarni vayron qilish shunchalik qiziqarli jarayonga aylanganki, hatto bundan zavq olish odat tusiga aylanib qoldi.

Kamiga, ranjitganlarining farqiga bormaydilar. Yomoni ham shu. Sen xafa bo'lding, qarshingdagi odam buni sezdi va balki biroz pushaymonlik ham chekdi. Bu holatda, xafa bo'lganing uchun o'zingni yomon his qilmaysan, mayli, bu o'z yo'liga. Ammo yaralashsa-yu, qarshi taraf buning farqiga bormasa, qalbing og'rig'ini unga o'zing isbotlamoqchi bo'lsang bu boshqa narsa, achinarli holat.. Sen aynan shu nuqtada hammasidan soviysan.

**Qalblarni sindirmang. Yon-atrofingizga qarang,
Tuzatilishga muhtoj qalblar shundog'am juda ko'p.
Hammasining biroz ishonchga, biroz samimiyatga
ehtiyoji bor. Buzishga emas, tuzatishga oshno bo'ling.
Chunki har qalb bir qalbgga muhtoj.**

Yolg'izlik ham yoqimli

*U*ni qadrlading. Balki bugunga qadar hech kim uchun qilmagan harakatingni unga sarflading. O'xshashi bo'lmagan, betakror tuyg'ularni faqat unga nisbatan his qilding. Kamchiliklarini ko'rmaganga olding. Nima bo'lishidan qat'i nazar «U bunga loyiq» degan insoningda qoldi qalbing.

Yuraging, butun qalbing bilan sevding, fidokorliklaring, harakatlaring, mehnatlaring kerak bo'lganida ikki kishilik sevding. «U bunga loyiq» deganingdan keyin, aslida, hech kim, hech narsaga loyiq emasligini ko'rgach, yana-da parchalading.

So'ngra yo'q sanalading. Tamom bo'lding.

Qo'yaver, sen qo'lingdan kelganini qilding, bu hayotda biron narsani yashab ko'rmaguncha tajriba olib bo'lmaydi. Jumladan, sen ham yanglishish beradigan azobning eng chuqur nuqtalarigacha ko'rding. Xolis tavsiyam: Tuyg'ularingni faqat o'zingda saqla.

**Shunda hammasi yana-da go'zal bo'ladi:
Sen va yolg'izliging...**

Qalban his qilmadingizmi, demak, sevmaydi

«*Seni uchun o'laman, kuyaman, sevaman*» kabi puch izhorlarning o'zi yetmasligini hech qachon tushunmaysiz, shundaymi? Sevgi aytilganda emas, his qilinganda go'zaldir. Muhabbatini sherigiga qanchalik anglatolgani bilan davomiyligini taxmin qilolishimiz mumkin.

Istasangiz bir insonga ertalabgacha sevishingizni aytib chiqing, lekin uni his qildirolmasangiz, sevmagan bilan barobarsiz. Og'zingizdan «seni sevaman» jumlasini chiqayotgan bo'lsa, isbotlashni ham biling. Ammo bu oddiy jumla emas, qarshingizdan chiqqan har qanday odamga ham munosib ko'rmang. Ayniqsa, unga qarshi chinakam sof tuyg'ularingiz bor yoki yo'qligini o'zingiz ham aniqlay olmayotgan bo'lsangiz. Aytdingizmi, buni anglatib.

Hammani bir xil so'zlar, bir xil izhorlar bilan sevmang. Eng go'zal so'zlaringizni, eng go'zal jumlalaringizni, eng go'zal «seni sevaman»laringizni faqat bir insonga atang. Bekorga umid berib, insonlarning tuyg'ulari bilan o'ynashmang.

**Sevishning o'zi yetmaydi, anglatish kerak.
Agar his qildirolmasang, u qalbdan yiroqlashasan.
Ilk mag'lubiyatimsan.**

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

Seni butun qalbi bilan sevadigan insonni yo'qotding. Endi hech kim senga nafas bo'lolmaydi. Yana-da ko'proq sevilishni umid qilib, ketgan joyingda yuraging siqilsa, qo'lingni qalbingga qo'y. Chunki o'sha azob meniki. O'sha azoblar bilan senga meni yo'qdek hisoblashlaringni eslatgani kelaman.

Bilasanmi, sevgilim? Seni sevdim. Bir inson hayotida qanchalik ko'p va naqadar go'zal sevolsa shu qadar sevdim.

Bu mening mag'lubiyatli zafarim edi.

**Sen mening ilk nochorligim,
mening ilk mag'lubiyatimsan.**

Charchadim va bu jismonan emas

*Y*elkamda baribir tugaydi deya hech narsani boshlay olmasligimning charchog'i bor. Boshingdan kechirganlaring bir tomon, hayotingdagi insonlar bir tomon, seni ta'riflab bo'lmaydigan charchoq bosadiki, shunchaki, turgan joyingda qotib qolasan. Kimgadir gapirib ham berolmaysan. Gapirsang ham bu charchoqning jismonan ekanligini o'ylashlarini bilasan. Azizlarim, holbuki, bu charchoq jismonan emas. Bu charchoq nima bilasizmi? Ba'zan o'zing ham o'zingni tushunolmagan vaqtlaringni xayolingga keltirib, «Hatto o'zim ham o'zimni tushunolmayapman, boshqalar meni qanday qilib tushunsin?» deya o'yga tolmoq. Bu horg'inlik, umid to'la kirgan ko'changdan parchalanib chiqishing. Bu horg'inlik hammadan qochib, o'zingga sig'inishning ko'rinishi. Bu charchoq insonning o'zi kabi parchalangan tuyg'ulari.

Oxiri tugaydi, tushunchasiga ishonib, boshlay olmaslik nima ekanligini boshidan o'tkazmagan odam bilmaydi.

Doim haddan ziyod sevganlarning qarg'ishiga qolinadi.

Xavotir olmang, hech kimning bironing boshiga solganlari shundayligicha qolmaydi.

Kun kelib, har qilgan ishingizning hisobi so'raladi.

Xafa bo'l...

Sendan har gal ayrilolmayman, deganimda eng go'zal tuyg'ularimni yakson qilding. Qaytadan bog'lagan tugunlarimning hammasini bog'lagan joyimda kesding, holbuki, sen bilan arqonimning tugun bo'lishi yagona istagim edi. Hech qachon, hech kim yecha olmasligini istardim. Koshki, sen ham istaganingda edi, bizni hech kim ayirolmasdi. Bunga hech kimning kuchi yetmas edi. Yana-da ochiqroq aytadigan bo'lsam, men yo'l qo'ymas edim, ammo bo'lmadi, ayrildik. Bunda esa sening hissang juda katta. Bu ayriliq, bu adolik, bu nochorlik sening asaring.

Hammasidan ham ko'ra nimadan jahlim chiqadi, bilasanmi? Men har fursatda bog'lagan tugunlarning barchasini sen doim kesding. Bu kechirilmaydi. Kechirib bo'lmaydi...

Yaxshiyamki, seni sevgan ekanman, deyishning iloji bo'laturib, sendan voz kechishga majbur qilganing bilan eslayman ismingni.

Men sendan voz kechishga majbur bo'lganim uchun xafa bo'laman.

Sen esa seni shunday esga olishimga xafa bo'l.

Chorasizlik aynan bizga xos

*M*enga qilganlari o'zining boshiga tushmasin, uning o'rniga ham ortig'i bilan boshimdan kechirishga tayyorman, deya olgan sevgan insoning bo'ldimi hech? Chorasizlik nima ekanligini aynan mana shu nuqtada tushunib yetasan. Senga his qildirganlarini, bergan azoblarini singdirib, u menga ko'rsatganlarini o'zi ko'rmasin, u uchun ham o'zim his qilaman, deya sevgan lahzada anglaysan.

Bu esa insonning boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng yomon nochorliklarning biri...

Butun yuragi bilan sevganlar ko'pincha bu nochorlikni to'tib ko'rishgan. Aslini olib qaraganda, bu ham bir azob. Tuyg'ularingiz ozor chekadi, yuragingiz azoblanadi.

Eng ko'p sevilganlar azoblaydi. Sevganlardan esa doimo foydalanishadi.

Bu yurak bir senga intizor, qolganlarga bee'tibor.

Pushaymon qildirma, yetar

Sevgi pushaymon bo'lish uchun emas, shundaymi? Hozirgi davrda sevgan insoningni sevganing uchun, qadrlaganing, g'amxo'rlik qilganing uchun shunchalik pushaymon bo'lasanki, bu hisning ta'rifi yo'q. Aslida, sen pushaymon bo'lish uchun sevmaysan. Majburan shunga undaydilar. Sadoqatning, fidokorliklaring, qadring, sog'inching, hislaring va tuyg'ularingni aslo e'tiborga olmaydilar. Ular bilgan ish faqatgina seni ezish, charchatish, xolos. Har safar yaxshiyamki, seni sevaman demoqchi bo'lganingni payqashlari bilan koshki, seni sevmasam edi, deyishga majbur qilishadi. Lekin nima qilsalar ham o'zlariga qiladilar, bilmaydilarki, bizdan ketishgandan so'ng borgan joylarida biz sevganimiz kabi sevilmaydilar.

**Sendan meni sevishingni kutmayman,
seni sevganimga pushaymon qildirma, yetar.**

Boshqa bir yurakni ichingda his qilish uchun masofalar to'siq bo'lolmaydi

*K*un kelib, sendan kilometrlab uzoqda bo'lgan bir inson seni yurak ritmingni o'zgartirib yuboradi. Ana o'shanda masofalar to'siq bo'lolmasligini tushunib yetasan. Mendan so'raydigan bo'lsangiz, masofaning hech qanday ahamiyati yo'q. Sendan uzoqda yoki yaqinda, buning ahamiyati yo'q, u insonning senga anglatganlari ahamiyatga ega. Shirin yoki achchiq, muhim emas.

Muhim bo'lgan narsa nimaligini bilasizmi? Yoningdaligida o'zini yaqindaligini qanday his qildirsa, uzoqdaligida o'zini yaqiningda turgandek his qildirolishidir.

Haqiqiy masofa insonning qalbidagi uzoqlikdir. Masofaning faqat raqamlardan iborat ekanini bir qalbning ichidagi tuyg'ularning kuchi va haqiqiyliги belgilaydi. Qalbdagi tuyg'ular chin bo'lmasa, bundan bir ish chiqmaydi.

Agar qallda yashamayotganlar haqiqiy bo'lsa, siz to'siq deb atagan masofalaringizni ham yenguvchi yagona qurol o'sha chin tuyg'ularingizdir.

Masofalarning faqat raqamlardan iborat ekanligini idrok etishingizni xohlardim...

So'ngra sog'inch

Q'ylamaslik uchun bergan har bir va'dangni buzib, boshingdan o'tgan har lahzani eng kichik tafsilotlarigacha o'ylaysan. Istamasang ham radioda tasodifan boshlangan bir qo'shiq, efirga berilgan har qanday film yoki tashqarida yetaklashib yurgan har qanday juftlik senga uni va bo'lib o'tganlarni eslatib, o'sha sog'inchni eslatadi.

Sog'inmaslik uchun o'zing bilan kurashib, yengilasan. U boshqa sevgiga yelkanini ocharkan, sen o'z sohilingda turib, o'sha kemanding qaytishini kutasan. O'sha kema qaytsa ham hech narsa avvalgidek bo'lmasligini bilasan, lekin bilaturib kutaverasan.

Sog'inmayman dema, sog'inasan. Undan keyin boshqasini sevolishingni o'ylama, uni sevganingchalik boshqasini bir xil hayajon bilan sevolmaysan. Insonning yuragi bir nuqtada charchaydi. Qon haydab chiqarishdan emas, noloyiq insonlarni toza sevgi bilan oziqlantirishdan toliqadi.

Lekin noloyiqligi va arzimaydigan odamni sof sevging bilan oziqlantirayotganingga qaramay, baribir sog'inasan. Gaping unga aloqasi yo'q aslida, sen sevgingga bo'lgan hurmat va mehnatlaring uchun bularning barchasiga chidaysan.

**Ba'zida sevgingga va qadringga achinasan,
insonning jonini eng ko'p azoblaydigani ham shu.**

Xato ham seviladi

Insonlarning yuziga soladigan va ularni yoqtirmaslik uchun siz bahona qilib, «Xato» deydigan narsaga ham oshiq bo'lish mumkin. Sevsangiz xatolari bilan qabul qilib sevasiz. Kimlardir xatolardan shikoyat qiladi, kimlardir xatolariga ham zor bo'ladi. Hozir to'xta va ortga bir nazar sol. Senga bir vaqtlar g'alati tuyulgan xatolarni ham keyin sog'inishing mumkinligini xayolingga keltir. Va hayotingda shunday qadam tashla...

Senga bir tavsiya: sevgan insoningning ayblarini yuziga solma, chunki sevgi ayblari bilan ham sevishni talab qiladi. Sevgi sevgan insoningning kamchiliklarini tildan qo'ymay, ulardan shikoyatchi bo'lish emas, uning kamchiliklarini to'ldirishdir. Ayblarini berkitishdir. Uning kemtikliklarini to'ldirib, u bilan to'liq birlashishdir. Faqat bir insonga sodiq qolish va unga qancha boqsa ham to'yolmaslikdir.

O'zdemir Asaf biz kabi xatolari bilan sevganlarning holatini juda chiroyli ta'riflagan ekan: «Hamma ortig'i bilan sevdim deydi, men esa xatolari bilan ham sevgandim...»

Boshqalar shikoyat qiladigan xatolarning har zarrasiga men avvaldan yongan edim.

Ilk muhabbat unutilmaydi

*H*amma narsaning azobiga va yo'qligiga ko'nikish mumkin, lekin birinchisi insonda o'zgacha saqlanib qoladi. «U mening birinchim edi» jumlasining insonga beradigan og'rig'i juda og'ir. Qo'limizda bo'lmagan imkonlarning qiyinchiliklariga ko'nikish majburiyatida bo'lgan hayotda yashayapmiz. Hayotga xom tuyg'ular bilan kelib, o'sha qiyinchiliklar bilan kurashish va ko'nikishni o'rganish orqali pishamiz. Birinchimiz bo'ladigan va birinchimiz bo'lishini istagan nimamiz bo'lsa, barchasidan qo'rqamiz. Qo'rqishimiz ham kerak, chunki birinchilar juda muhim va butunlay o'zgacha bo'ladi. Shuning uchun «birinchi» so'zi bizga ildizli azoblar qoldirishini istamaymiz. Biz ilk sevgimiz kim bo'lishini xohlasak, u bunga loyiqligi va yonimizda qolishini bilganimizda, oxirigacha kurashardik.

Birinchi bo'lib, yarim yo'lda qolish masala emas. Muhimi, birinchi bo'lgandan so'ng oxirigisi bo'lishni ham uddalay olishdir. Lekin buni hech kim tushunib yetmadi.

**Ba'zan birinchi bo'lish uchun juda kech bo'ladi.
Shuni unutmang, davosi bo'lmagan yagona og'riq
kech qolishdir.**

Sen o'n yetti yoshimsan

Inson hayotida har bir yoshning o'ziga yarasha go'zalligi bor, lekin o'n yetti yosh, umuman, o'zgacha. O'n yetti yoshida inson o'zgacha hislar bilan sevadi. Yuragi o'zgacha uradi. O'zgacha sog'inadi. Inson o'n yetti yoshida, hatto azob-larga ham muhabbat qo'yishi mumkin.

Hattoki, bu yoshning huzuri ham o'zgacha. Ayniqsa, men kabi ota mehri nimaligini ko'rmay va his qilmay ulg'aygan va o'sha mehrsizlikni hech kimga sezdirmay, o'z ichingda saqlagan bo'lsang senga oson bo'lmagan. Hamma yuk ustingga tushgan vaqtlarda ham yoningda hech kim yo'qligiga qaramay, yolg'iz o'zing kurashgan bo'lsang, hech narsaga loyiq bo'lmagan insonlar tarafidan noloyiq munosabatlarga duch kelgan bo'lsang, u holda jarlikka qulashning eng og'ir darajasini boshingdan kechirgan ekansan, do'stim. Lekin har bir qulashning qaytadan tug'ilishi bor. Shunga qaramay, oyoqqa turishni uddalay olgan insonga hech nima qiyinchilik tug'dir olmaydi. Hech qanday azob o'n yetti yoshida bularni boshidan kechirganlarni qo'rqit olmaydi.

Sen men ko'rmagan ota mehrining o'rnini bosgan yagona borlig'im eding. Endi esa ketding, men yana jarlikdaman.

Buni ham bilishing kerakki, meni o'sha jarlikka tushirgan ham, oyoqqa turg'azishi kerak bo'lgan ham sen eding. Senga muhtojligimni o'ylama. Yiqilgan har bir inson boshqa birov

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

aynan yiqitgan odamning o'zi yordamga qo'l uzatishini
'di. Yarani faqatgina yaralagan tuzatoladi.

**Siz qoldirgan yarani davolashingizga
ehtiyojim yo'q, dada, kelmang.
Onam menga ona ham, ota ham bo'ldi.
U menga bir umrga yetadi.**



Qarg'ish emas, moychechak oling

Sen men haqimda bilgan eng kichik tafsilot ham menda ulkan ehtiros uyg'otolardi. Bular ham meni baxtli qilolardi. Ko'zing tegdi, albatta. Ikki kunlik quvonchimga suqlanib qaraganingni bilganimda, senga hech narsani bildirmagan bo'lar edim. Bunchalik xudbin ekaningni bilmagandim, bilolmadim. Sen men uchun eng go'zal armonsan. Juda ulkan pushaymonlikсан. Hech qanday narsa buni o'zgartirolmaydi. Senga atalgan qarg'ishlarim sen qayerga kim bilan ket-sang ham doim ortingdan boradi. Buni sezgan oning u senga haqiqiy ichki azobni his qildiradi.

Bekorga, «Qarg'ish topolmas manzil yo'q», deb aytishmagan...

O'rnimga qo'yanlaring seni sevadi deb o'ylaysan, lekin u sevgini qalbing hech qachon anglamaydi.

Chunki bir insonning qarg'ishi olinsa, boshqasi bilan baxtli bo'lishining iloji yo'q.

Bu hech qaysi kitobda yozilmagan. Bir yurak o'ldirilsa, boshqa yurak bilan yashab bo'lmaydi.

Qarg'ish emas, moychechaklar ol.

Noloyiqlar

Nafrat ham bir tuyg'u. Shunday insonlar borki, sevilishni qo'yaturing, hatto nafratlanishga ham noloyiqlar. Bunday insonlarga fidokorlik qilib, o'zimizni xarob qilganimiz qoladi, xolos. Bu insonlar sevgimizga ham, nafratimizga ham, nafratlanish uchun sarflaydigan soniyamizga ham haqli emaslar.

Aslida, o'zlari ham buni bilishadi. Bilaturib, yana-da ko'proq nafratlanishimiz uchun qilmagan ishlari qolmaydi. O'zimizga aziyat yetkazyapmiz. Ular baxtli bo'lsin deya hamma narsamizni yo'qotyapmiz. G'ururimizni, tuyg'ularimizni va eng yomoni orqaga qaytarishning imkoni bo'lmagan qadrli vaqtimizni...

Bas qiling. Yetar. Ular sevilishga ham, nafratlanishga ham arzishmaydi...

Arzimaslar uchun haddan ziyod xafa bo'ldik. Bizni yo'qotishdan qo'rqmaganlar uchun o'zimizni fido qilishning keragi yo'q.

Chunki o'z vaqtida buni ko'p sinadik, ammo hech bir naf ko'rmadik.

**Qancha harakat qilsam ham
hech narsa o'zgarmasligining
jon isboti sensan.**

Litseydagi sevgilim

*M*en yashaydigan joy Antalyaning Manavgat tumanidagi Cholakli Beldesi edi. Kichik va qishloqqa o'xshash bir joy edi, bundan hech qachon norozi bo'lmaganman. Chunki go'zal sohilga, ketma-ket tartiblangan keng va katta dalalarga ega edi. Boshimni yuqoriga qaratsam, ko'm-ko'k, musaffo, yerga qaratsam, yam-yashil edi. Buvimning tovuq va echkilari, buvamning esa har tong uyg'onishi bilan o'zinikidan avval qornini to'yg'azadigan mushuklari bor edi. Hali ham bor. Eng omadli tarafim yuragim siqilganida, sohilga borib, yolg'iz dam olishim mumkinligi edi.

Uyimiz bilan sohil orasi o'n besh-yigirma daqiqalik edi. Onam, buvam va xolamlar hali ham o'sha yerda yashashadi. Juda kichik bir shaharcha bo'lishiga qaramay, men o'zimni topgan joyim deb bilaman u yerni. O'sha yerdagi litseyda o'qiganman. Xullas, kunlarning birida bir do'stimning mashinasi bilan qishloqning ichkarisiga kirdik. Ketayotib do'stim yo'lizmadan chiqqan do'konning oldida to'xtadi va ichkariga kirib ketdi. Men o'sha payt mashinaning ochiq oynasidan bir qizni ko'rib qoldim. Non javonidan non olayotgan edi. Mening telbalarcha tabassumimni ko'rdi va salom berib, mayin tabassum qilib qo'ydi. Umumiy do'stlarimiz sababli uning ismini bilar edim. Keyinchalik bir litseyda o'qishni boshladik. Men juda ham uyalganim uchun oldiga borib, o'zim gaplasha olmadim. Chunki avvaldan o'z qobig'iga o'ralgan odam edim.

Hozir ham shundayman, lekin vaziyatga qarab o'zgaradi, albatta. Xullas, qishloqqa birga borgan do'stinga gap orasida «O'sha qiz bilan bir gaplashib ko'r, sevgani bormikin?» deb yuboribman. Uyam he yo'q, be yo'q shartta borib, qizning qu-log'iga nimadir shipshitib qo'yibdi. Odam degani kelib, niyatning jiddiymi deya aniqroq qilib, so'rab olmaydimi? Eshitgan zahotimoq hayajondan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Shartta qizga borib dardimizni dasturxon kelib qo'yaqolibdi. Qiz ham haqli ravishda «Nega o'zi so'ramadi», degan javobni beribdi. Menimcha, o'zimning qo'limdan kelmasdi. Xudo haqqi, ont ichaman shuni o'zidayam qo'llarim titrab, ko'z qorachiqlarimni bir doiraga tikolmayotgandim. Xullas, u qilib, bu qilib bir amallab gaplashishni boshladik. Har tanaffus qo'ng'irog'i chalinganida, sinfdan birinchi bo'lib yuragim, keyin esa men chiqar edim. Dars vaqtida tezroq tanaffus bo'lsin, deya daqiqalarni sanardim.

Ishonasizmi, uning qo'llarini naq sakson kun o'tib tutdim. Unga qattiq bog'lanib qolganim uchun sinfdan ham qoldirildim. Sevgi deb sinfdan qolganlarni hech ko'rganmisiz?

Kitob yuzini ochmasdim. Nima bo'lsa ham faqat uni derdim. Bir vaqtda birinchi sinfni boshladik, lekin u ikkinchi sinfga o'tishi bilan mendan keyin yana 2-3tasi bilan gaplashdi.

Bir vaqtlar sabrsizlanib kutganim tanaffus qo'ng'irog'ini chalmasin, deya duo qilgan kunlarim ham bo'ldi. Hatto bir kuni sevgilisi yonimga kelib, oramizdan nimalar o'tganini ham so'radi. Unga sevgim sof bo'lganini aytdim.

Nima bo'lsa ham menga bo'ldi, lekin takroran o'qigan bir yilim menga ko'p narsalarni o'rgatdi. Oldinlari sevgi boshqacha bo'lardi. Hozir esa hammaning og'zida ikki daqiqaning birida seni sevaman kabi yuzaki jumlar, odatiy holga aylangan iboralarga taslim bo'lib, ishonch bilan tashlangan katta qadamlar, nosamimiy chehralar og'zidan chiqayotgan soxta izhorlar odatiy holga aylandi. Ishqmish? Ishq izhorlarini yog'dirayotganlar ma'shuqining eng yaxshi ko'rgan rangi yoki taomi nima ekanligini ham bilmaydilar.

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

Sevishini aytgan inson eng ko'p qaysi taomni yaxshi ko'radi, qanday qo'shiqlarni eshitadi, nima yeydi, nima ichadi, hech narsani bilmay turib, sevaman deya bong urishadi.

Shu bois har munosabatning oxiri «Koshki, seni tanimaganimda edi» bilan tugayapti.

**Eng sof tuyg'ularim bilan kelgandim senga.
Ko'p narsani bilmasligimga qaramay, ismimni bilganim kabi tanigan, amin bo'lgan muhabbatim bilan
keldim.
Keragidan ortiq kir tuyg'ularga taslim bo'lgan shuncha odam orasida seni beg'ubor sevdim.**

Qalbingiz go'zal bo'lsin

Insonning chiroyli yoki xunukligi uning yuzi va qomatiga qarab belgilanmaydi. O'zini tutishi yoki samimiyatiga ko'ra ham xulosa qilishimiz mumkin. Masalan, siz hozir chiroyli yoki jozibador deb o'ylayotgan odamlaringiz, aslan unday emas. Ishonavering. Siz qalbgga, ruhga emas, dunyoqarashiga yoki samimiyatiga emas, balki ko'rinishga oshiqsiz.

Koshki tuyg'ularingiz tashqi go'zallikdan ko'ra, ko'proq ichki go'zallikni qadrlay olganida edi. Afsuski, hammangiz bir xilsiz. Afsuski, tashqi go'zallik telbasisiz. Ikki tiyinlik xudbinligingiz juda muhim, to'g'rimi?

Sizga achinaman va chindan bu holingiz uchun rahmim kelyapti. Ichingiz go'zal bo'lsa, yetarli emasmi, axir? Chiroyli deya o'zingizni fido qilgan insonlaringiz go'zallik tushunchasini yo'qotganida, siz tutib qoladigan ichki go'zallik tushunchasi bo'lmaydi. Unutmang.

Qalbingiz go'zal bo'lsin, qolgani bir gap bo'lar.

Dardimga sherik bo'l

*B*ilasiz, barimiz ham kimgadir oshiq bo'lamiz, lekin pushaymon bo'lish holati biroz farqli. Sevgi shunday ma'sum bir tuyg'uki, uni nafrat, gina va pushaymonlikka aylantirmaslik kerak. Inson hayotida bir tarafdama sevganida ham, «U yolg'iz sevishimga ham loyiq» deb aytoladigan insoni bo'lishini xohlaydi. Men doim hamma narsa teng tarafli bo'lishini istaganman. Teng tarafli deganda, faqatgina sevgining, quvonchning tengligi emas, balki azob, huzun, yolg'izlikning ham tengligidir... Bir inson sevib, o'zi sevilmagani uchun, qadrlab, qadr ko'rmagani uchun pushaymonlik tuyganida, bu azoblarni uning boshiga solgan inson ham afsuslanishi, xafa bo'lishi kerak. Ishonch bilan aytamanki, xudbinlik borasida so'z ketganida, men butunlay boshqa insonga aylanib qolaman. Qanday jamoa bo'lsa ham xudbinlik haqida so'z borar ekan, men u yerda bo'lmayman. Siz ham bo'lmang. Hech kimni sevmang, hech qachon oshiq bo'lmang, demayman, ammo sevganingizda, javobsiz qoldirilganingizda va azoblanganingizda, bu azoblarni sizga yolg'iz o'zingiz his qilishingizga yo'l qo'ymaydigan insonlarni seving. Pushaymonlik haqida so'z borsa ham shu shaklda bo'lsin. Bir taraf o'z burchagiga yashirinib, o'pkasi to'lguncha yig'lasa-yu, ikkinchi taraf kunini odatdagiday yaxshi o'tkazsa, bunday sevgi bo'lmaydi. Sen bir burchakda yig'layotganingda, kunini maroqli o'tkazayotgan insonni sevishdan to'xta, hatto nafratlanishingga ham arzi-

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

maydi. Chunki nafrat ham bir tuyg'udir. Hamma narsaning ikki taraflama bo'lgani yaxshi.

Shuning uchun sizni sevgan insonlarni sevishingiz shart emas, lekin sevsangiz yaxshiroq bo'ladi.

**Barchasi sizniki bo'lsin.
Bizga «U bunga loyiq» deya oladigan insonimiz bo'lsa,
yetarli.**



To'g'ri tajriba, yanglish inson

Yashashimiz mumkin bo'lgan shu qadar ko'p, bo'lishiladigan shu qadar go'zal onlar borki, hammasini vayron qilishmoqda. O'tmish xarobalaridan qutulolmagan va o'tmishidan olgan tajribalarini qarshisiga chiqib uni o'zini sevganidan ham ortiqroq darajada yaxshi ko'rgan insonlarga nisbatan qo'llashmoqda.

Bu esa eng go'zal tuyg'ularning va his qilish mumkin bo'lgan eng go'zal lahzalarning qotiliga aylanmoqda. «Men ko'p azob chekdim, endi boshqalarning ham joniga azob bera-man», degan fikrdan voz keching. Siz ko'p ranjitilgan bo'lishingiz mumkin, lekin bu qarshingizdan chiqqan boshqa insonni ham ranjitishingiz kerak, degani emas. Agar shunday qiladigan bo'lsangiz, sizni o'zgacha sevadigan insonlarni yo'qotishga mahkum bo'lasiz. Har safar qiyin vaziyatda qoldirib, tashlab ketishni xayolingizdan chiqaring, aks holda kun kelib, siz ham sevasiz va tark etilasiz.

Dilimni ko'p og'ritishdi, nohaqliklar qilishdi. Umid berib, barcha eshiklarni shartta yuzimga yopdilar. Chorasiz qoldim. Ya'ni tushunganingizdek, men og'riqni suyaklarimgacha his qildim, lekin azoblamadim. Birovlarning umidlarini poymol qilmadim. Ranjisam-da, ranjitmadim. Yuragim xavotirda bo'lishiga qaramay, yonimdagi insonlarga «Men hech kimga ishonmayman», demadim, deya olmadim. Doimo ishonдим.

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

Bo'lgan ko'ngilsizliklarga qaramay, ishonishdan to'xtamadim, chunki oldindan beradigan xulosalar emas, balki hamdard bo'lish va to'g'ri insonlarga ishonish hayotdagi eng go'zal onlarni yetaklab kelishini bilaman. Qayerga borsam ham ichimdagi shu hislarni ko'tarib yurdim...

**Balki ko'p ozor chekkandirman.
Lekin bugun puchga chiqqan orzu-xayollarim va
tortgan azoblarim tufayli kuchli insonman.**



Sadoqat

*M*unosabatning qancha muddat davom etgani ham ahamiyatga ega, lekin o'tkazilgan go'zal onlar va hissiyotlar-chalik emas. Ba'zi munosabatlar yillab davom etadi. Lekin ketgan shuncha vaqtga qaramay, eng kichik hayajon, ehtiros va sevgi his qilinmaydi. Yana ba'zi munosabatlar bor, bor-yo'g'i ikki-uch oy davom etsa-da, bu munosabat to'liq his qilinadi. Haqiqiy qaynoq sevgi, ehtiros, hayajon va hissiyotlar yetarlicha anglanadi.

Munosabatning qancha muddat davom etganiga ortiqcha ahamiyat berish kerak emas. Shunday paytlar keladiki, yillab davom etgan munosabatlar bir zumda nihoyalanadi. Sevgidan voz kechib, hech narsa bo'lmagandek yashashda davom etishadi. Oylab davom etgan munosabatlarda ham xuddi shunday sevgan ikki insonning bir-biridan ayrilolmaganini ko'rishimiz mumkin.

Muhimi, munosabatning davomiyligi emas, yashamoq va o'tgan lahzalarning insonga bag'ishlagan hayajoni va sevgining miqdori emas, qay tarzda taqdim etilganidir.

**Sen boshqalar bilan kuningni maroqli o'tkazar
ekansan, menga bergan azoblaringga ham sodiq
qoldi bu qalb.**

«Uyim, deya sig'inganlarimiz
bizni ko'chada
qoldirishibdi.
Bundan bizning
xabarimiz yo'q ».



Sevgimi? Muhabbatmi?

*N*azarimda, sevgi insonga hayotda bir marta beriladi. Inson eng chuqur hayajonni va ta'rifsiz ehtirosni, jo'shqin va baxtli tarzda boshdan kechirgan nimasi bo'lsa, bir marta anglaydi. Mazmunli va takrori bo'lmagan daqiqalarni faqat bir kishiga nisbatan his qiladi. Qolgani shunchaki o'rganib qolishdir.

Inson kimnidir sevib qolishi uchun avval unga bog'lanishi kerak. Bu muhim jarayon.

Inson «Sevaman», deydi, sevolmaydi. «Aslo sevmayman», deydi-yu, bir kun qarasangiz, ishqdan telbaga aylangan bo'ladi. Uzun gapning qisqasi, chin sevgi bir marta keladi. Qolgani qarshingizdagi insonning borligiga ko'nikib qolishdir.

**Ha, senga oshiq emasdim, lekin bog'lanib qolgandim.
Etni tirnoqdan ayirding, gunohi sening bo'yningga.**

Endi siz ham azob cheking

Senga zararim tegmaydi, deya nozik tomonlarimizni o'rganib olgach, Xudoning bergan kuni aynan o'sha nuqtamizda gulxan yoqayotganingizni ko'rib turibmiz. Ba'zi haqiqatlarni biz ham bilamiz, lekin «Balki, bu safar hammasi boshqacha bo'lar» degan xayolga tolamiz. Ammo afsuski, har safar hammangiz bir xil ekanligingizga guvoh bo'ldik. Yuragimizdagi bitmas yara izlari «Senga zararim tegmaydi» deganlarga oid. Shu jumlani shivirlayotib bunga o'zingiz ham ishonmasligingizni juda yaxshi bilasiz.

Ortiq biz ham ishonmaymiz.

Qalbimizda sevgiga, sevilishga bo'lgan ehtiyoj tufayli ishondik, kurashdik, sabr qildik, imkon berdik. Arzimasligingizni esa ziyodasi bilan his qildik, o'rgandik.

**Nejip Fazilning ushbu so'zlarini har gal o'qiganimda,
vijdonim rohatlanadi:**

**«Sen ham shunchalik ko'p sevki, tark etgan
yor uyalsin».**

Siz ham biroz uyaling.

**Biz sizga ishonganimiz uchun azoblandik.
Endi esa siz ham bizni yo'qotganingiz uchun biroz
azoblaning.**

Ketmoq qiyinroqmi yoki qolmoq?

*H*ar birimiz hayotimizda bir marta bo'lsa ham tark etilganmiz. Ular ketarkan, biz orqalaridan jim kuzatib qolganmiz. Biri ketadi, biri qoladi. Tashlab ketilgan odam barcha azoblar-u og'riqlarga ko'nikishga majbur. Xo'sh, aslida, ketish qiyinroqmi yoki qolish, qiyin va ikkilantirib qo'yuvchi savol. Hammamizning bu mavzuga aloqador yaramiz bor. Ketish eng katta xiyonat ekanligini o'ylasak-da, lekin ketgan odam shuni istagani uchun ketdimi? Yoki bunga majbur bo'ldimi? Qolgan odam juda sevgani uchun qoldimi? Bularning ham muhokamasini qilish kerak. Shuni aytmoqchimanki, aslida, bu savolning javobi yo'q. Ochiq savol bu. Bu masala haqida hamma turli fikrga ega. Mening fikrim esa: ketish yoki qolishning qaysi biri qiyinroqligini bilmayman, lekin haydalish eng og'ir azob va eng chorasiz holat ekanligini juda yaxshi bilaman. Qolish va sevilish uchun qilgan shuncha harakatingga qaramay ketkazilish... Ulkan chorasizlik...

Yillar o'tib, bir ayolni sevdim. Haqiqatan, qattiq muhabbat qo'ydim. U meni bir daqiqayam sevmadi. Oradan vaqt o'tdi, boshqa ayol menga ko'ngil qo'ydi. Uni esa men sevlmadim.

Bir muddatdan so'ng men sevgan ayol pushaymon bo'lib, yana qaytishni istadi, lekin men kechirmadim. So'ngra pushaymon bo'lib, oldiga bordim, lekin endi u kechirmadi.

So'ng tushunib yetdimki, aslida, nima muhim ekan bilasizmi? Sevmoq va sevilmoq to'g'ri vaqtda, to'g'ri insonga oidlik ekan.

Kezi kelganda, qolishni uddalash, qayerga ketilsa ham qo'lidan tutib, birga qadam tashlash ekan.

Siz ketganlar Kazim Koyunjuning «Mana, ketyapman», degani kabi beshafqat, biz qolganlar esa Sezen Aksuning «Ket», deganidan so'ng «Ketma» degani kabi ma'summiz. Ketganlar ketaversin, qolganlar maydoni esa bizniki.

Ikki yurak, bir vujud

To'g'ri, bir shaharda yashamaymiz, lekin bir osmon ostida nafas olaymiz. Masalan, men shuning o'zidan ham baxtli bo'lolaman.

Senga yanada aniq narsalar kerakdir, balki, lekin men senga yuragimdan va qo'llarimdan boshqa yanayam aniq nima berolaman, bilmayman. Sen haqingdagi mavhum bo'lsa ham har bir tafsilotga oshiqman. Masalan, borliging, yana bir osmon ostida bir havodan nafas olayotganimiz va shu kabilar. Senga taqdim etgan bir qancha aniq tushunchalarni e'tiborsiz qoldirgan sen. Sen haqingdagi mavhumliklarga shuncha-ki emas, yaxshigina oshiq bo'lgan esa men. Va men seni har doimgidek haddan ortiq sevaveraman.

**Sevish uchun bir shaharda yashashingiz shart emas.
Ikki yurakning bir vujudda urishi yetarlidir.**

Quloqqa zirak

*H*ayotda hech narsa bir tarafli bo'lmaydi. Hamma narsaning qarama-qarshisi bo'lgani yaxshi. Sevgining, hurmatning va yana bir boshqa narsalarning. Xudbinligiga asir bo'lgan insonlar uchun o'zingizni behudaga xafa qilmang. Hayotidagi barcha narsaga qora ko'zoynagi bilan qaraydiganlar ko'radigan maydonda bo'lish uchun o'zingizni fido qilmang. Yigirma to'rt soat o'z manfaatlarini qondirish uchun qilmagan nomaqbul ishlari qolmagan, har zamonda bir oynaga qarab o'zini savolga tutmaydigan, vijdon tarozisi buzilgan, hissiyotlar bo'lmasi zanglagan insonlar uchun o'z qadringizni tushirmang. Sizga qisqa va lo'nda qilib aytaman: arzishmaydi.

Qulog'ingizga tilla zirak bo'lsin: ketmayman, deydiganlarga zarrachalik ishonmang, baribir ketishadi.

**Hech kimga sig'inma. Hayotdagi yagona qirg'og'ing
o'zing bo'l.**

**Va faqatgina senga talpinishlari uchun ishonch ber,
insonlarga shuning o'zi kifoya.**

Har ayolda biroz yosh bolalik mujassam

Shunday ayollar borki, hali yo'ning boshida bo'latu-rib, hayot sharoitlari tufayli turli xil tashvishlarni boshidan kechirib, yetuklikka qadam tashlab qo'yishganini o'zlari ham bilmay qolishadi. Men yetuklikning yoshga hech qanday aloqasi yo'q deb o'ylayman. To'g'ri, ba'zi narsalarda, albatta, yoshning ham ahamiyati bor, lekin o'n yetti yoshdagi ayolni ham ko'rdim, yigirma yetti yoshdagi qizni ham. Yoshi katta ayollardan muvaffaqiyatliroq qizlar bor. Bunga shaxsan guvoh bo'lganim, ko'rganim uchun ishonch bilan aytolaman.

Ayollarning aksariyati yoshidan qat'i nazar haliyam bola ruhiyatiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Buni ko'ra olmagan erkaklar yo'qmi? Albatta bor. Zotan bir ayolning bola shaklini erkalab qabul qilolgan odam, uni umri davomida ham baxtli qilishni uddalay oladi. Shunday odamlarga tavsiyam: bir ayolni samimiy seving. Buni his qilgan ayol ham sizga o'sha «yosh bola» maqomi bilan sodiq qoladi.

**Ayollar qanchalik ulg'aysa, ulg'aysin,
qalban yosh bola bo'lib qolaveradi.**

Pushaymon qildirdilar

*B*iz ham qanday baxtli bo'lishni bilardik. Lekin ketdik, ishondik va sevdik. Yetmadi. Anglatdik. Yo'qqa chiqdik. Vaqti kelganda, nafratlanib ham sevdik. Sog'indik, ko'rmaganga olindik. Shunchalik ko'rmaganga olindikki, borligimizga o'zimiz ham shubha qila boshladik. Vaqti kelganda, ko'ngil bergan insonimizning hayotida o'zimizni ortiqchadek his qildik. Ortig'ini istamas edik, bor-yo'g'i haqli bo'lganimiz qadar sevilishni istadik. Zotan, haqli bo'lmagan sevgiga havasimiz yo'q, lekin bu qadar sevilmaslikka ham loyiq emasdik. Bizni yo'q deb hisobladilar. Eng go'zal hislarimiz bilan sevgan insonlarimiz tarafidan befarq qoldirildik. Alamlisi, go'zal sevgimiz uchun pushaymon qildirildik.

Shunchaki, o'zi loyiq bo'lgani qadar sevilishni istagan insonlarni ham sevganiga pushaymon qildirdingiz, uyat sizga.

Tamoman farqli edi

*Y*uragimdagi o'rning boshqalarnikidan tamoman farqli bo'lganligini bilishing kerak. Vijdon amri bilan senga taqdim etgan imkoniyat va fidokorliklarim yolg'iz sen uchun takrorlanmas shaklda bo'lganini aytolaman.

Sendan boshqa hech kim uchun bu qadar kurashmadim. Hayotingda hech kim sevolmaydigan darajada o'zgacha suydin.

Ista ishon, istamasang ishonma. Qalbidagi o'rning butunlay farqli edi.

Ishonamanki, sen ham hayotingda meni yo'qqa chiqarganing kabi hech kimni ranjitmading.

Bunga butun qalbm bilan ishonaman. Quloq sol, sevgilim shunday tasavvur qil: Hashamatli bir restoranga kirding. Hamma stollar band, eng go'zal bittagina o'rin bo'sh, lekin u ham band etilgan bo'lib chiqdi.

Ana o'sha go'zal joy men edim. Band qilgan esa sen.

Sen qalbmning eng go'zal makoni sohibi eding.

Seni yo'qotganim uchun emas, yana bir bor shunday sevolmasligimga xafa bo'lyapman.

Demaydilar

«**S**eni juda sevaman, menga ishonishing mumkin». Seni baxtli qilolaman, aslo xafa qilmayman». «Seni ranjitmayman, charchatmayman», deydilar.

«Men seni aslo tashlab ketmayman», «Sensiz yashay olmayman», «Sensiz hayotni istamayman», deydilar. «O'zga cha sevaman», «Unday sevaman, bunday sevaman», deydilar. «Senga mening zararim tegmaydi», «Sendan boshqasini istamayman», deydilar. Lekin hech «Menga bo'lgan ishonchingni himoya qilaman», «Albatta, ba'zida seni xafa qilaman, ranjitaman, balki yig'latarman ham, lekin barcha qiyin burilishlardan birga o'tamiz», deya olmaydilar.

«Sen bilan birga yangi hayot qurish uchun qo'limdan kelganidan ortig'ini qilaman, balki vaqti-vaqti bilan ranjitarman, lekin bir-birimizning yelkamizga bosh qo'yib, huzur topamiz. Ba'zan xafa qilib qo'ysam ham, ortig'i bilan baxtli qilishni ham bilaman», demaydilar. Barcha bergan umidlari unday qilmayman, bunday qilmayman, ketmayman, xafa qilmayman, charchatmayman, ranjitmayman va shu kabilar.

Aytgan chiroyli so'zlari kabi va'dasining ustidan chiqolmasliklarini shunday go'zal shaklda taqdim qilishadiki...

Shunday bir ketishadi, bir ranjitishadi, ba'zan charchatishadi, borib boshqasi bilan osonlikcha baxtli bo'lishadi...

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

Qo'lingdan keladigan yagona ish esa bularni tomosha qilish bo'ladi. Shunchaki tomosha qilish.

**Ahamiyati qolmagan so'zlarga qornimiz to'q.
Ranjitsam ham ketmayman kabi samimiy so'zlarga
ehtiyojimiz bor.**



Ketishni istayaptimi, unga eshikni sen och

Qnam doim «Hamdardlik qilolmaydigan insonlardan uzoq tur, chunki ular hech qachon sevolmaydi», der edi. Haqiqatan ham, shunday. Hamdard bo'lolmaydigan odamlarga o'zimni anglatishga urina-urina holdan toydim. So'ngra ortig'i bilan tamom bo'lganimni tushunib yetdim. Shuni hech qachon unutmam, bir inson sendan ketishni istayotgan bo'lsa, qolishi uchun aslo harakat qilma. Eshikni unga o'zing ochib ber, o'zing kuzatib qo'y.

Vaqt kelganida yolg'iz o'zing sevoladigan darajada tuyg'ularingga yengilishing mumkin, lekin sen bilan bo'lishni istamagan insonni yoningda olib qolishga urinadigan darajada g'urursiz ham emassan. Zo'rlik bilan go'zal hayotga erishib bo'lmaydi. Bir inson sen bilan bo'lishni istayotgan bo'lsa, nima bo'lgan taqdirda ham yoningda qoladi. Bu shunchalik oddiy va aniq.

Sendan ketishni istayaptimi? Qo'yib yubor, ketaversin. Ketgan joyida uni sen kabi hech kimsa sevolmaydi. Buning rohati senga yetarli bo'lsin. Pushaymon bo'lib, ortga qaytadi, lekin aslo kechirmaysan. Seni ilk bor yaralagan, ikkinchisida o'ldirishi aniq. Shuning uchun, unga bu fursatni ikkinchi bora aslo bermaysan.

Osmonni sev, mototsikl haydashni sev, baliq tutishni sev. Chag'alaylarga kulcha otishni, chim ustiga yotib, osmonga

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

termilishni, moviylikni, dengizni, dengiz chig'anog'i yig'ishni, moychechaklarni, kitoblarga g'arq bo'lishni, o'zingga bir finjon qahva tayyorlab, undan bahra olishni va men sanab o'tolmagan yana bir qancha narsalarni sev...

Sevishing mumkin bo'lgan shuncha narsa bo'laturib, tuyg'ularingga zarar keltirganni sevishing katta xato.

**Endi biroz o'ylab ko'r, hayot qisqa.
Sevishga arzirli juda ko'p go'zal narsalar bor.**

Biroz samimiyat

*B*ir nechtasi bilan gaplashib, hammasini bir xil so'zlar bilan sevishni ko'nglingizga qanday sig'dira olasiz? Eng go'zal jumlar faqat sevgan insoniga aytilishi kerak, sizga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Qarshingizdan chiqqan har kim bilan gaplashib, hammasiga o'sha soxta izhorlaringizni doston qilasiz. Hatto shu holingizga guvoh bo'lganimning o'zidayoq ko'nglim ayniyapti, sizniki qanday ko'ngil ekan, hech tushuna olmadim.

Faqat bir insonga tegishli bo'lish siri beradigan huzurni hech qachon his qilolmasangiz kerak. Masalan «hayotim» so'zining o'ziyam men uchun juda qadrli, ya'ni har kimga ham aytolmayman. Afsuski, siz allaqachon bir-biringizga qorishib jon bo'lishga ham ulguribsiz. Uzoq vaqtda boshdan kechirish kerak bo'lgan lahzalarni bir onda o'tkazib, bir kunlik sevgingizni kun tartibingizdan chiqarib tashlamaguningizcha, sevgining ta'zirini berib qo'yaman deydingan to'g'ri tuyg'ularga sohib insonlar ishqqa nisbatan noto'g'ri xulosalarga kelishadi. Biz ham sevilishga ehtiyoji borlar sifatida bir burchakda tugab bitamiz.

O'zingizga keling, na biz bu «oddiy»ligingizning hisobini to'lashga majburmiz, na siz Alloh sizga mehr bilan to'ldiring deya bergan pok qalbini kirlatishga haqlisiz.

Turli insonlarni bir xil dil izhorlari bilan sevganlarida, biz sevilishga yana-da muhtoj bo'lib qolamiz. Mayli, biz haqiqiy va samimiy tuyg'ularga ega insonlarmiz.

Buning tasallisi bilan yolg'iz yashay olamiz.



Mening vijdonim pok

Seni go'zal shaklda sevoldim. «Meni sevma», «Mendan nafratlan», «Men senga munosib emasman», dedi. Xudiki, bu gina, nafratining, hissizligining dunyoni qutqarishiga ishonadigandek, «Qalbingni yulib ot», dedi.

Seva-seva voz kechdim, lekin nafratlanmadim. Ma'sum sevgimning nafratga aylanishiga yo'l qo'ymadim. Ilk kun qanday sevgan bo'lsam, oylar o'tgach ham shunday sevardim. Sevgimning nafratga aylanishiga yo'l qo'ymaganim uchun bu sevgini yolg'iz o'z ichimda asrashimga qaramay, sevgimga sodiq qololganim uchun holimga shukr qildim.

Atrofimga qaraganimda o'zini sevgandek ko'rsatadiganlarni, seva turib boshqasi uchun yarim yo'lda tark etayotganlarni ham ko'rdim. Men shu yarim holim bilan sevgimga butunlay sodiq qololishni uddaladim.

Mening vijdonim pok, qolganini o'ylash seni ishing.

Tirikligingda ortga bir o'giril

Yagona aybimiz nima edi bilasizmi? Butun qalbimiz bilan sevgandik.

O'zlarini bir ma'sum deb o'ylashlari oldida yagona aybimiz ularning sevgisini talab qilishimiz edi. Shunchalik qalb ko'zingiz ko'rki, hayotingizda sizni eng go'zal shaklda sevoldigan insonlar yoningizda bo'lishiga qaramay ularni tamom qildingiz. Qaytadan hech kimni bu qadar sevolmaydigan darajaga keltirdingiz.

Holbuki, ular sizni so'nggi nafasiga qadar eng go'zal shaklda sevoladigan qalblar edi.

Lekin unday bo'lmadi. Go'zal tuyg'ular yo'qqa chiqarildi.

Oraga o'lim kirdi, pushaymonlik yana-da ortdi.

Ketgan uzoqqa ketdi, aslo ortga qaytmaydi.

Hayot qisqa, oraga o'lim kirmasidan, sevganlarinigning qalbiga kiring va xotirlashga arzigulik go'zal lahzalarni hadya qiling.

Kuchim yetgani qadar sevdim

So'nggi lahzamga qadar sevdim. Seni borolgan joyimga qadar emas, balki kuchim yetgani qadar sevdim. Sevgining yana bir qiyoslab bo'lmaydigan chiroyli ko'rinishi kimningdir sevgisini his qilganda kuchga to'lishdir, bizda kuchga to'lgan faqat sen bo'lding. Men sevganim sayin quvvat olding, har safar o'sha kuch bilan meni ezding va men bunga har gal ko'z yumib, senga yanayam kuchliroq oshiq bo'ldim. Hamma bir-biridan osonlikcha ajralib ketayotgan bu hayotda, men sening bir parchang bo'lishni xohladim. Zotan, chiroyli sevilmadim, sen ham meni farqli sevolmading. Seni muhabbati bilan quvvatlantirgan insonni har gal ezib, parchalaganingni kelajakda farzandlaringga aytib berishingni xohlayman.

**So'ngra to'xtab ortga qaradim, buning oxiri yo'q,
sevishga boshqa madorim qolmadi, bitgandim.
Sevgan holda voz kechish nima ekanligini soyangda
o'rgandim.
Tashakkurimni qabul qil.**

So'ngra charchaysan

Insonni shunday ahvolga keltiradilarki, bora-bora qilishni xohlagan ishlaringizga nisbatan ishtiyoqingiz qolmaydi.

Sevishdan charchaydi inson. Javobsiz shaklda sevganida charchaydi. Qadrlashdan toliqadi, mehnatlari behuda ekanligini ko'rishdan charchaydi. Boshqacha deb o'ylagan insonlari hamma kabi ekanligiga guvoh bo'lishdan bezadi. Sog'inishdan, yolg'iz o'zi harakat qilishdan, qalbi parchalanib holdan toyadi.

Har safar bir xil azoblarni boshdan kechirishdan charchaydi. Eng ko'p huzur topishni istagan insoning sabab toliqish og'ir holat.

Ketmayman, deyishdi, lekin birinchi bo'lib ketganlar ular bo'ldi.

Keyin-chi?

Inson hamma narsadan soviydi.

**Va men eng ko'p senda huzur topishni istaganimda,
eng ko'p sen tarafingdan ozor ko'rdim.**

Sevishdan bir kun bo'lsa-da, charchamaydigan insonni bu ahvolga sen keltirding. Bu sening chiqishi yo'q ko'chang bo'lsin.

Ko'p sevmοqmi? Go'zal sevmοqmi?

*M*endan so'raydigan bo'lsangiz, sevgida muhimi miqdor emas, go'zallikdir. Uni qanday anglatishdir. Hammayam qattiq sevoladi, lekin go'zal sevolmaydi. Masalan, ko'pchilik unga telbalarcha oshiqman deydi, lekin sevgan insonining sochlariga ma'no yuklay oladimi? Men sevgan insonimning qo'lidagi tirnoq bo'yog'idan tortib, ustidagi nimchasiga ham oshiq bo'lolaman. Ovqat yeyotganda qoshiqni qanday ushlashiga, suvni qanday ichishiga, ko'zlarini har ochib-yumganida, kipriklarining shakliga, ovozigiga, betartibligiga, tashvishlariga, men tomon tashlagan har qadamiga, kitob o'qiyotganida ko'zlarini necha soniyada pirpiratganiga va yana bir qancha narsalarga ma'no yuklab sevaman. Hozir hamma tafsilotlarni aytadigan bo'lsam, turmush quradigan insonim hammasini bilib qoladi. Ya'ni bularni o'qishini emas, his qilishini istayman. Mening go'zal shaklda sevolishimni butun vujudi bilan anglasin, yetarli.

Bu shaklda sevishim nafaqat chetdan qaraganlarga, balki sevgan insonimning o'ziga ham g'aliz tuyilish ehtimoli juda katta, albatta. Oldin bunchalik qadrlanmagan insonlarga g'aroyib kelishi tabiiy hol. Ularni ham tushunish kerak. Unutmang, sizni ko'z bilan sevar, lekin go'zal qalbi bilan sevoladigan insonni osonlikcha uchrata olmaysiz.

MIRACH CHAG'RI OQTOSH

Sizni ham shu shaklda sevadigan kimdir bo'lsa, uni qadriga yeting, yo'qotib qo'yishdan qo'rqing va asrang. Qanchalik sevishini emas, qanday sevishini bilish muhimroq masaladir. Va albatta, go'zal sevilganini his qilgan odamdan, baxtlirog'i bo'lmaydi bu dunyoda.

Bizga ko'p emas, kam emas, go'zal sevadiganlar lozim.



Kelsang yaxshi bo'lardi

Qzgacha insonni topolmasangiz, o'zgacha narsalarni jamlang. O'zgacha tarzda his qilinishi kerak bo'lgan tuyg'ularni duch kelgan insonlar bilan bo'lishmang.

Vaqt kelganida tuyishingiz mumkin bo'lgan tengsiz, ma'sum lahzalarni to'plang. Ertaga hayotingizga qabul qilishni istagan insoningiz kelib, «Men uchun nimalarni saqlading?» deya so'raganida, ko'nglingizni xotirjam qilib aytoladigan ikki-uch javobingiz bo'lsin.

Masalan, men Istanbulda yashashimga qaramay, Adalarga hech qachon bormadim. Hech qachon Galataga chiqmadim. Yolg'iz boradigan joylarimga ham bormadim. Borishni xohlamadim, chunki bir kun hayotimga kiradigan o'zgacha inson, men saqlagan o'zgacha narsalar bilan birlashishini istadim.

Adalarga sevgan insonim bilan borishni, Galataga ham sevgilim bilan chiqishni istaganim uchun odamlarning turli insonlar bilan bo'lgan his-tuyg'ularidan o'zimni mahrum qildim, chunki qadrli bo'lgan har narsa men uchun o'zgachadir. Shuning uchun nimani farqli deb bilsam, doim uni ichimda saqladim.

**Huzurini topoladigan insonim!
Qayerdasan bilmayman, lekin kelsang yaxshi bo'lardi.
Men sen bilan sevgini totishga, Galataga chiqishga,
Adalarga borishga , umuman seni qattiq sevishga
tayyorman.**

Parchalaydigan bo'lsangiz

*B*oshqalarning parchalaganini but qildingiz, bunga-ku rahmat, lekin bu qayta parchalashingiz mumkin degani emas. Parchalangan insonni hamma ham butlay oladi, zotan. Masala parchalangan insonni qalbini to'ldirgach, yana parchalamaslik uchun harakat qilishda. Hamma narsaning butunligicha saqlay olishda, lekin siz men butlagan bo'lsam, yana parchalashim mumkin, degan fikr bilan avval ishonch berib, so'ngra o'ziga keltirib bo'lmas darajada jarohatlab tark etasiz. Bunday qilmang. Agar shu shaklda yordam berar bo'lsangiz, yaxshisi kelmang.

Bugunga qadar o'zimizni o'zimiz tikladik. Boshqalarni to'ldirishga urinib, o'zimiz yarim qoldik, lekin shunda ham o'zimizga keloldik.

**O'zimizni o'zimiz biriktira olamiz, qolganlar bizdan
uzoq bo'lsin.**

«Unutdim deyilgan har soniyada
yanada ko'proq sevilgan,
ayrilish soniyalari yaqinlasharkan
tobora mustahkamroq bog'langan,
bog'lanayotib chigal tugunga aylangan
bir hikoya edi bizniki...»



Kechikma

Eshu haqiqatni unutma, sen har zarrangga qadar men-
ga oidsan. Va bu haqiqatni hech narsa o'zgartira olmaydi.
Meni unutish uchun kirgan har bir ko'chang yo'lingni men
bilan kesishtiradi. Bizni yo'qqa chiqarishga urinishlaring
behuda. Ajralganingni o'ylagan har oning yanglishganingni,
yurgan har yo'ling seni men tomon olib borayotganini ko'rga-
ningda tushunib yetasan.

Bir kuni har zarrangga qadar menga tegishli ekanliging
to'g'risidagi fikrimga o'zing ham qo'shilasan. Umid qilaman-
ki, kechikmaysan, agar kechiksang, seni aslo kechirmayman.
Sen ham o'zingni bir umr kechira olmaysan.

Mendan keyin kim bilan birga bo'lsang bo'l, lekin kechik-
kanlik pushaymonligi bilan sevasan.

**Sen men bilan bir butunsan.
Shunday qol.**

Uyingdagi kabi his qildirsa yetarli, aslida

*M*en sen bilan bugungi odatiylashgan munosabatlar-ning izidan borishni istamayman. Chunki seni boshqalardek shunchaki, til bilan sevolmayman. Qalbim va samimiyatim bilan sevaman. Butun oila a'zolarining o'rnini bosa oladigan darajada yaqin bo'laman. Ota-onang o'rnini bosa olmasman, to'g'ri, lekin onangning mehri bilan himoya qilaman, otang kabi yolg'iz emasligingni his qildirib, sevaman.

Vaqt kelganida ukang yoki singling kabi bolalarcha beg'ubor bo'laman. Vaqt kelganida akang kabi yo'l ko'rsataman. Vaqt kelganida sevgan insoning sifatida sevgimni eng go'zal shaklda anglat.

Sen qoldirgan yaraga boshqalar malham qo'yishini istamayman. Har kuni seni sevish orqali o'zimni tuzataman. Butun borlig'imni senga atayman. Zotan, sevgan inson sevganining hayotida faqatgina sevgili bo'lib qolmasligi kerak. Qalbidagi butun sevgisi bilan unga oila bo'lolishi kerak. Oilam bo'lolsang kel.

**«Shu choyni ham ichib olay, keyin turamiz, xotin»,
deya olmaydigan bo'lsam, nima qilaman men bunday
sevgini.**

Ustidan chiqolmaydigan va'dalar bermang

*U*ddalay olmaydigan gaplarni aytishga uddaburonsiz. Ijro haqida gap ketganida chiroyli tarzda qochasiz va bergan so'zlaringizning ortida turmaganingiz kabi o'zingizni tushirgan past qiymatli vaziyatda ham o'zingizga buni ma'qul sanaysiz.

Bu yetarlicha kulgili va bir tarafdin xafa qilarli holatligini bilmaysiz. Bir insonga ustidan chiqolmaydigan va'dani bermang.

O'zingizni va qadringizni yerga urmang. Hech bo'lmaganda, qilmoqchi bo'lganingiz uchun bergan va'dangizni bajara olmaganingizda, yolg'onchiga chiqmaysiz, ham qarshingizdagi insonda noto'g'ri tushuncha uyg'otmaysiz. Bu qayg'uni o'z ichingizda o'tkazasiz, bu ham yomondan yaxshiroqdir. Lekin sizda bunday tushuncha nima qilsin. Siz odatiy bo'lib qolgan, ustidan chiqolmaydigan, o'zingizga hech qanday aloqasi bo'lmagan so'zlarni aytishni yaxshi bilasiz.

Hayotim davomida hech kimning og'zaki va'dalariga suyanib qolmadim. Shunchaki, qarshimdagi insonning og'zidan chiqqan, eng kichik jumla ortidagi samimiyatni qidirdim. Af-suski, topolmadim. Shuning uchun, «Senga so'z beraman», deyilgan jumlalarga u qadar ishonch bilan qaramayman.

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

Chunki berilgan soʻzning ustidan chiqilmaganida yana bir bora ishonchim sinadi.

Soʻzida turmagan insonning toʻgʻri axloqqa ega ekanidan ham shubha qiling.

**Shu sababli soʻzida turmagan insonlarni hayotingiz-
dan chiqaring.**

Tozalik doimo yaxshidir. Axir bu iymondandir.



Ayol ishonsagina sevoladi

*B*ir ayol senga ishonsa, seni sevsa, hurmatingni joyiga qo'ysa, sen ham uni o'z-o'zidan hurmat qila boshlaysan. Seni sevgan bir ayolning ishonchi so'nsa, sen vijdoning sabab uning qadrini kech bilasan. Choy qanday issiqligida ichilsa, ayolning tuyg'ulari ham issiqligida qadr ko'rishi va sevilishi kerak.

Ayollarni oz bo'lsa-da bilasiz, gap sevgan insonlari haqida ketganida, ular erisholmaydigan g'alaba, buning uchun qilmagan harakatlari qolmaydi.

Tuyg'ulari qaynoqligida va ishongan vaqtlarida sevgan insonlari uchun hech narsa qilishdan o'zlarini to'xtatib qololmaydilar, hissiyotlari bilan harakat qiladilar. Ba'zida esa noliyiq odamlar tufayli tuyg'ulariga shikast yetib, aqlari bilan ish ko'radilar. Sevilishga loyiq bo'lgan odamlar esa ayollarning aqli bilan ish ko'radigan paytlariga duch kelishganida, baxt va sevgi imkonsizlashib boradi.

So'ngra ayol vaqtida bittasi uchun hamma narsa qildim, lekin zarrasiga ham arzimadi, degan fikr bilan ish ko'rishni boshlaydi. U odam esa men seni go'zal tarzda sevaman degan tushuncha bilan unga yaqinlashishga urinadi. Jabridiyda ayol esa noto'g'ri fikriga sodiq qolganicha, kelayotgan baxtli lahzalarni o'z qo'llari bilan itaradi. Bu holat bir-birini Layli

«SEN O'N YETTI YOSHIMSAN»

va Majnundek sevolishi mumkin bo'lgan ikki insonning katta yo'lda bir-biridan xabarsiz holda ikki begonalardek o'tib ketishiga o'xshaydi.

Achinarli, lekin haqiqat.

Bir ayolning samimiy tuyg'ulari bilan o'ynashmang.

Ular sizning hayotda yukina oladigan yagona mas-kaningiz bo'lsin. Chunki ayollar aql doirasiga kirsa, sen doiradan tashqarida qolasan.



Nega yolg'izman?

Nega yolg'izligimni so'rayapsizmi? Odamlarning xudbinligini qo'llab-quvvatlamaganim uchun. Nohaqliklarga hayotim davomida ko'z yummay, mantiq bilan haqli bo'lganni himoya qilganim uchun. Insonlarning faqat va faqat o'z manfaatlarini o'ylab, aytgan har gapiga qo'shilmaganim uchun. Men nega yolg'izman, bilasizmi? Atrofim o'zini marhamatli deb o'ylagan talaygina telba insonlarga to'la bo'lgani bois. O'zining samimiy, rostgo'y va doimo boshqacha ekanligini ta'kidlaydigan insonlarning aslida, qanday ekanliklarini g'oyat yaxshi idrok etolganim sabab. Men nega yolg'izman, aytaymi? Yolg'on, soxta tuyg'ularga yengilmaganim uchun. Men shundayman. Siz to'g'ri deb biladigan noto'g'ri fikrlarga qo'shilmaganim uchun umrimning oxiriga qadar yolg'iz qolsam ham roziman, bundan hech qo'rqmayman.

Hayotimning har daqiqasida o'zimga oid bir odatim bor. Doim haqli bo'lganni himoya qilib, u tarafda bo'laman. Qarshimdagi insonlarning xususiyati meniki bilan butunlay farqli edi. Mukammal insonman, deb aytolmayman, lekin hamma kabi ham emasman. Unutmang, to'g'ri so'zlagan to'qqiz qishloq nari haydalar. Biz ham haydaldik. Mayli, hechqisi yo'q. Bizga Robbimiz kifoya!

**Insonlar to'g'ri bo'lsang, egishga, qattiq sevsang, parchalashga ishqiboz bo'lishadi.
Lekin insonni inson qilgan ham tuyg'ulari va vijdonidir.**

Teran o'ylaydiganlarga...

*A*liyam kechagidek yodimda, oltinchi sinfda o'qir edim. O'sha paytlar bir qizni yoqtirardim. Mendan bir yosh kichik edi. Tanaffuslarda o'rtoqlari bilan bog'da sayr qilishgani-da, men ham ortlarida do'stlarim bilan yurar edim. Ya'ni meni unutmashligi uchun qaragan har joyida bo'lishga urinardim. Men uchun u maktabning eng chiroyli qizi edi. Haqiqatan, shunday edi. Uning ham menda ko'ngli bordek tuyulardi, lekin ba'zan meni tanimagandek, hayotida hech ko'rmagandek tutardi o'zini. Men esa taslim bo'lmadim. Bir gaplashdik, bir ajraldik. Ko'pincha tun yarimigacha cheksiz xabarlashardik.

Uylarimizning orasidagi masofa qirq daqiqalik yo'l edi va eng yaqin sinfdosh do'stim bilan uning uyi qarama-qarshi edi. Ta'til paytlari sevgilimni ko'rgim kelib qolsa, o'rtog'imni ko'rishga borish bahonasi bilan mototsiklimga minib, uyi oldidan o'tardim. Meni sevib qolishi uchun har narsa qilib ko'rdim. Axir, o'sha paytlar yosh bola edim, qayerdan ham bilay bir insonni sevib qolishi uchun majburlash yaxshi ish emasligini. Ming afsuslar bo'lsinki, u meni sevmadi. Eng katta xatosi behudaga umid bergani bo'ldi. Bir muddat o'tgach esa do'stim bilan anchadan beri birga ekanliklari ma'lum bo'ldi. Buning ikkita tafsiloti bo'lishi mumkin: yo men juda sodda edim, yoki ular juda yaxshi rol o'ynashdi. Ba'zan uylari qarama-qarshi bo'lganini o'ylab, sababsiz rashk qilardim, lekin ichimdan chiqarmasdim. Ularga buni sezdirmasam-da, qo'rqqanim sodir bo'ldi.

Men ilk hayot zarbamni o'shanda olgan edim. Ya'ni aytmoqchi bo'lganim shuki: bir inson sizni sevishini istamasa, unga dunyolarni taqdim etsangiz ham sevmaydi. Dunyolarni taqdim qilish imkonim bo'lmasa ham unga hayotida hammadan ortiqroq sevoladigan qalbmni tortiq etgandim.

Sizga achchiq bir haqiqatimni aytaman: o'shandan so'ng hech qachon yaqin do'stim bo'lmadi, ya'ni bo'lishini istamadim. Ba'zi makkor kishilar uchun juda teran fikrlar qilibmiz. O'sha kundan beri hayotda teran o'ylab emas, hodisalarni tasodifan kutilmaganda anglashni afzal ko'ra boshladim. Chuqur va teran o'ylamaslikni, tasodiflarga duch kelish uchun mendek vaziyatlarga tushish shart emas, desam oddiy eshitalishini bilaman, baribir telba, makkor insonlar uchun uzun, teran o'ylangan rejalar tuzib, o'zingizni qiyin vaziyatlarga g'arq qilmang. Ishoning, bu o'zingizga qilgan yaxshiligingiz bo'ladi.

Onam bu so'zlarni o'qigach, menga nima deydi bilmayman, lekin chuqur va puxta o'ylagani uchun ranjigan, qalbi yaralangan insonlarga bu salomlarim bo'lsin...

Xohlashning o'zi yetarli emas

*X*ammaning sevish va sevilish xohishiga guvoh bo'la-man. Lekin afsuski, xohlaganimizdek samimiy, beg'ubor insonlarni ko'rmadim. Hayotda har kim nimadir xohlaydi, lekin xohlagan narsasini qo'lga kiritish uchun hech narsa qilmaydilar. Biz buni xohish deya olmaymiz. Haqiqatan, sevishni istagan odam avval o'zi nima istayotganini bilib olishi va qarshisidagi insonning ham xohishlarini tushuna bilishi kerak. Uning his qilayotganlaridan xabarsiz bo'laturib tongga qadar sevgi izhori yo'llang, behuda... Tushunmaymiz yoki tushunishni istamaymiz. Doim istaklarimiz, o'y-fikrlarimiz, his qilganlarimiz, tuyg'ularimiz... Faqat o'z manfaatlarimizni markazda tutamiz. Bu tarzda hayot bir tekis ketmaydi. Bunday tabiatga ega bo'lib ko'ring va bir muddatdan so'ng atrofingizga qarang-chi, kimdir qolar ekanmi? Qolmaydi.

Sevishni istaysizmi? Qarshingizdagi inson o'rniga o'zingizni qo'yishni sinab ko'ring. Uzun gapning qisqasi, tilingizdan chiqayotgan xohishlar faqatgina so'z bo'lib qolmasin. Istaklaringizning, orzularingizning ortidan quving. Tashlab qo'ymaslikni, taslim bo'lmaslikni va kurashishni idrok eting va buni qabul qiling. Zotan, bu sanaganlarim qo'llanganida, qarshingizdagi inson sizni sevishni boshlaydi. Agar baribir sevmasa, muammo sizda emas, unda bo'ladi. Yagona aybingiz hamdard bo'lolganingiz, taslim bo'lmaganingiz, nomunosib inson tomon to'g'ri qadam tashlaganingiz bo'ldi.

**Siz o'z rangingizni belgilab oling.
Qolganini buqalamun bo'lganlar o'ylasin.**

Xiyonat qilmang

Xiyonat insoniylikka xos emas deb o'ylayman. Shuni ham unutmaylikki, xiyonat qilish va xiyonatga uchrash o'rtasida katta farq bor. Xiyonat qilish insoniylikdan tashqari, xarakterdagi ba'zi nuqsonlarga qo'yilgan nomdir. Xiyonatga uchrash esa yagona aybi ishongani ekanini qabul qilgan inson taqdiridir.

Bir insonning tuyg'ulari bilan o'ynashmoq, hayot muvozanatini buzadi. Buning jiddiyligi haqida hali ham o'ylamagan bo'lsangiz, o'tirib qaytadan bir mulohaza qiling. Tushunolmagan narsam faqat shu: Oylarcha, hatto yillaracha hayotida sen bilan hamma narsasini bo'lishgan, borini fido qilgan inson bo'laturib, nega boshqasi tomon yo'nalasan? Nega shuncha mehnatni, fidokorliklarni, xotiralarni va ishonchni ko'rib turib, yo'qqa chiqarasan? Haqiqatan, tushunish qiyin. Hech qanday mantiq ko'rmayapman. Insonning tuyg'ulari eng katta siridir, lekin ba'zilar sir saqlashni bilmaydi. Tanlovni qanchalik to'g'ri qilsak ham insonning tabiatida buzuqlik bo'lsa, bo'ladigan ishlarga qarshilik qilolmaysan. Insoniy tuyg'ularni yo'qqa chiqarmang. Tutinadigan yagona shoxi tuyg'ulari bo'lgan insonning hayot muvozanatini buzishga haqqingiz yo'q.

Noloyiq insonlarga qilgan fidokorliklaring meni qiziqtirmaydi.

**Menga qilgan haqsizliklaringga e'tiborliman.
Menga nohaq zulm qilsang, qachondir baribir ohim
seni topib boradi.**

Go'zal tarzda sevilishga muhtojmiz

«*Ham* yaralab, ham sevaman» desangiz, bu ish bo'lmaydi. Sevmoq sevgan insonning uchun har narsaga tayyor turishdir. Sevmoq ranjitishdan yiroq bo'lishdir, xafa qilish uchun bahona qidirish emas. Siz sevgi tushunchasini noto'g'ri anglabsiz.

Xohlasam sevaman, xohlasam azoblayman, degan tushuncha bilan sevadigan bo'lsangiz sevmang.

Bir kun sevib, besh kun azoblasangiz, bunday sevgining keragi yo'q.

Biz yolg'iz o'zimiz ham chora topolamiz. Hech bo'lmaganda «Men hozir baxtliman, ertaga ketsa-chi, juda xafa bo'lsa-chi, nima qilaman?» demaymiz o'zimizga.

**Lekin sevishingizni va qadrlashingizni his qildirsangiz, sevaman degan qalbingiz uchun boringizni fido qilsangiz, go'zal tarzda sevolsangiz, sizga ehtiyojimiz bor.
Buni unutmang.**

Alloh biladi, qolgani ahamiyatsiz

Oldindan chiqargan xulosalariga tayanib ish ko'radigan insonlar sizni sevishini kutmang. Ularning to'g'ri deb bilgan bor-u yo'qlari o'z bilganlaridir.

Aytgan har bir gaplari sizni ranjitadi. Ularga o'ylayotgan narsalari to'g'ri emasligini va butunlay aksincha ekanligini tushuntirishni istaysiz, lekin kuchingiz yetmaydi, allaqachon befoydaligini anglab yetgansiz. Shuning uchun kim nima deb o'ylasa ham farqi yo'q.

Shaxsan men oldindan xulosa chiqaradigan insonlarning tushunchalarini o'zgartirishga harakatlarimni to'xtatganimga ancha bo'ldi. Men haqimda kim nima deb o'ylashi, albatta, muhim, lekin oldindan xulosa chiqaradiganlar jar yoqasida turgan bo'lsa ham ishim yo'q. Bo'lganicha bo'lsin. Men haqimda xulosa chiqarishdan oldin kelib, bir og'iz so'rashmadi-ku, bo'lmag'ur xayollariga o'zlarini ishontirishdi. Meni bilishi kerak bo'lganlar biladi. Undan-da muhimi – Alloh biladi, qolganlarning ahamiyati yo'q. Shukur, bandasiga bo'lgan ishonchimiz so'nsa-da, Allohga bo'lgan ishonchimiz so'nmedi.

**Inson bironing boshiga nima solgan bo'lsa,
o'zi ham o'sha kunni ko'rmay o'lmaydi.
Demak, men ko'rishim kerak bo'lgan go'zal kunlar
hali oldinda.**

Sevdim, kutdim, voz kechdim

Sendan voz kechish haqida aslo o'ylab ko'rmagandim. Bir burchakda o'tirib, faqat kutdim. Sevmoq kutishni ham talab qiladi, men ikkalasini ham qildim sevdim va kutdim. Voz kechmaslik uchun o'zim bilan o'zim kurashdim, chunki «U bunga arziydi», dedim. Bilasanmi, senga erishish uchun o'zimni yo'qotdim. Holbuki, kulishingga o'xshatganim uchun moychechaklarni, ko'zlaring qahvarang bo'lgani uchun qahvani sevgandim, loyiq emasligingni juda kech tushunib yetdim.

Nomunosib insonlarga taqdim etgan sevging tufayli ozorlanganing uchun menga azob berishdan to'xtamaganingga hali pushaymon bo'lasan. Niyating jiddiyligini qanday bilaman, deb so'rashing mumkin. Shunday tushuntiraman, uni yuz martalab sindirishiga qaramasdan sevgisi sabab voz kechmagan yagona odam menman deylik... Jonini yoqsa ham azoblarini unutilib yana u uchun borini fido qiladigan inson. Men shunday qildim. Parchalading, sen tomon keldim. Azoblading, yana sen tomon keldim. O'tmishingdagi dardlaringning alamini yana mendan olding, yana sen tomon keldim.

Azobni suyak-suyaginga qadar his qildirding, men shunda ham sendan uzoqlasha olmadim. Bular senga munosib inson bo'lishim yoki niyatim jiddiyligini isbotlashi mumkinligi ehtimolini ko'rsatmasa, senga o'zing munosib deb bilgan nomunosib insonlar bilan baxt tilayman.

Ichimda senga aytish uchun ko'p gaplarni saqlab qo'rganman. Lekin aytolmayman. Aytсам ham hech narsa o'zgarmasligini bilaman.

Ko'nikdim

*D*uolarimga sherik bo'lishingni istardim, lekin sen bu ehtimolni ham qo'limdan tortib olding. Seni sevishim uchun birga bo'lishimiz shart emas edi. Men seni uzoqdan ham sevoldim, lekin tuyg'ularimni oyoqosti qilgan kuningdan beri, sen qoldirgan yaraning izi ortiq jonimni azoblamay qo'ydi. Bu hayotda hech narsa bir tarafli bo'lmaydi. Bir inson yolg'iz o'zi ma'lum bir joyga qadar sevoladi. Men seni sevishni biroz oshirib yubordim. Voz kechishim kerak bo'lganida, sendan voz kechmay umid qilaverdim. Hozir dardlarimni ko'nikish jumlasiga sig'diraman. Qaysi inson menga va tuyg'ularimga zarar bersa, dard sanamayman. Jonim oldingidek yonmaydi.

Buni shunday izohlayman, men doim yarim holda tark etildim. Ortiq bu dard emas, chunki ko'nikdim.

**«Ko'nikdim» so'zining tagida yotgan vayronalarni,
jamiki, og'riqlarini shunchaki, «ko'nikdim» so'ziga jam-
laganlar biladi.**

Otalar kuni

Ota, deyilganda otasiz katta bo'lganlarning ichida jizillaydigan bir yara bo'ladi. Insonga joni omonat qilingani uchun azoblarga ko'nikishga, shukr qilishga majbur. Men ham uch yoshimdan beri shunday qildim. Otasiz bo'lishim onam yoki mening tanlovim emas edi. Bu hayotda hamma o'z tanlovlarini o'zi qiladi va bu tanlovlar insonning insoniylik sifatini belgilaydi.

Shuni ham aytib o'tishni istayman, erkak so'zi faqatgina erkaklar uchun emas. Qancha ayollar bor, farzandlariga ham onalik, ham otalik qiladigan. Ba'zi erkaklarning o'sha ayollardan o'rganishi kerak bo'lgan narsalari ko'p. Men yetim o'sdim. Uch yoshimdan beri ota mehri nimaligini ko'rmadim, bilmadim, his qilmadim. Sevgi, muhabbatni va bir qancha narsalarni juda go'zal izohlashim mumkin, lekin gap ota haqida ketganida, tilim tutilib, jim bo'lib qolaman, chunki bu yara hech kim tuzata olmaydigan chuqur izlar qoldirgan. Va men bu yaralarni yillar davomida o'zim davolashni xohladim.

Ota so'zi menda chuqur jarohatlar ochgan, lekin ortiq og'rig'i kamaydi. Otalar kuniyam hech qanday ma'no anglatmaydi. Yillar davomida yonimda faqat onamni ko'rdim, uning soyasi ham yetarli men uchun.

**Yillar davomida farzandlariga ham otalik,
ham onalik qilgan ayollarga salomlar bo'lsin.**

**Koshki, deyishni yoqtirmayman,
lekin koshki, bunday bo'lmasak edi.**

Koshki, meni eshitmay orqaga o'girilib ketish o'rniga, o'tirib tinglaganingda, o'sha yuzimga yopgan eshiklaring tagida seni kutishdan boshqa chora qoldirmay chiqishi yo'q ko'chaga otmasdan, ikkimizga imkon berganingda edi. Umrim davomida bir nechta muvaffaqiyatsizliklar bilan yuzlashdim, lekin senga bog'liq bo'lgan koshkilar menga eng kuchli zarbalarni berdi.

To'g'ri, balki, har xotirlaganimda bir yonimda og'riqni his qilsam ham vijdonim tinch, chunki seni hayotingda hech kim sevolmaydigan darajada go'zal sevdim. Yetmaganiga kutdim. Men qanchalik kutgan bo'lsam, sen shunchalik kelishni xohlamasding.

Men seni sevishga, sen esa men tomon kelmasligingga o'zaro va'dalashgandik.

Lekin men so'zimning ustidan chiqolmadim. Ortiq senga oshiq emasman. Biz yutqazdik.

**Tugatish uchun boshlash kerak.
Biz sen bilan tugatishni ham eplolmadik.**

Uzr so'rayman

*I*shonavering, yaralaganingizdan so'ng so'ragan uzringiz sindirilgan qalbni tuzatishga yetmaydi. Yetadi, deb o'ylaysiz, lekin yetmaydi.

Yaralaysiz, qilgan barcha aybingizni shunchaki, bir «Uzr so'rayman» jumlasiga sig'dirasiz. Koshki, hamma narsa siz o'ylagandek oson bo'lsa, lekin afsuski, unday emas. To'g'ri, uzr so'rash ham bir jasorat, lekin singan qalbni tuzatoladigan darajada yetarli emas. Afsuski, uzr so'rashni sevimli mashg'ulot qilib olgan bir nechta insonlarni taniyman.

Shaxsan men, meni ranjitgan insonning so'ragan uzrining zarrasini ham e'tiborga olmayman, chunki qalbim yaralanganidan so'ng barcha azoblarimni bir jumлага jamlay olish imkonsiz. Qayta-qayta uzr so'ratgandan ko'ra, uni ham, o'zimni ham bunday ko'ngilsizlikdan vaqtida ozod qilganim yaxshi. Asl zukkolik kechirim so'rash emas, balki bunday vaziyatlarga tushmaslik yo'llarini topishdir.

Yarala, parchala, azobla, undan so'ng «Uzr so'rayman» de, o'zingni hech narsa bo'lmaganday tutishda davom et. Bunaqasi ketmaydi.

**Uzr so'raydigan ishlar qilgandan ko'ra,
bunday ishlardan uzoq turing.
Bir insonning yaralashga emas,
baxtli qilish uchun bor bo'ling hayotida.**

Sen dardimga dard bo'lding

*Y*aralangan bo'lsangiz, malham sifatida birovlardan foydalanishni odat qilmang. Kimsa sizga davo bo'lolmaydi. Kerak bo'lsa, o'z og'riqlaringizga sodiq qoling. Eski dardlardan ozod bo'lish, unutish uchun yangi yolg'on munosabatlar qurib, ularni ham umidvorligicha yarim yo'lda qoldirib qochmang. Unutish bu shaklda bo'lmaydi. Bu chirigan fikringizdan voz keching. Joiz bo'lsa, dardingizni ichingizga yuting, lekin yolg'on va'dalar bermang. Har qarshingizdan chiqqanlarga shunchaki, yarangizga malham sifatida qaramang. Balki bir kuni malham sifatida ko'rgan insoningiz ham bitmas yaranga aylanar, hammasini o'shanda tushunib yetasiz. Lekin unda kech bo'ladi...

**Yarangizga malham sifatida qaragan insonlaringiz
yarangiz bo'lsa...**

«Achinmaydiganlarga achinganimiz
uchun doim achinarli
holatga tushdik...»

E'tibor

E'tibor munosabatlarni muvozanatda ushlab turoladigan eng muhim omil. Ikki inson bir-biriga bo'lgan e'tibori so'nganida hammasiga yakun yasay oladigan darajada kuchli vosita. Ya'ni kislorod kabi deyishimiz ham mumkin. Odatda, e'tiborni ayollar istashini hammamiz bilamiz, chunki ular e'tibor ko'rgani sari go'zallashadi. Butun qalbi bilan sevadi va o'zida bor har narsaga sizni sherik qiladi.

Odamlar, odatda, ayollarni ko'proq ta'sirchan va e'tiborga muhtoj deb o'ylaydilar. Baxtga qarshi, mehrga va e'tiborga muhtoj bo'lgan erkaklar ham bor. Aslida, bunday tuyg'ularning ayollar yoki erkaklarga xos deyilgan joyi yo'q. Kimda muhtojlik sezilsa, unga berilishi kerak, xolos. Qiyin joyi yo'q buni.

**E'tiborsiz munosabat, suvsiz qolgan gulga o'xshaydi.
Ikki kun o'tgach, so'lib qoladi.**

Har onimda sen bor eding

*M*en doim seni kutdim. «Hammaning qo'lidan sevish keladi, lekin kutish bu boshqa mavzu», deyдилar.

Sen boshqasini sevishing haqiqatini anglay-anglay, sevishingni kutdim. Soatlar, kunlar, haftalar, oylar o'tdi, lekin na qalbidagi sevgi senikiga o'tdi, na o'z qalbim o'zimga quloq soldi. «Yaralarim bor», deding, «Azoblarim bor», deding, «Men unuta olmagan boshqa inson bor», deding. Hammasini tushungan holda qabul qildim. Bunga loyiq inson bo'lganing uchun emas, sevgimga bo'lgan hurmatimdan. Ishon menga, sevish u qadar qiyin narsa emas. Sevish imkonini yo'qqa chiqarding. Fido-korlikmi? A'losini qildim. Yelkanga bosh qo'yishni istadingmi? Har on eshiging tagida edim. Nafas olgan har daqiqangda yoningda edim. Lekin nega? Yuragi bo'lmagan odam uchun chekkan azoblaringga mendan malham sifatida foydalanishing uchunmi? Aslida, menga eng qiyin bo'lgani nima edi, bilasanmi? Men o'z jarohatlarimga qaramay, senga malham bo'lishga bel bog'ladim. Keyin esa yaralaring tuzaldi, menga ehtiyojning qolmadi. Men ham yakunini seza turib, senga aldanishimga yo'l qo'ydim. Seni ham qachondir malhamga aylanadi degan umid bilan yashab, battar dardlarim ustiga dard orttirdim.

Hech qachon kelmaydigan odamni kutdim, aqlimni yo'qotgandim.

**Xato menda, noloyiq ekansan.
Buning farqiga borolmadim.**

Otasiz ulg'aygan ayollar

Otasiz ulg'aygan ayollarning necha yoshga kirsa ham bir yonlari doimo bola bo'lib qoladi. Hayotlaridagi eng katta zarbani otalaridan olganlari uchun kimgadir ishonchini bermoqchi bo'lganida juda ehtiyotkorga aylanadilar. Hatto «Meni o'z otam yarim qoldirdi, boshqasi qanday qilib, butlardi» tushunchasi bilan qaraydi, hayotga. Nazarimda, go'zal sevilishga aynan shunday ayollar loyiq. Shunday sevisht kerakki, hamma erkaklar bir xil emasligini ko'rishsin. Men otasi tarafidan yarim qoldirilgan ayollarning go'zal tarzda sevolishiga ishonaman, chunki ularning sevgisi boshqacha bo'ladi. Ularning sevgisi yarim yo'lda tark etilganlikni, kemptiklikni ichdan his qilolishni, sog'inchni, ega chiqishni, huzunni ifodalab turadi. Sevgan odamlarini otalari qoldirgan bo'shliq sabab, tugal sevishtni to'g'ri hisoblaydilar. Yonida suyanadigan odami borligini his qilgach esa butun borini tuhfa etishga tayyor turadilar.

Bunday ayollar sevilganida kemptik bo'lgan, mahrum etilgan tomonlaridan sevilishi kerak. Dardiga dard bo'lishdan yiroq bo'ling.

**Otasiz ulg'aygan ayollarning yana bir zarbasi
siz bo'lmang.
Ular haqiqiy sevgiga loyiq.**

Otasiz ulg'aygan erkaklar

Otasiz ulg'aygan erkaklar tantiq ayollarni u qadar sevmaydilar. O'zlari kabi azobning eng og'ir yukini tortgan ayollarni ko'rishni istaydilar.

Bunday erkaklar kichik bir qiyinchilikka ham orqalarini o'girib ketmaydilar. Qolib kurashadilar. Bo'lmaydigan narsalarni bo'ldirish uchun qo'lidan kelganidan-da ortig'ini qiladilar. Hayotlaridagi eng qadrli zot onalaridir. Onalariga bo'lgan mehribonliklari hayotiga qabul qiladigan ayolni ham qiziqtirgani uchun go'zal tuyg'ularga egadirlar. Va bir ayolning yuragiga yo'l esa sevgan odamining onasini qanday sevishidan o'tadi.

Otasiz ulg'aygan erkaklar sevsa, onasiga bo'lgan sevgisi kabi sevadi. Kuchsiz bo'lgan paytlari ham hech kimga kuchsiz ekanliklarini sezdirmaydilar. Kurashuvchanlar. Bir ayol kim uchundir hamma narsaga tayyor bo'lsa, shunday erkakni tanlashi kerak, yo'qlik ko'rgan erkak hayotini sevgan ayolining borligi bilan butunlashishini yaxshi biladi.

Otasiz ulg'aygan bir erkakning kamchiligini bartaraf etgan ayol u erkakning onasi kabi ardoqli. Va u erkak ham uni o'sha mehr bilan sevadi.

Ayol qanday sevadi?

*A*yollarning erkaklardan kutadigani nimalar ekanligini hammamiz bilamiz. Bu gaplarni «Men qo'limdan kelgan-cha harakat qilyapman, lekin u ayol meni istamayпти», deganlar uchun yozaman.

Agar bir insonning ichida istak bo'lmasa, nima qilsang ham hammasi behuda.

Hamma narsa xohish bilan boshlanishi va qo'lga kiritish bilan tugashini bilamiz. Bugungi kunimizdagi insonlar duch kelgan odamga sevgi izhori yo'llayпти. Agar sen bir ayolni sevsang va hayotingda bo'lishini istasang, unga darhol sevishingni oshkor qilma. Bunday shoshilinch qaror qabul qilma. Zotan, u ayol ham sen bilan bog'liq nimalargadir qiziqsa, buni sezdiradi. Va bu imkondan sen shunday foydalanishing, u ayolga sevgingni shunday taqdim etishing kerakki, u sendagi xislatlarni ko'rar-ko'rmas ichingdagi otashga taslim bo'lsin. Ayollarning erkaklarga diqqat qiladigan yana bir tarafi uning so'zida turolishidir. Agar erkak sevgan ayoliga aytgan so'zining ustida turolishini ko'rsatsa, u ayol uchun bu katta sarvatdir.

Uni, haqiqatan, sevsang, unga niyating jiddiy ekanini ko'rsat. Ayol sendan uzoqlashayotgan bo'lsa, uni ayblash o'rniga, «Nima qilgan edim?» degan savolni o'zingga ber. Chunki sevgan ayol ketmaydi.

Uni to'xtovsiz sevishing emas, balki tushunishing ham kerak. Chunki ayollar ularni tushunadigan erkaklarni qadr-

laydilar. Qadrlaganlarining javobini esa sevgan insonlaridan faqat sodiq qolishlari shaklida istaydilar.

Sadoqat juda muhimdir. Qisqasi, bir ayol sendagi farqli jihatni ko'rganida, senga qiziqishni boshlaydi. Ammo aslo hafsalasini pir qila ko'rma.

So'zingda turolishingni ko'rsat. Va, albatta, doimo uni tushun. Unga bosim o'tkazish o'rniga seni sog'inishi uchun harakat qil.

**Agar aytganlarimning barini qilishingga qaramay,
hali ham ayol sen tomon qadam tashlamayotgan
bo'lsa, demak, sevgani bor yoki seni xohlamaydi.**

**Hamma narsa xohish bilan boshlanadi.
Xohlangan narsaning ortiga tushib, harakat qilish
bilan davom etadi.
Hodisa shu qadar oddiy.**

Xotima

Qtmish ortda qolganini qabul qilolmay, qo'rqayotganlaringiz hayotingizga kirishiga o'zingiz izn beryapsiz. Bunday qilishni to'xtating.

Qo'rquv bo'lsin, lekin hayotingizdagi eng kichik, arzimas arayonlarga ham xalaqit berishiga yo'l qo'ymang. Hayotning har lahzasidan, har zarrasidan o'z nasibangizni va ulushingizni oling. Yashang, bahra oling, his qiling, chunki zavqlanib yashamagan va hissiz o'tkazgan buguningizning ertasi bo'lmasligi mumkin. Kech qolganlik hissi juda yomon va ortga jaytarishning imkoni yo'q, bilasiz.

Hamma narsa mumkin ekan. Robbingizga shukr keltiring. Yani damda shu yozuvlarni o'qiy olayotgan bo'lsangiz, demak, raqiqatan ham, hozir ba'zi narsalarning imkoni bor. Qo'rqing, ekin sezdirman. Zaif taraflaringizni o'zingizdan boshqa hech kim bilmasin. Inson nimadan qo'rqsa, o'sha narsa boshiga keladi. Kelmasa ham keltirishga urinadilar. Sizni baxtli qilishi mumkin bo'lgan narsalarni emas, aynan siz qo'rqqanlaringizni boshingizga solishadi. Koshki, bu marhamatni eng avval o'zlariga shu ondagi telba hollaridan o'zlarini qutqarish chun qilsalar edi. Shunday tushunmaydigan insonlar uchun ertiqcha qayg'uga botmang. Qayg'uraningiz sari uzoqlashasiz, bog'lanish esa qiyin bo'ladi.

Shuni ham unutman, qo'rquv qo'rqoqlik emas. Asl o'rqoqlik - bir marta yashaydigan hayotingizdagi hamma arsanning oldida qo'rquvlaringiz to'siq bo'lishidir. Qo'ruv va

qo'rqoqlik umuman boshqa-boshqa narsalardir. Men shunday deb o'ylayman. Shu on bu so'zlarni o'qiyotgan bo'lsangiz, qo'rqoq emassiz. Avval qilgan xatolar takrorlanishidan, hayotingga kiritadigan insonlaringiz yana aynan yaralangan joyingizni yangidan yaralashlaridan, noto'g'ri qarorlar qilishdan va shu kabi narsalardan qo'rqishingiz mumkin, lekin ular sevish va yashashga to'siq bo'lolmaydi.

O'zingizni bir jarlik yoqasida deb tasavvur qiling. Orqan-gizda esa siz sevgan va siz sevadi deb o'ylaydigan insoningiz... Sizni jarlikka itarib yuborsa, asl qo'rqoq udir, lekin sizga qo'llarini uzatib, o'ziga tortib olsa, u sizni o'zgacha sevoladi. Chunki qolib kurashish mardlikni, mehnat, harakat va sabrni talab qiladi. Sevgini talab qiladi, sevgini... Sizni jarlikka itarib qutulish o'rniga qutqargan insonda bularning barchasi mavjud.

Albatta, jarlik yoqasidan tortib olgan insonlarim bo'ldi... Lekin men hech qachon qo'rqoq bo'lmadim...

E'tibor bering, qo'rqmadim demadim, qo'rqoq bo'lmadim dedim. Qo'rquvlarim meni qo'lga olishiga imkon bermagan bo'lsam-da, qo'rqqan onlarim, shubhasiz, bo'ldi.

Hozir sen! Ha, bu jummalarni o'qiyotgan sen! Senga aytyapman:

Hayotda hech narsa va hech kim sendan qadrli bo'lolmaydi. Hayot qisqa, arzimagan narsalarga umuman, hech narsa uchun xafa bo'lma! Bundan battarlari bor, har holingga shukr keltirishni unutma. Bardosh berolmayman degan qancha halokatlarga kuching yetdi. Bunisini ko'tara olmayman, degan qancha azoblarni ko'tarib yer bilan yakson qilding. Hech kim seni yiqita olmadi. Chunki sen kuchlisan! Qo'rquvlarning mavjud bo'lishi mumkin, lekin sen qo'rqoq emassan!

Chunki kitoblarimni o'qigan odam qo'rqoq bo'lmaydi...

**Hayotingni qo'rqoq bo'lib emas,
biroz qo'rquvlari mavjud bo'lgan, lekin doim
jasorat ila olg'a odim otadigan
inson sifatida yashab o'tishingni tilab qolaman.**

**Mualliflik huquqi buzilgan taqdirda huquqbuzar
O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi
doirasida javobgarlikka tortiladi.**

Adabiy-badiiy nashr

**MIRACH CHAG'RI OQTOSH
SEN O'N YETTI YOSHIMSAN**

**Muharrir Feruza EGAMOVA
Badiiy muharrir Bobur MURODOV
Kompyuterda sahifalovchi Dildora JO'RABEKOVA
Texnik muharrir Surayyo AHMEDOVA**

Litsenziya raqami: AI № 252. 02.10.2014 da berilgan.

Bosishga 27.01.2023-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Garnitura «Cambira». Ofset qog'oz.

Bosma tabog'i 11,0. Shartli bosma tabog'i 18,48.

Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 71-23.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yoshlar matbuoti» MChJda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (71) 230-00-50;

Savdo va Marketing bo'limi – (77) 013-00-50;

(77) 013-00-60.

www.book.uz; @bookuzbekistan

email: yangiasravlodi@mail.ru

«Yoshlar matbuoti» MChJ va «Yangi asr avlodi» NMMning faol hamkorlari manzillari

1. «Book.uz» kitob do'koni. Tel.: 99-891-03-24.
Toshkent sh. Chilonzor-8, Qatortol k-si, 60.
2. «O'zdavkitobsavdo». Tel.: 93-550-55-90.
 - a) Toshkent sh. Navoiy ko'chasi, 30-uy.
3. «Hilol» nashriyoti. Tel.: 91-192-00-40. Toshkent sh. Chilonzor t-ni. So'galli ota k-si, 5.
4. «Andijon Kans». Tel.: 90-258-24-79. Andijon sh. Istiqlol k-si, 8.
5. «BeNeT» MChJ. Tel.: 91-600-90-36, 97-472-94-97.
 - a) Andijon sh. Istisqlol k-si, 9. b) Andijon sh. Mustaqillik k-si, 10.
6. «Jet iqlim» MChJ Tel.: 90-652-40-92. Nukus sh., Ipak yo'li k-si.
7. «Gulobod savdo». Tel.: 97-911-87-69.
Samarqand sh. Abdurahmon Jomiy k-si, 52.
8. «SHERZOD STATIONERY» MChJ. Tel.: 91-532-72-72.
9. «Qutlug' qadam» MChJ Tel.: 97-222-00-11.
Qarshi sh., Islom Karimov ko'chasi, 245/1-uy.
10. «Farg'ona kitoblar olami». Tel.: 95-400-78-79. Farg'ona sh., Kashtanzor k-si, 7-A.
11. «Buxoro kitob olami». Tel.: 97-238-03-05. Buxoro sh., Alisher Navoiy shohko'chasi, 5. Tel.: 65-223-51-84.
12. «Ilm nuri» MChJ. Tel.: 91-258-91-71. To'rtko'l t-ni, Nukus k-si, 10-uy, kitob do'koni. Tel.: 94-909-40-04.
13. «Qashqadaryo kitob olami» MChJ. Tel.: 93-422-57-57, 91-461-97-77. Qarshi sh., O'zbekiston k-si.

Unutdim deyilgan har soniyada yanada ko'proq
sevilgan, ayrilish soniyalari yaqinlasharkan tobora
mustahkamroq bog'langan, bog'lanayotib chigal
tugunga aylangan bir hikoya edi bizniki...

YOSHLAR
MATBUOTI

WWW.BOOK.UZ

ISBN 978-9943-8757-3-0



9 789943 875730